

MUHABBAT MADAMINOVA



Madaminova Muhabbat Sotvoldiyevna 1980-yil 21-sentabrda Andijon viloyati, Baliqchi tumanida ziyolilar oilasida tug'ilgan. Millati-o'zbek.

2002-yilda Andijon davlat universiteti "O'zbek filologiyasi" ta'lim yo'nalishini, 2018-yilda Andijon davlat universitetining "O'zbek tili va adabiyoti" mutaxassisligi bo'yicha magistratura bo'limini tamomlagan. 2002-2019-yillarda Andijon viloyati,

Baliqchi tumani 13-umumiy o'rta ta'lim maktabida ona tili va adabiyoti o'qituvchisi lavozimida ishlagan. 2019-2022-yillarda Andijon davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodika kafedrasida mehnat qilgan. 2022-yildan hozirgi kunga qadar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida mehnat qilmoqda.

M.S.Madaminova ilmiy sohada bir qator muvaffaqiyatlarga erishgan, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruzalari bilan qatnashib, 40 dan ortiq maqola va tezislari chop ettirgan. 2022-yil Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan "Ilm fan fidokori" tanlovi esdalik nishoni bilan taqdirlandi. 2022-yil Xalqaro maqolalar tanlovi g'olibi.

2022-yilda "Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o'rni" mavzusida dissertatsiya himoya qilib, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgan.

# MATN PRAGMATIK TAVSIFIDA SINTAKTIK BIRLIKLARNING O'RNI



monografiya

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI**

**MADAMINOVA MUHABBAT SOTVOLDIYEVNA**

**MATN PRAGMATIK  
TAVSIFIDA SINTAKTIK  
BIRLIKLARNING O‘RNI**

**“BOOKMANY PRINT”  
TOSHKENT – 2023**

**UO‘K: 811.512.133'367**

**KBK: 81.2O'zb-2**

**M 14**

Madaminova, Muhabbat Sotvoldiyevna.

Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o‘rni [Matn] : monografiya / M.S. Madaminova. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 100 b.

Ushbu monografiyada o‘zbek tilida sintaktik qurilmalarning alohida ko‘rinishlari, ularning kommunikativ-sintaktik, lingvopoetik va lingvopragmatik xususiyatlari tadqiq qilingan. Bunda turli uslublarga xos matnlar hamda zamonaviy internet diskursiga oid sintaktik qurilmalar asosida o‘zbek tilidagi sintaktik qurilmalarning lingvopragmatik xususiyatlarini so‘zlashuv nutq uslubi erkinligi hamda implitsit ifodalarga boyligi tufayli muloqot yoki kontekst doirasida aniqlash mumkinligi isbotlangan; darak, so‘roq, buyruq va istak gaplarning lingvopragmatik tabiatida inversiya, parsellyatsiya va ellipsis hodisalarining yuqori ekspressiv imkoniyatlari dalillangan; o‘zbek tili zamonaviy internet diskursi sintaksisining og‘zaki-yozma sinkretiklik, adabiy me‘yordan chekinish kabi medialingvistik tabiati ilmiy tahlilga tortilgan.

Monografiyadagi sintaktik qurilmalarning matndagi o‘rni kommunikativ-semantik nuqtayi nazardan aniq belgilanganligiga doir qarashlar, nazariy fikrlar o‘zbek tili sintaksisi, stilistikasi, punktuatsiyasi, lingvopragmatikasi, sotsiolingvistika va diskurs, paralingvistikasi, medialingvistikasiga doir darslik va qo‘llanmalar yaratishda, oliy o‘quv yurtlarida ma‘ruzalar, maxsus kurslar o‘tishda, amaliy mashg‘ulotlar olib borishda ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Monografiya oliy o‘quv yurti professor-o‘qituvchilari, magistr, doktorant va tadqiqotchilari uchun mo‘ljallangan.

**Mas‘ul muharrir:**

**Z.T.Xolmanova** - filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**N.M.Uluqov** - filologiya fanlari doktori, professor

**M.E.Umurzoqova** - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,  
dotsent

© Madaminova M.S.

ISBN 978-9943-9727-1-1

© “Bookmany print” nashriyoti, 2023.

## KIRISH

Dunyo tilshunosligida lisoniy birliklarning lingvistik tabiatini immanent holatda emas, balki bu birliklar qoʻllangan nutqiy vaziyat, muayyan matn doirasida oʻrganish orqali yangi xulosalarga kelish imkoniyati borligi asosida sintaktik sath va bu sathga oid til birliklarini ham muayyan matn doirasida tadqiq qilish, kommunikativ-pragmatik va lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash, ularning lingvopoetik imkoniyatlarini ochib berish, turli diskurslar misolida belgilash, badiiy matn sintaksisini lingvopoetik va lingvopragmatik talqinda oʻrganish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, sintaktik birliklarning pragmatik xoslanishlariga koʻra matnni tavsiflash, matnni tushunib yetishda bunday xoslanishlarning oʻrnini belgilash, pragmatik tavsifiga koʻra matn yaratuvchisini tavsiflash kabi yoʻnalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish zamonaviy tilshunoslikning sud lingvistikasi, lingvistik ekspertiza, neyrolingvistika kabi koʻrinishlari uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, taʼlim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, ayniqsa, maʼnaviy sohadagi islohotlarning samaradorligini oshirish zarurati bu yoʻnalishdagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarishni talab qilmoqda. Zero, «Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat oʻz milliy manfaatlarini taʼminlash, bu borada avvalo oʻz madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir<sup>1</sup>». Shunday ekan, oʻzbek tilshunosligining yanada taraqqiy etishini taʼminlashga bagʻishlangan tadqiqotlar koʻlamini kengaytirishni davr taqozo etmoqda. Shu maʼnoda matn pragmatik tusini belgilashda sintaktik qurilmalarni alohida tadqiqot obyekti sifatida matn doirasida maxsus oʻrganish, ularning oʻziga xos xususiyatlarini koʻrsatib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi davrda jahon tilshunosligida tamoman yangicha lingvopragmatik tahlil yoʻnalishi shakllandi va jadallik bilan rivojlana boshladi. Badiiy matn tahlilida adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohalarining oʻzaro aloqadorligida lingvopoetik tadqiqotlar yuzaga kelgan boʻlsa, badiiy nutqning adresant–adresat muloqoti masalasi

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PF-5850-son Farmoni. Manba: <http://lex.uz/docs/4561730>.

lingvopoetika bilan lingvopragmatikaning kesishuvi jarayonini yuzaga keltirdi.

O‘zbek tilshunoslig lingvopragmatika yo‘nalishining shakllanishida N.Mahmudov, A.Nurmonov, M.Hakimov, Sh.Safarov, A.Boboyeva, M.Mirtojiyev, D.Lutfullayeva, B.O‘rinboyev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari diqqatga sazovordir<sup>1</sup>.

Bu yo‘nalishda bajarilgan ishlarda badiiy matn sintaksisini lingvopoetik va lingvopragmatik talqinda antropotsentrik nuqtayi nazardan tadqiq etilmagan. Mazkur monografiyada nomlari ko‘rsatilgan va boshqa bir qator o‘zbek hamda jahon olimlarining ilmiy izlanishlari e‘tiborga olindi. Monografik tadqiqotda mazkur yo‘nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda badiiy matnning kognitiv-diskursiv xususiyatlari, kommunikativ-pragmatik tahlili masalalari o‘zbek tilida sintaktik qurilmalarning turli ko‘rinishlari, ularning kommunikativ-sintaktik, lingvopoetik va lingvopragmatik xususiyatlari ochib berildi.

---

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Махмудов Н. Эллипсис в узбекском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1977. – 111 с.; Nurmonov A. Tanlangan asarlar. Uch jildlik. I jild. – Т.: Akademnashr, 2012. – 416 b.; Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Т.: Akademnashr, 2013. – 176 b.; Bushuy T.A., Safarov Sh.S. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi: ilmiy nashr. – Т.: Fan, 2007. – B. 21; Boboyeva A. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida to‘liqsiz gaplar. – Т., 1978; Mirtojiyev M.M. Gap bo‘laklarida semantik-sintaktik nomutanosiblik. – Т.: Universitet, 2008. – 200 b.; Lutfullayeva D. Tasdiq gaplarda inkor va shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Т., 1997. – 27 b.; Lutfullayeva D. Sodda gaplarda yo‘qlik ma’nosining yashirin ifodalanishi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Т., 2001. – №5. – B. 42-45; O‘rinboyev B. O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. – Т.: Fan, 1974.

## BIRINCHI BOB

### MATNNING AMALIY FAOLIYATIGA PRAGMATIK YONDASHUV

#### 1.1. Pragmatik lingvistikaning shakllanishi va matnning lingvopragmatik tadqiqi

So‘nggi o‘n yilliklarda olib borilgan tadqiqotlarning umumiy tendensiyasi – til nafaqat olam lisoniy tasvirini aks ettirish vositasi, balki o‘zining funksional, kommunikativ jihatlari bilan muhimligiga e‘tibor qaratila boshlanganligi bilan xarakterlidir. Shu tariqa, antropotsentrik tamoyillar negizida tilning inson hayotidagi o‘rni va til taraqqiyotida inson omili dixotomiyasi lingvistik pragmatikaning shakllanishiga zamin yaratdi. Agar ilgari tadqiqot predmeti sifatida so‘z va jumalarning formal tabiatiga, immanent variantlariga asosiy e‘tibor qaratilgan bo‘lsa, pragmatika so‘zlashuvning kommunikativ mazmunini tadqiqot obyektiga aylantirdi.

«Pragmatika» atamasi (yunoncha «faoliyat», «harakat» ma‘nosida) semiotika – belgilarning umumiy nazariyasi asoschilaridan biri bo‘lgan Ch.Morris tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan<sup>1</sup>. Olim Charlz Pirs g‘oyalarini rivojlantirgan holda semiotikani uch qismga ajratdi:

1) **semantika** – belgilarning voqelik obyektlariga munosabati to‘g‘risidagi ta‘limot;

2) **sintaktika** – belgilar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish;

3) **pragmatika** – belgilarning interpretatorlar, ya‘ni belgilar tizimidan foydalanuvchilarga munosabati haqidagi ta‘limot.

Shunday qilib, pragmatika real muloqot jarayonlarida belgilarning xatti-harakatlarini o‘rganadi.

Ch.Morris ritorikani «pragmatikaning asosiy salafi» deb ataydi. «Ko‘pgina belgilarning (va ehtimol hammasining) interpretatorlari tirik organizmlar bo‘lgani uchun, – deb yozadi Ch.Morris, pragmatikaning asosiy xususiyati semiozisning biotik jihatlari, boshqacha qilib aytganda, belgilarning ishlashi paytida kuzatiladigan barcha psixologik, biologik va ijtimoiy hodisalar bilan bog‘liq<sup>2</sup>».

---

<sup>1</sup> Моррис Ч.У. Из книги «Значение и означивание» // Семиотика. – М., 1983. – С. 118-132; Финн В.К. Семиотика // Философский энциклопедический словарь. – М., 1983. – С. 601-602.

<sup>2</sup> Bu haqda qarang: Арутюнова, Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики // Новое в зарубежной лингвистике – М.: Прогресс, 1985. – Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – С. 21–38; Арутюнова, Н.Д., Падучева, Е.В. Истоки, проблемы и категории прагматики // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16: Лингвистическая прагматика. – М., 1985. – С. 3-47;

Charlz Pirs belgining umumiy nazariyasida amaliy va kommunikativ faoliyat subyekti omilini hisobga olish muhimligini birinchi bo'lib ta'kidladi (ikkinchisi u uchun belgi jarayoni, **semiozis** vazifasini bajaradi). Uning fikricha, belgi uch tomonlama munosabatlarni tashkil etadi. A'zolar sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

a) **belgi** (uning terminologiyasida *repräsentamen* (vakil)), belgi sifatida tushunilgan, ya'ni fizik xususiyatga ega va biror narsaning o'rini qoplashga qodir bo'lgan ma'lum miqdor;

b) ushbu belgi tomonidan ishlab chiqilgan, interpretator ongida lokalizatsiya qilingan va birinchi belgining talqini sifatida aniqlangan **yana bir belgi**;

c) belgi bilan ifodalangan **obyekt**.

Bunda belgi konsepsiyasi birinchi o'ringa chiqarildi. Shu bilan birga, belgilar o'z-o'zidan paydo bo'lmasligi va subyekt faoliyatidan tashqarida obyektlarning alohida sinflari mavjud emasligi tan olindi. Ular semiozis jarayonida paydo bo'ladi. Semiotik jarayondan tashqarida, so'zlovchi faoliyatidan tashqarida, belgining uchlik munosabati yo'q. Interpretatorga ta'sir qilmasdan hech qanday belgi yo'q. Charlz Pirs bu ta'sirni interpretant deb ataydi. Interpretantlar, Pirsning fikriga ko'ra:

a) ba'zi his-tuyg'ularni uyg'otishi mumkin (hissiy yoki bevosita interpretantlar);

b) qandaydir harakatni shartlashi (energetik / dinamik interpretantlar);

c) fikr yoki xulq-atvorga ta'sir qilishi (mantiqiy / normal / yakuniy interpretantlar)<sup>1</sup>.

I.P.Susovning tahliliga ko'ra, pragmatizm falsafasining asosiy tamoyili Ch.Pirsga tegishli bo'lib, unga ko'ra yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlariga qarab qiymatni hisobga olish, muvaffaqiyatga olib boruvchi va amaliy natija beruvchi faoliyatni tanlash nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilishi kerak. Interpretant, aynan, pragmatizm falsafasi nazarda tutgan vaziyatlarni o'ziga singdiradi<sup>2</sup>.

I.P. Susov semiozisda quyidagi elementlar o'zaro munosabatga kirishishini ko'rsatadi:

---

Петров В.В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16: Лингвистическая прагматика. – М., 1985. – С. 471-476; Шрамко Я. Очерк возникновения и развития аналитической философии // Логос. 2005. – Т. 47, вып. 2. – С. 4-12.

<sup>1</sup> Сусов И.П. Лингвистическая прагматика. – М.: Восток-Запад, 2006. – С. 8; Сусов И.П. Семиотика и лингвистическая прагматика // Язык, личность и дискурс. – Тверь: 1990. – С. 125-133.

<sup>2</sup> Сусов И.П. Ко'rsatilgan manba. – С. 8.



a) *belgi* – Ch.Morris tomonidan belgi vositasi (sign vehicle), belgi tashuvchisi sifatida talqin qilingan;

b) *designat* (designatum) yoki *signifikat*, ya'ni belgi ishora qilayotgan referensiya obykti;

v) *interpretanta* (interpretant), ya'ni so'zlovchining belgi bilan shartlangan xatti-harakati;

d) *interpretator* (interpreter) – semiozis jarayonidagi ijrochi, ya'ni so'zlovchi. Bu tarkibiy qismlarning barchasi bir-birini taqozo qiladi.

Susovning ta'kidlashicha, bu yerda semiotikaning bir tomonlama belgi konsepsiyasi berilgan bo'lib, uning tarkibida moddiy tashuvchi bor, lekin ifodalangan ma'no nazarda tutilmay qolgan. F.de Sossyur «Umumiy tilshunoslik kursi» asarida ushbu konsepsiyani rivojlantiib, belgiga ikki tomonlama yondashuvni ishlab chiqdi, ya'ni belgining ikki tomonini – ifodalovchi ((signifikant, lot. significandum) va ifodalangan (signifié, lot. significatum), lekin uning modelida denotat ham, belgidan foydalanuvchi ham nazarda tutilmagan<sup>1</sup>.

Pragmatika – bu til tashuvchisi va til o'rtasidagi munosabatni o'rganadigan fan. Pragmatika ikki xil muammoni tahlil qiladi: birinchidan, nutqiy akt va nutq «mahsulotlari»ning qiziqarli turlarini aniqlash; ikkinchidan, nutqiy kontekstda, muayyan jumlada qanday propozitsiya ifodalanishini aniqlashga ta'sir qiluvchi belgi va xususiyatlarni tavsiflash<sup>2</sup>.

*Tasdiq, buyruq, kontrafakt so'zlashuv, talab, taxmin va rad etish, iltimos, e'tiroz, bashorat, va'da, chaqiriq, mulohaza, tushuntirish, haqorat, xulosa, taxmin, umumlashtirish, javob berish, aldash* – bularning barchasi nutqiy akt turlaridir. Pragmatik tahlilning vazifasi nutqiy aktning muvaffaqiyatli (ba'zan normal) amalga oshishi uchun zaruriy va yetarli vaziyatni aniqlashdir. Bu pragmatikaning vazifasi bo'lib, so'zlovchining niyati; xuddi shu kontekstda sodir etilayotgan nutqiy aktlarning ba'zi xususiyatlari mavjudligi / yo'qligi; so'zlovchi va tinglovchining bilimi, fikri, kutgan va qiziqqanlari; ifodaning aytilgan vaqti va uning natijasi; propozitsiyaning haqiqiy qiymati, shuningdek, propozitsiyaning nutqiy aktdagi boshqa propozitsiyalar bilan o'zaro ma'no munosabatlari va hokazolar bilan bog'liq<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Сусов И.П. Ко'rsatilgan manba. – С. 10.

<sup>2</sup> Столнейкер Р.С. Прагматика. Перевод с английского В.В.Туровского // Новое в зарубежной лингвистике, Вып. 16. Лингвистическая прагматика. Сборник. – М.: Прогресс, 1985. – С. 419-439.

<sup>3</sup> Столнейкер Р.С. Ко'rsatilgan manba. – С. 439.



V.G. Gak esa masalaning mohiyati inson omili bilan bog‘liqligiga e‘tibor qaratadi: «Pragmatika ifodalarni talqin qilish bilan birga muayyan nutqiy vaziyatlarda ularning shaklini tanlash muammolarini ham qamrab oladi<sup>1</sup>». B.Yu.Norman V.G.Gakning ushbu ta‘rifida pragmatik jihatdan **so‘zlovchi pozitsiyasi** (shaklni tanlash) va **tinglovchi pozitsiyasi** (gapni talqin qilish) mavjudligini ta‘kidlaydi va bu fikrni kengroq tavsiflaydi: «So‘zlovchi bayon qilayotgan ma‘lum bir til birliklarini tanlash asnosida aniq va yashirin maqsadlarni ifodalashi va bunda u tinglovchining qabul qila olish imkoniyati muayyan darajasini nazarda tutgan yoki buni hisobga olmagan bo‘lishi ham mumkin, lekin bundan qat‘iy nazar u muloqot samaradorligiga erishishga qaratilgan bilvosita nutqiy aktlar va til o‘yinining turli usullaridan foydalanadi<sup>2</sup>».

Insonlar o‘zaro muloqot jarayonida axborot uzatuvchi (adresant) va uni qabul qiluvchi (adresat) munosabatiga kirishadilar. Har qanday nutqiy bayon (og‘zaki yoki yozma) kommunikativlik xususiyatiga ega bo‘lib, so‘zlovchi uzatadigan xabardan qabul qiluvchi tushunishi kerak bo‘lgan ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Qabul qilingan ma‘lumotning reseptor tomonidan idrok qilinishi pragmatik munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bunday munosabatlar turlicha xarakterga ega bo‘lishi mumkin, chunki matn reseptor uchun faqat o‘ziga tegishli bo‘lmagan va u uchun uncha katta qiziqish uyg‘otmagan ba‘zi faktlar va hodisalar haqidagi ma‘lumot manbayi bo‘lishi ham mumkin yoki aksincha, olingan ma‘lumotlar reseptorning hissiyotlariga ta‘sir qilishi, ma‘lum bir hissiy reaksiyaga sabab bo‘lishi va uni biron bir harakatga undashi mumkin. «Matnning bunday kommunikativ effekt hosil qilishi, adresantning adresatga nisbatan pragmatik munosabatda bo‘lishi, boshqacha aytganda, ma‘lumot oluvchiga pragmatik ta‘sir ko‘rsatishi pragmatik aspekt yoki pragmatik salohiyat deb nomlanadi<sup>3</sup>».

L.A.Nefedova va YE.A.Titovalar har qanday lisoniy belgilar o‘quvchi yoki tinglovchiga ma‘lum bir pragmatik ta‘sir (kommunikativ effekt) xususiyatiga ega ekanligini ta‘kidlar ekan, V.N.Komissarovning fikrlariga asoslanib, pragmatik ta‘sir xususiyatini belgilovchi uch asosiy omilni ko‘rsatadilar. Birinchidan, bu *ifoda mazmuni*. Ikkinchidan, xabarni idrok qilish uni tashkil etuvchi *belgilar xususiyatiga* bog‘liq. Aynan bir xabar turli xil usullar bilan uzatilishi mumkin, ya‘ni so‘zlovchi

<sup>1</sup> Гак В.Г. Языковые преобразования. – М.: Школа Языки русской культуры, 1998. – С. 570-571.

<sup>2</sup> Норман Б. Ю. Лингвистическая прагматика (на материале русского и других славянских языков): курс лекций. – Минск, 2009. – С. 6.

<sup>3</sup> <https://cyberleninka.ru/article>

lisoniy vositalarni ma'lum bir ta'sir niyatiga muvofiq tanlaydi. Uchinchidan, ifodaning pragmatik ta'siri **qabul qiluvchining ham idrok etishi**ga bog'liq<sup>1</sup>.

Faoliyatning anglash tamoyiliga o'tish tilshunoslikning asosiy muammosi – ma'noga yangicha talqinni shakllantirdi. Til hodisasi semantika bilan nutq hodisasi pragmatika tutashgan joyda pragmasemantika deyish mumkin bo'lgan nutq semantikasi jadal rivojlandi. U so'zlovchi nutqining ma'nosi – subyektning nutqiy faoliyati maqsadi va niyatlari majmuyi vazifasini bajaradi. Bunda eksplitsit – to'g'ridan-to'g'ri va implitsit – yashirin ma'nolar o'rtasidagi bog'liqlik muhokama qilinadi<sup>2</sup>.

Ma'lumki, tilning asosiy vazifasi sifatida kognitiv va kommunikativ funksiyalari anglashiladi. Ushbu fikr Ch.Pirs, N.Xomskiy, R.Jekendoff, R.Pavilionis va boshqa olimlarning asarlarida turli talqinda rivojlantirilgan<sup>3</sup>. Til birliklari ma'lum bir konseptual tizim doirasida insonning tushunishi, talqin qilishi natijasida o'ziga xos ma'no va mazmunga ega bo'ladi. Ana shu har bir kommunikativ vaziyatning o'ziga xosligi va asosiy kognitiv jarayonlar bilan bog'liqligi tilning funksional mohiyatini batafsil o'rganishni talab qiladi.

Muloqotning asosiy maqsadi – o'zaro konseptual bog'liqlik, ya'ni kommunikatorlar o'rtasida tegishli bilim strukturalarining o'zaro faollashishi, har xil turdagi bilimlar asosida shakllangan ma'no birliklari almashinuvidir. Kognitiv qobiliyat kabi til ham inson ongining ajralmas bir qismi sifatida muloqot jarayonida muayyan bilimni tartibli tarzda yetkazish (yoki adresat ongida faollashtirish) uchun zaruriy operatsiyalarni yuzaga keltirishda muhim ahamiyat kasb etadi<sup>4</sup>.

Muloqot xulqining shartli (odatiy) me'yorlari haqida gapirganda, V.G. Gak **pragmema**, ya'ni pragmatik funksiya bajaruvchi til birligi tushunchasidan foydalanadi. Bir xil pragmema turli tillarda turli shakllarda ifodalanishi mumkin. Ayrim vaziyatlarda esa pragmema bir tilda mavjud bo'lib, boshqa tilda bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, rus tilidagi « *приятного аппетита* » iborasi va fransuzcha « *bon appetit* » ingliz tilida muqobiliga ega emas. Ruslarda ovqatdan keyin bekaga

---

<sup>1</sup> Лингвистика и экстралингвистика: аспекты коннотативного значения: Коллективная монография. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт. гуманит. ун-та, 2009. – С. 32.

<sup>2</sup> Сусов И.П. Лингвистическая прагматика. – Винница. Нова Книга, 2009. – С. 10.

<sup>3</sup> Bu haqda qarang: Hakimov M. O'zbek pragmalingsvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2013. – 176 b.

<sup>4</sup> Болдырев Н.Н. Интерпретирующая функция языка // Вестник Челябинского гос.унв. 2011. – № 33 (248) – С. 11-16.

minnatdorchilik bildirish odatidan keyin « на здоровье » tarzida javob beriladi, fransuzlarda bunday odat yo‘q, lekin mulozamat qoidalariga ko‘ra taom olib kirilayotganda maqtash talab qiladi. Adabiyotlarda ta’kidlanishicha, yaponlar yevropaliklarga qaraganda tez-tez, ya’ni yevropalik yoki amerikalik kechirim so‘rash noo‘rin deb hisoblagan hollarda ham kechirim so‘rashadi<sup>1</sup>. Rus tilida jamoat joyida kim bilandir « До свиданья, Прощайте, Всего доброго! » kabi iboralar bilan, o‘zbek tilida esa «*Xayr*», «*Yaxshi qoling*», «*Yaxshi boring*», «*Men boray*» kabi shakllarda xayrlashish mumkin. Rus tilida: Sh<sub>1</sub>Sh<sub>2</sub>Sh<sub>3</sub> → P<sub>1</sub>, o‘zbek tilida: Sh<sub>1</sub>Sh<sub>2</sub>Sh<sub>3</sub> Sh<sub>4</sub> → P<sub>1</sub>. Shuningdek, o‘zbek tilida «*Xayrli tong*», «*Xayrli kun*», «*Xayrli oqshom*», «*Xayrli kech*» iborolari salomlashish ma’nosini ifodalasa, «*Xayrli tun*» xayrlashish ma’nosini ifodalaydi. Demak, bu yerda «*Xayrli tong*», «*Xayrli kun*», «*Xayrli oqshom*» iborolari shakl bo‘lsa, **salomlashish** ma’nosi pragmemma, shuningdek, «*Xayrli tun*» shakl, **xayrlashish** pragmemma hisoblanadi. Ya’ni, Sh<sub>1</sub>Sh<sub>2</sub>Sh<sub>3</sub> → P<sub>1</sub> ni ifodalasa, Sh<sub>4</sub> → P<sub>2</sub> ni ifodalamoqda.

B.Yu.Norman ham muayyan maqsadli sintagmalarning pragmatik xususiyatlarini tahlil qiladi, lekin u *pragmemma* terminini qo‘llamaydi. Albatta, har bir jamiyatda muloqot xulqi ma’lum bir madaniy me’yorlarga asoslanadi. Bu me’yorlar ko‘plab aniq qoidalarni belgilaydi, masalan, odamga qanday shaklda murojaat qilish, suhbatdoshning gapini bo‘lmaslik, oddiy muloqotda suhbatdoshlar orasidagi masofa qanday bo‘lishi kerak va hokazo. Biroq, bularga asoslanib, bir xalq boshqasiga qaraganda «madaniyatliroq» yoki «xushmuomala» deb ayta olmaymiz.

Nutqiy faoliyatda, ko‘pincha, semantik ma’nodan ko‘ra pragmatik komponentlar «yuk bosadi». Bu degani, so‘zlovchi uchun suhbatdoshiga obyektiv ma’lumotni yetkazish bilan birga o‘zining subyektiv munosabatini ham ifodalashi muhim jihat hisoblanadi: tilning kommunikativ funksiyasiga qo‘shimcha ravishda fatik va emotiv funksiyalari ham qo‘shiladi.

Ifodalanayotgan mazmunning boshqa barcha jihatlarini «bosib», pragmatik tusini belgilaydigan nutqiy akt turlari mavjud. Bular so‘kinish, qasam, qasamyod, qarg‘ish, duo va hokazo. Boshqa holatlarda esa asosiy mazmunga hamroh bo‘ladigan, unga qo‘shimcha tarzda pragmatik tomonini kuchaytiradigan til birliklari qo‘llanadi. Misol tariqasida *Senga necha marta aytishim kerak!* (g‘azab ifodalanadi: «sen hech tushunmaysan»); *Men bunday deb o‘ylamayman* (muloyim kelishmovchilik: «bunday emas»); *Hali ozgina bor ...* (hamdardlik: «sabr

<sup>1</sup> Гак В.Г. Ko‘rsatilgan manba. – С. 570- 571.

qiling»); *Men sizni ushlab turganim yo'q* (yoqtirmaslik: «ketaverishing mumkin»); *Nimasini aytasiz!* (tasdiqlash: «to'g'ri gapiryapsiz») va hokazo<sup>1</sup>.

Nutqning pragmatik tomoni muloqot xulqi etiketlarida aniq namoyon bo'ladi. Aytaylik, «Qandaysiz?», «Ishlar qalay?», «Omonmisiz?» kabi savollarga, odatda, «Yaxshi», «Rahmat», «Shukur», «Yomon emas», «Bo'ladi», «Joyida» kabi nutqiy etiketlar – tasdiq ma'nosining biror turi orqali javob beriladi.

M.N.Epshteyn *pragmema* atamasini baholovchi ottenkaga ega bo'lgan uslubiy bo'yoqdor so'zlarga nisbatan qo'llaydi. Olim leksemalarni baholovchi xususiyatga ega / ega emasligi nuqtayi nazaridan uch guruhga ajratadi:

a) 1-guruh – baholovchi munosabat ifodalanmaydigan neytral so'zlarni kiritadi: *uy, kitob, tilshunoslik, yashil, ko'rmoq* kabi.

b) 2-guruh – ma'nosida baho ottenkasi bo'lsa-da, bu baho, aynan, kimga yoki nimaga, qaysi obyekt yoki hodisaga tegishli ekanligi ifodalanmagan so'zlar: *yaxshi, yomon, foydali, zararli, joziba, daxshat* kabi.

c) 3-guruh – obyektiv va baholovchi ma'nolar bir-biriga qorishiq holda ifodalangan so'zlar. Masalan, *obro'sizlantirish* so'zi «*sharmanda qilmoq*», «*yuzini yerga qaratmoq*» ma'nolarini anglatadi va shu bilan birga bu harakatga salbiy baho berib, kimdir adolatsiz, nohaq obro'sizlanganligini ko'rsatadi. «Qoralamoq» obro'sizlantirish bilan bir xil obyektiv ma'noga ega, lekin berilgan harakatga ijobiy baho beradi. Kontekstda biz bu so'z nimani anglatishiga rozi ekanligimizni bildiramiz: kimdir o'z jinoyati, huquqbuzarligi yoki tajovuzkorligi uchun haqli ravishda qoralangan.

Uchinchi guruhga tegishli so'zlarda obyektivlik va baholanish bir-biriga bog'lanib, pragmema hosil qiladi. Ularning leksik ma'nosida **semantik jihat** – so'zning belgilangan hodisaga munosabati va **pragmatik jihat** – so'zlovchining xabar mazmuniga munosabati o'zaro uzviy bog'liqdir. Shu tariqa, so'zning semantik asosini pragmatik funksiyasi bilan birlashtirish leksik tizimning qiziq xususiyatidir<sup>2</sup>.

V.G.Gak, B.Y.Norman, M.N.Epshteynning nazariy fikrlariga hamda pragmatik tamoyillarga tayangan holda, fikrimizcha, **pragmema** tushunchasini kengaytirish hamda sintaktik qurilmalar pragmatik

<sup>1</sup> Норман Б.Ю. Ко'rsatilgan manba. – С. 10-11.

<sup>2</sup> Эпштейн М.Н. Идеология и язык (Построение модели и осмысление дискурса) // Вопросы языкознания, 1991, – № 6. – С. 19-33.

mazmunini ifodalovchi implitsit sintagmalarga nisbatan ham qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

K.Susov tilshunoslikda pragmatik yo‘nalish shakllanishining ilk bosqichlarida K.Byulerning nazariy qarashlari muhim ahamiyatga ega ekanligiga alohida urg‘u beradi: «Avstriyalik psixolog K.Byuler asarlari, ayniqsa, uning «Til nazariyasi: Tilning reprezentativ funksiyasi» nomli fundamental tadqiqoti tilshunoslikda pragmatika atamasini qo‘llamagan va alohida soha sifatida ajratishga urinmagan holda, pragmatik g‘oyalarni shakllantirishda salmoqli rol o‘ynaydi. K.Byuler til haqidagi fan tamoyillarini empirik umumlashmalarga asoslangan aksiomalar majmuyi sifatida shakllantirdi. U ikki nutqiy va ikki lisoniy shakllar o‘rtasidagi farqni taklif qildi, til belgilarining asosiy vazifalarini tavsifladi, har xil turdagi, xususan, indikator maydoniga kiritilgan belgilar xususiyatlarini ko‘rib chiqdi. Uning asarlari ko‘p jihatdan til pragmatikasi talablariga javob beradi. Ehtimol, shular asosida zamonaviy tilshunoslikda faol muhokama qilinayotgan gap va jumla, boshqa ma’noda – haqiqiy va virtual gap o‘rtasidagi farqni ifodalash mumkin<sup>1</sup>».

K.Byulerning tilga faoliyat usuli sifatida yondashuvi o‘ziga xosdir. Bunda u to‘rt obyektini ajratadi:

	<b>I</b>	<b>II</b>
<b>1</b>	H	W
<b>2</b>	A	G

d) H – nutqiy faoliyat (sprechhandlung);

e) W – lisoniy ifoda (sprachwerk);

f) A – nutqiy akt (sprechakt);

g) G – lisoniy tuzilma (sprachgebilde).

Birinchi dixotomiyada bo‘linish asoslari quyidagicha tasniflanadi:

I. Subyekt bilan bog‘liq hodisa sifatida.

II. Subyekt bilan aloqasi bo‘lmagan hodisa sifatida.

Ikkinchi dixotomiyada hodisalar quyidagicha farqlanadi:

1) quyi darajasi bo‘lgan *nutqiy faoliyat va lisoniy vositalar*;

2) yuqori darajasi hisoblangan *nutqiy akt va lisoniy tuzilmalar*<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Сусов И.П. Лингвистическая прагматика. 2006 // <https://studfile.net/preview/9932129/>.

<sup>2</sup> Трошина Н.Н. Карл Бюлер // <https://cyberleninka.ru/article/n/karl-byuler>.

Nutqiy muloqot jarayonida belgilar va belgi shakllari muayyan rollarni bajaradi. Byulerning soʻzlariga koʻra, til ishlash jarayonida *belgini joʻnatuvchi, belgini qabul qiluvchi* hamda *obyektlar va vaziyatlar maydoni (holatlar)*ni bogʻlaydi. U uch tomonlama funktsiya bajaradi.

Taʼkidlash joizki, Ch.S.Pirs, C.U.Morris, R.Karnap, K.Byuler tadqiqotlari semiotikaning rivojlanishi va pragmatikaning shakllanishida asos boʻlsa-da, ammo hali muloqot jarayoni muammolari til belgilari faoliyati sifatida deyarli qoʻyilmagan edi.

Til falsafasi jiddiy ravishda lingvistik semantikaning qiziqish doirasiga kirib keldi va shu bilan birga koʻplab lingvistik muammolar, xususan, jonli soʻzlashuv nutqi, til ifodalarning cheksiz oʻzgaruvchanligi, bilvosita ifodalash usullari, «jiddiy boʻlmagan» nutqiy faoliyat turlari (kinoya, hazil, yolgʻon, xushomad, til orqali manipulyatsiya qilish va boshqalar) bilan bogʻliq muammolarni hal qilishda muloqot jarayoniga faoliyat sifatidagi yondashuv gʻoyalarini olib keldi.

Shu tariqa, koʻplab fanlararo tushunchalar falsafa, mantiq, tilshunoslik, sotsiolingvistika, etnolingvistika, sunʼiy intellekt, kognitiv psixologiya, psixolingvistika, kognitiv semantika va boshqa soha vakillarining birgalikdagi munozaralarida aniq muhokama qilina boshladi. Bunday oʻzaro taʼsir natijasida, va birinchi navbatda, til falsafasi va tilshunoslik hamkorligida lingvistik maʼno hodisasiga harakat va mazmun sintezi yondashuvi sodir boʻldi. Bu sintez asosida pragmatika nisbatan mustaqil fan sifatida vujudga keldi<sup>1</sup>.

Maʼlumki, har qanday til birligining funksional qoʻllanishi nutqiy faoliyat natijasida maʼlum bir ichki qonuniyatlar va meʼyorlar asosida aktuallashadi. Agar ana shu birliklar diskursiv vaziyat talabi bilan yoki kontekstdagi vazifasiga koʻra chetga ogʻish yuz bersa, albatta, pragmatik tahlilga ehtiyoj paydo boʻladi.

Muloqot jarayonida qoʻllanilayotgan til birliklarining tinglovchiga taʼsiri masalasida diskursiv vaziyatning intralingvistik va ekstralingvistik omillari til funksiyasi tabiatini belgilaydi. Pragmalingvistik tadqiq jarayonida muayyan diskursiv vaziyatda, aynan, til funksiyalari qay darajada amal qilayotgani tahlilga tortiladi, ularning muloqot samaradorligi / samarasizligidagi oʻrni va roli oʻrganiladi.

Funksional nuqtayi nazardan til tizimi koʻp oʻlchovli tuzilma boʻlib, matn yoki diskurs mohiyatiga koʻra turli rakurslarda oʻziga xos jihatlari bilan farqlanadi. Shuning uchun ham til funksiyalarini tasniflashda turlicha yondashuvlar mavjud.

---

<sup>1</sup> Сусов И.П. Лингвистическая прагматика. 2006 // <https://studfile.net/preview/9932129/>.

Yu.D.Desheriyev til funksiyalarini sotsiolingvistik nuqtayi nazardan quyidagilarga ajratadi:

- 1) kommunikativ funksiya;
- 2) ijtimoiy funksiya;
- 3) ekspressiv funksiya;
- 4) estetik funksiya;
- 5) gnoseologik funksiya.

K.Byuler muloqot jarayonida til belgilarining turlicha yo‘naltirilganligi nuqtayi nazaridan

- 1) ekspressiv;
- 2) apellyativ;
- 3) reprezentativ funksiyalarini alohida ajratib ko‘rsatadi<sup>1</sup>.

R.Yakobson esa muloqot jarayonidagi til funksiyalarini quyidagicha tasniflaydi:

**Emotsional (ekspressiv) funksiya** – bu adresatga qaratilgan funksiya, uning maqsadi bildirilayotgan fikrga so‘zlovchi munosabatini ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalashdir. «Muloqot nafaqat axborotning mantiqiy mazmunini, balki gapirayotgan shaxsning ruhiy holatini, hissiyotini, istaklarini ham ifodalashi mumkin. Bunday holatlarda til o‘zining *emotiv* (emotsional-ekspressiv) *funksiyasini* bajarishga kirishadi<sup>2</sup>». R.Yakobsonning so‘zlariga ko‘ra, «bu qabul qiluvchining his-tuyg‘ulariga ta’sir qilish istagi bilan bog‘liq». Tilning hissiy qatlami, asosan, barcha gaplarga ma’lum ohang beradigan undov so‘zlar bilan ifodalanadi. Yakobson Stanislavskiyning teatr amaliyotidan misol keltiradi. Moskva badiiy teatrida o‘tkazilgan kastingda rejissyor «*bugun oqshomda*» birikmasidan ekspressiv mohiyatini o‘zgartirgan holda 40 ta turli ifoda tuzish vazifasini qo‘yadi. Shu bilan birga, tomoshabinlar kontekst mazmunini faqat bu so‘zlarning intonatsion jilolanishi asosida ochib berishlari kerak edi<sup>3</sup>.

**Konativ (qabul qilish) funksiya** – adresatga yo‘naltirilgan funksiya. Bu kayfiyat yoki vokativ shakl bilan ifodalanishi mumkin. Gapning ifoda qoidalariga bo‘ysunmaydi, uzatilayotgan ma’lumot xususida hech qanday shubha ifodalanmaydi.

---

<sup>1</sup> Бюлер К. Теория языка. Репрезентативная функция языка. – М., 1993. – С. 12-14.

<sup>2</sup> Bushuy T.A., Safarov Sh.S. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi: ilmiy nashr. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 21.

<sup>3</sup> [https://wiki2.org/ru/Функции\\_языка\\_\(Якобсон\)](https://wiki2.org/ru/Функции_языка_(Якобсон))



**Referentiv** (kommunikativ) **funksiya** – so‘z borayotgan obyekt bilan bog‘liq funksiya. Bu funksiya xabarning referent yoki kontekstga aloqasi bilan bog‘liq.

**Fatik funksiya** – muloqot o‘rnatish, ya’ni kommunikatsiyaning ishlashi, qabul qiluvchi bilan o‘rnatilgan muloqot mavjudligini tekshirish zarurati. Bu nazorat salomlashuv, hol-ahvol so‘rash, tabrik kabi ritorik shakllar almashinuvi orqali amalga oshiriladi, uning yagona vazifasi muloqotni saqlab qolish va qo‘llab-quvvatlashdir.

**Metatil** (talqin funksiyasi) **funksiya** – bu ifodalangan sintaktik qurilma bilan ifoda mazmuni mutanosibligini belgilaydigan funksiya. «Tilning metalisoniy funksiyasi atamasi, boshqacha aytganda, «nutq materialini izohlab gapirish» degan ma’noni anglatadi»<sup>1</sup>.

**Poetik funksiya** – bu muloqotning boshqa komponentlariga emas, balki xabarning o‘ziga e’tibor qaratishni bildiruvchi funksiya. R.Yakobson bu funksiyani badiiy matnda eng muhim vazifa deb biladi. T.A.Bushuy, Sh.S.Safarovlar uni estetik funksiya deb nomlaydilar<sup>2</sup>.

V.P.Danilenkoning V.Gumboldt va B.Malinovskiy fikrlariga tayangan holda qayd etgan til funksiyalari tasnifi umumfalsafiy tushunchalar anglanmasi sifatida lingvopragmatik tamoyilga ancha yaqin keladi. Shu jihatdan uning nazariy fikrlarini ma’qullaymiz.

V.Gumboldt tilning **kognitiv funksiyasini** ta’kidlab, uning boshqa vazifalarini ham unutmagan. Tilning **kommunikativ funksiyasini** talqin qilar ekan, xususan, nutqiy muloqot jarayonida odamlar o‘rtasida har doim ham to‘liq o‘zaro tushunish ro‘y beravermasligini ta’kidlaydi, chunki so‘zlovchi va tinglovchi olam haqida individual tasavvurga ega. Tilshunos olim tilning **pragmatik funksiyasi** haqidagi fikrlarni ham taqdim etadi. Bu funksiyaning mohiyati shundaki, odamlar bir-birlarini harakat qilishga undash uchun tildan foydalanadilar<sup>3</sup>. Boshqacha aytganda, so‘z muloqot (amaliyot)ga va kommunikativ funksiya pragmatik funksiyaga tomon boradi.

Tilning pragmatik funksiyasi XX asrda lingvofalsafiy jihatdan alohida mavzuga aylandi. Bu yo‘nalishda B.Malinovskiyning ishlari diqqatga sazovor. Uning fikricha, pragmatik funksiya til uchun asosiy vazifadir. Bu, ayniqsa, bolalar tilida yaqqol seziladi. Bola tildan, asosan,

---

<sup>1</sup> Бушуй Т.А., Сафаров Ш.С. Ко‘rsatilgan manba. – Б. 21.

<sup>2</sup> Бушуй Т.А., Сафаров Ш.С. Ко‘rsatilgan manba. – Б. 21-22.

<sup>3</sup> Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М., 1984. – С.77.

pragmatik sabablarga ko‘ra foydalanadi: u til yordamida kattalarni o‘ziga kerakli harakatlarni qilishga undaydi<sup>1</sup>.

Shuni aytib o‘tish joizki, V.P.Danilenko tilning pragmatik funksiyasini ko‘proq insonni harakatga keltiruvchi, qandaydir faoliyatga yo‘naltiruvchi hodisa sifatida baholaydi. Shu ma‘noda V.Kojinovning quyidagi fikrlarini keltiradi: «Bizning ongimizda inson faoliyati va so‘zning o‘zaro yuzaki va mexanik qarama-qarshiligi xususidagi fikr mustahkam o‘rnashib qolgan. Ko‘p yoki kam energiya sarflanishi bilan bog‘liq mushaklar harakati, haqiqatan, nimanidir o‘zgartiradi; so‘z ham, aytaylik, havoning silkinishi tarzida faqat fikr yoki xohishning ifodasi sifatida yuzaga keladi (A.S.Pushkinni eslang: «So‘z nima? Quruq ovoz». – V.D.) va amaliy faoliyat hisoblanmaydi. Shu bilan birga, ular, masalan, qo‘mondon, kema kapitani, muhandis va boshqa ko‘plab kasb vakillari faoliyati so‘z orqali og‘zaki ko‘rsatmalar berishdan iborat bo‘lishi mumkinligini unutishadi. ...So‘z, nutq – inson faoliyatining to‘laqonli shakllaridan biri ...chindan ham dunyoni o‘zgartiradigan faoliyat. Har qanday nutq o‘zgarishga, o‘zgartirishga qaratilgan: agar gap biror narsani yaratish jarayoniga qaratilgan bo‘lsa – narsaning holatini o‘zgartirish yoki siyosat, mafkura, fan, ijtimoiy hayot va va boshqalarda – odamlarning narsalarga va bir-biriga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish<sup>2</sup>.


Nutqning pragmatik funksiyasi (pragmatik kompetensiya) – bu boshqa odamning har xil pragmatik o‘zgarishlar (muloqot konteksti, verbal va noverbal bo‘lmagan xatti-harakatlar, verbal va noverbal ifodalar, deduktiv fikrlash)ga asoslangan ijtimoiy, ruhiy holati, kommunikativ niyatini tushunish uchun nutqning ijtimoiy, hissiy va kommunikativ funksiyalaridan foydalanish; metapragmatik tushuncha; kommunikativ mahsuldorlik. Nutqiy, paralingvistik va ekstralingvistik komponentlardan iborat<sup>3</sup>. Psixolog A.I.Melyoxin pragmatik funksiyaning to‘liq amalga oshishi pragmatik kompetensiya darajasi bilan bog‘liqligiga e‘tibor qaratadi va quyidagi rasmda pragmatik funksiyani yuzaga keltiruvchi diskursiv vaziyatning barcha omillarini jamlashga harakat qiladi.

---

<sup>1</sup> Даниленко В.П. Общее языкознание и история языкознания: курс лекций / В.П. Даниленко. – М.: Флинта: Наука, 2009. – С. 18.

<sup>2</sup> Кожин В.В. Об изучении «художественной речи» // Контекст – 1974 / Под ред. Н.К.Гея. – М., 1975. – С. 258-260.

<sup>3</sup> Мелёхин А.И. Особенности прагматической функции речи в позднем возрасте: принципы диагностики и пути восстановления // Электронный журнал «Современная зарубежная психология» 2017. Том 6. – № 3. – С. 9-52.



1.1-rasm. Nutqning pragmatik funksiyasini ta'minlaydigan jarayonlar (P.Shou va J.Duglas asosida)<sup>1</sup>.

Tilda har doim ikki tomonning bo'lishi shart: tashqi – moddiy, artikulyativ-akustik kompleks bilan bog'liq va ichki – nomoddiy, ma'no bilan bog'liq. Birinchisi, nutqni belgilar orqali idrok organiga yetkazuvchi, busiz nutqiy muloqotni tasavvur qilib bo'lmaydi; ikkinchisi tafakkur bilan bog'liq mazmun bilan belgilanadi<sup>2</sup>.

**Matnning lingvopragmatik tadqiqi.** Matnning o'ziga xos xususiyatlari uning yashirin ma'nolarini o'rganishda samara berishi tabiiy. Ularni idrok etish va tushunish uchun lisoniy qobiliyat bilan birga ong'dagi umumiy bilimlar zaxirasi ham harakatga keladi.

N.D.Arutyunovanning fikricha, ayrim hollarda nutqiy vaziyat taqozosi bilan pragmatik mazmuni «o'rab», «yashirib» ifodalash talab etiladi. Yashirin ma'no va gapning ifodasi o'rtasida har doim ham bog'liqlik

<sup>1</sup> Мелёхин А.И. Ко'rsatilgan manba. – С. 39-52.

<sup>2</sup> Реформатский А.А. Введение в языковедение / Под ред. В.А.Виноградова. – М.: Аспект Пресс, 1996. – С. 20.

bo'lishi shart emas. Shunday qilib, so'zlovchining maqtanishi, adresatning g'ururiga putur yetkazadigan yoki unga xushomad qiladigan nutqiy ifodalarga ham tegishli. Boshqalarning sirlarini surishtirish va oshkor qilish, shubhasiz, cheklovlarga bo'ysunadi, lekin bu haqiqatni aytish talabiga javob beradi. Boshqa tomondan, yashirib aytilgan ifodalar har doim ham kommunikativ tartibdan chetga chiqmaydi. Agar o'zgartirib aytilgan ifodalar «tinchlantiruvchi» turdagi «*aytaylik*», «*taxminimcha*» kabi kirishlar, «*tasavvur qilaylik*», «*o'ylab ko'raylik*» kabi gipotezalar tuzish yoki gap muallifiga nisbatan ochiq terapevtik funktsiya bajarish nutqiy faoliyatning qonuniy komponentini tashkil qiladi. Bunday fe'llar jumlaning mazmuni voqelik bilan mos kelmasligini ochib beradi. Nutqiy vaziyatga ko'ra ochiqchasiga gapirish noqulay vaziyatga olib kelishi mumkin<sup>1</sup>.

M.Hakimov implikatsiya tushunchasini ifodalash uchun «umumyashirin» atamasini qo'llaydi va yashirin ma'nolarning barchasini qamrab olishini, lekin o'zbek tilida bu borada umuman tadqiqodlar olib borilmagan bo'lsa-da, mumtoz adabiyotga oid nazariy manbalar bu yo'nalishga oid faktik materiallarga nihoyatda boy ekanligini ta'kidlaydi<sup>2</sup>.

Implikatsiya masalasiga birinchilardan bo'lib, N.A.Panina e'tibor qaratadi (1979). «Implitsitlik gapning ma'nosini bilvosita anglash va undan qo'shimcha axborotlarni olish imkoniyatidan iborat». I.V.Arnold implikatsiyada «mikrokontekstda paydo bo'lgan va til birliklari bilan bevosita ko'rsatilmagan qo'shimcha ma'no»lar yuzaga chiqishini e'tirof etadi.

YE.V.Ermakova sintaktik semantika doirasida, dastlab, implitsitlikning asosiy xarakterli xususiyatlari (G.G.Pochepsov, I.P.Susov, L.V.Lisochenko, Yu.S.Martemyanov, N.D.Arutyunova, V.V.Bogdanov tadqiq qilingan bo'lsa, bevosita badiiy badiiy matndagi implitsitlik masalasi esa nisbatan kamroq o'rganilganligini ta'kidlaydi (Dolinin 1983, Bogdasaryan 1983, Nikitin 1988, Sitdikova 1985, Molchanova 1988, Bezugla 2007, Yermakova 2007, 2008, 2009, Bertuccelli-Papi 2000)<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Арутюнова Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики. // Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. Вып. 16. – С. 21-38.

<sup>2</sup> Bu haqda qarang: Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2013. – 176 b.

<sup>3</sup> Ермакова Е.В. Имплицитность в художественном тексте (на материале русскоязычной и англоязычной прозы психологического и фантастического реализма) Автореф. дисс. док. фил. наук, Саратов, 2010. – С. 289-296.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek tilshunosligida esa badiiy asarning zohiriy va botiniy ma'nolari xususidagi qarashlar mumtoz adabiyot doirasida qadimdan mavjud bo'lsa-da, zamonaviy badiiy matnlardagi implitsitlik borasidagi izlanishlar endigina shakllanmoqda. Nutqda ifodalanadigan implitsitlikning murakkab semantik tarkibi, turli vositalar orqali ifodalanishi bugungi kunda ko'pchilikni qiziqtirib kelayotgan murakkab masalalardan biridir. Yashirin ifodalanadigan implitsit ma'nolar yozuvchining badiiy mahorati, til boyliklarini qay darajada o'zlashtirganligi va til birliklarining uslubiy imkoniyatlaridan mohirona foydalana olish qobiliyatiga ham bog'liqdir. Bu esa badiiy matnlar implitsitni ifodalash vositalarini aniqlash uchun keng maydon bo'la oladi degan xulosaga olib keladi. Yozuvchining o'z asari orqali nechog'li implitsit axborot taqdim etish maqsadi, ifodalangan mazmunning yashirin bayonini anglash adresatning fikrlash qobiliyati va olam haqidagi tasavvurlari darajasiga bog'liqdir.

Implitsitlik tushunchasi «til vositalarida bevosita ifoda topmagan, tinglovchi tomonidan nutqiy tuzilmaning voqelanish sharoitlari va eksplitsit ifodalangan ma'no hamkorligidan kelib chiqib fahmlanadigan element<sup>1</sup> «sifatida keyingi yillarda o'zbek nasrida paydo bo'lgan ko'plab ramziy-majoziy bayon asosidagi nasriy asarlarni tahlil qilishda qo'l keladi. Masalan, Nazar Eshonqulning «Maymun yetaklagan odam» hikoyasi, Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar», Murod Muhammaddo'stning «Lolazor», Xurshid Do'stmuhammadning «Bozor» romanlari va boshqa ko'plab asarlarni ko'rsatish mumkin.

Antropotsentrik tamoyilga ko'ra badiiy matnda nutqiy vaziyat polifonik mohiyat kasb etadi: «*muallif-badiiy asarning yaratuvchisi*»; «*harakatlanuvchi shaxs*»; «*o'quvchi-badiiy asarning qayta yaratuvchisi*»<sup>2</sup>.

Shu nuqtayi nazardan yondashilganda, oddiy diskursiv matnda adresant-adresat muloqoti amalga oshsa, badiiy matnning ma'no-mazmuni ikki tomonlama murakkablashadi. «Harakatlanuvchi shaxs»lar, ya'ni personajlarning o'zaro diskursiv muloqoti jarayonidagi ba'zan muallifning subyektiv munosabati ham anglashiladi.

– *Menga qara, Qurbonoy.*

---

<sup>1</sup> Шамахмудова А. Замонавий тилшуносликда билвоситалик ва имплицитлик тушунчалари. Хорижий филология. – № 1. 2017. – Б. 68-70.

<sup>2</sup> Yusupov O. Badiiy matnning lingvokognitiv xususiyatlari // TDPU Ilmiy axborotlari. Ilmiy-nazariy jurnali – № 2 (11) 2017. – B. 41-44; Xudayberganova D.S. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini. Filol. fan. d-ri. ... diss. avtoref. – T., 2015. – 44 b.



*Qurbonoy xola qaddini rosladi. Komissar sut bidonini qor ustiga qo'yib, allanechuk qunishib turar, zahil yuzi o'ychan edi.*

– *Rostingni ayt! – dedi kinoyali iljayib. - Joynamoz ustida har kuni qarg'asang kerak meni? Ota-onang uchun, o'zing uchun... Faqat to'g'risini ayt!*

– *O'zing nima qipti? – dedi Qurbonoy xola dili og'rib.*

– *Xex! – Komissar kaltakesakdek chirqillab kuldi. - O'zing bo'lmasa ota-onang uchun...*

– *Men hech kimni qarg'amiyman, – dedi Qurbonoy xola ishonch bilan. - Qur'onda bitilgan: «Alloh har narsani ko'rguvchidir. Tangrim hammasini ko'rib turibdi».*

*Komissar birpas gezarib turdi-da, bidon bandidan ko'tardi. Indamay nari ketdi (O'.Hoshimov «Tushda kechgan umrlar»).*

Ushbu parchada matnning implitsit ma'nosi allyuziya vositasida yuzaga chiqadi. Allyuziya (lot. *allusio* – ishora, hazil) – barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usul. Mohiyatan, Sharq mumtoz she'riyatida keng qo'llangan talmeh san'atiga yaqin keladi. Farqli jihati shuki, talmeh ko'proq mashhur tarixiy va badiiy faktlarga ishora qilinsa, allyuziyada ijodkor o'z zamonasidagi siyosiy, maishiy yoki badiiy faktlarga ishora qilishi ham mumkin. Ya'ni allyuziyada ishora obyektining doirasi kengroq<sup>1</sup>.

Qurbonoy tomonidan aytilgan «*Tangrim hammasini ko'rib turibdi*» jumlasida «*Xudo jazoingni o'zi beradi*» pragmemasi ifodalangan bo'lsa, asar oxirrog'ida bo'lib o'tgan shu qisqa diskursiv muloqot «Sobiq Ittifoq davridagi mustamlaka yillar silsilalari, ma'naviy-ruhiy bosimlar, repressiya dahshatlari, mavjud ijtimoiy muhit ta'sirida tarbiyalangan avlodlar fojiasi kabi millatning og'riqli nuqtalari personajlar hayotidagi kesishgan nuqtalar – Komissarning Qurbonoylar oilasiga sinfiy dushman sifatida qarashi, ota-onasining qotili ekani, uning yosh yetim qolib, hayotda ko'p qiyinchiliklarga duchor bo'lishiga sababchi ekanligi va ijtimoiy tipik shaxs sifatida ko'p odamlar hayotiga zomin bo'lgan Komissarning umri nihoyasida xor bo'lganligiga Qurbonoy o'z ko'zi bilan guvoh bo'layotganligi kabi ekspressiv jarayonlar qabariq holda asar qahramonlari nutqi orqali yozuvchi prizmasidan o'tkaziladi va adresatga taqdim qilinadi. Qiziq jihati shundaki, mana shu implitsit ma'nolar

---

<sup>1</sup> Kuronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati – T.: Akademnashr, 2010 y. – 28-b.

muallif nutqi orqali emas, asar matni va personajlar nutqidagi eksplitsit mazmunga singdirilgan holda yuzaga chiqadi.

Demak, ijodkor badiiy matnda o‘z nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda atrof-muhit to‘g‘risidagi tasavvurlari va o‘ylarini asarida bayon qilayotgan voqelikka singdirib ifodalaydi. Shuning uchun ham badiiy matnni adresat (o‘quvchi) borliqning real in‘ikosi tarzida qabul qiladi, ta’sirlanadi. Real nutqning lingvopsixologik qurilishi va bayon qilayotgan ifodani tushunishdagi qiyinchiliklarni aniqlaydigan omillarni belgilash uchun og‘zaki va yozma nutq shakllarining sintagmatik va paradigmatik tizimlari haqida fikr yuritish kerak bo‘ladi.

**Qodir** (telefon trubkasiga): – *Saltanat, yaxshimisan, ahvollaring yaxshimi?*

**Saltanat:** – *Nechuk mundoq?*

**Qodir:** – *Nima bo‘ldi? Ovozingda, haligi, g‘ujur yetishmayapti? Mazang yo‘qmi?*

**Saltanat:** – *Nimaga asoslanib bunday deyapsiz?*

**Qodir:** – *A-a, ishlaring yaxshimi, ishqilib?*

**Saltanat:** – *Yaxshi, yaxshi.*

**Qodir:** – *Yaxshi bo‘lsin, yaxshi bo‘lsin-a...*

**Saltanat:** – *Keyinroq gaplashsak bo‘ladimi? (Saltanat bezovtalanadi).*

**Qodir:** – *Ha bo‘ladi, keyin gaplashsak ham bo‘ladi, bo‘ladi, ha, xo‘p, xo‘p..*

**Saltanat:** (o‘g‘liga qarab): – *Hmm, yuklarimizni Qodir akang o‘maribdi («Ayol qasosi» teleserialidan).*

Qodir telefon orqali Saltanatga «*Ovozingda g‘ujur yetishmayapti? Mazang yo‘qmi? A-a, ishlaring yaxshimi, ishqilib? Yaxshi bo‘lsin, yaxshi bo‘lsin-a*» kabi kinoyali savollar orqali «*xotirjam emasligingni bilaman*» pragmemasini «uzatadi». Ana shu pragmemani adresat (Saltanat)ni situativ vaziyat haqida «Qodir hammasidan xabardor, demak, bu ishni u qilgan» degan xulosaga olib keladi. Kommunikantlarning o‘zaro hamkorlik doirasida yetarlicha axborot va tajribaga egaligi ularning suhbat zamiridagi tagma‘noni uzatish va qabul qilishlariga asos bo‘lgan. Suhbatga guvoh bo‘lgan III shaxsning ana shu ma‘lumotlarga ega emasligi uning pragmemani anglashiga to‘sqinlik qiladi va shuning uchun bu suhbat uning uchun oddiy hol-ahvol so‘rashishdan boshqa narsani anglatmaydi.

**Qodir** (shotiriga): – *Qalay?*

**Rustam:** – *Nima deb gapirdiz endi hozir?*

**Qodir:** – *Mollarini biz o‘marganimizni aytdim.*



**Rustam:** – Ha, hech narsa deganiz yo ‘g’-u, qanaqa qilib?

**Qodir:** – E-e-e ukam, soddasan-da... Gap bu so‘zning qanday aytilishida emas, uning tagidan keladigan ohangga, ohangga bog‘liq («Ayol qasosi» teleserialidan).

Kommunikativ vaziyatga muvofiq holda muloqot jarayonining o‘zgaruvchan bo‘lishi tabiiy hol. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, har bir alohida holatda uzatilayotgan axborot ozmi-ko‘pmi obyektiv yashirin mazmunga ega bo‘ladi. K.A.Dolinin «Имплицитное содержание высказывания»<sup>1</sup> («Ifodaning implitsit mazmuni») nomli maqolasida pragmatik mazmuni yuzaga chiqaruvchi kommunikativ vaziyatning o‘zaro bog‘liqlikdagi parametrlarini quyidagicha tavsiflaydi:

**a) adresant (A<sub>n</sub>) va adresat (A<sub>t</sub>)** korrelyatsiyalangan maqom, pozitsion va vaziyatli rollar, shaxsiy xususiyatlarni, shuningdek, vaziyat va makon haqida muayyan bilimlarni tashuvchi hamda vaziyatga va suhbatdoshiga ma’lum bir munosabat bildiruvchi shaxs sifatida muayyan maqsadlarni ko‘zlagan nutqiy faoliyat subyektlari;

**b) referent vaziyat (RV)** – ifoda mazmuni bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan obyektiv faoliyat segmenti;

**v) faoliyat vaziyati (FV)** – nutqiy muloqot amalga oshiriladigan vaziyat; kommunikantlar harakatiga muvofiq yoki nomuvofiq tarzda ular harakat qilayotgan va gapiradigan vaziyat o‘zgarib turadi. Shaxsiy ifodaga kelsak, FV syujetning ma’lum bir lahzasi, bundan oldin sodir bo‘lgan voqealar, jumladan, aytilgan yoki yozilgan narsalar, shuningdek, qabul qiluvchining rejasiga binoan nima bo‘lishi kerakligi bilan tavsiflanadi, keyin sodir bo‘ladi;

**g) mavzu-vaziyat foni (MVF)** – muloqot kechayotgan vaqt va makonni o‘z ichiga olgan atrofda sodir bo‘layotgan umumiy ijtimoiy-siyosiy va tarixiy-madaniy muhit;

**d) aloqa kanali (AK)** – akustik yoki grafik, shuningdek, kommunikantlar o‘rtasida bevosita yoki bilvosita (vizual) muloqot o‘rnatilgan usul, shuningdek, xabar uzatishning muayyan maxsus vositalaridan foydalanish bilan tavsiflanadi<sup>2</sup>.

Aytish mumkinki, kommunikativ vaziyat parametrlari ifoda determinantlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri anglatmaydi, balki so‘zlovchi yoki tingovchining nutqiy vaziyat haqidagi subyektiv umumlashma tasviri bilan belgilanadi.

---

<sup>1</sup> Dolinin K. A. Имплицитное содержание высказывания. // Вопросы языкознания. 1983, – № 6, – S.37-47.

<sup>2</sup> Dolinin K. A. Ko‘rsatilgan manba. – S.37-47.

Shunday qilib, tagma'no – matnda obyektiv va subyektiv mazmun kesishmasida sodir bo'ladigan hodisa. Bir tomondan, bu matnning moddiy tomonida aktuallashadi, boshqa tomondan, u subyektiv mohiyat sifatida amalga oshiriladi. Bu tagma'noni murakkab hodisaga aylantiradi. Badiiy matn semantik strukturasi bir qismi bo'lishi va yashirin ma'nolarni ifodalashi, tagma'noning har doim ko'p ma'noli, o'zgaruvchan, strukturaga qiyinchilik bilan bo'ysunishi, turli xil vosita va shakllanish usullariga egaligi bilan yondosh hodisalar orasida muhim o'rin egallaydi<sup>1</sup>.

Implikasiya va tagma'no bir-biridan sezilarli farq qiladi: implikasiya – rematik emas, bir ma'noda, o'zgarmas, oson tuzilgan. Tagma'no – rematik, shuning uchun polisemantik, o'zgaruvchan, tuzilish jihatdan murakkabroq. YE.I.Lelis implikasiya va tagma'no o'rtasidagi farq masalasi tadqiqotchilarni «implikasiya usuli tagma'no hosil qilish asosi (vositasi)dir» deb xulosa chiqarishlariga sabab bo'lganligini ta'kidlaydi<sup>2</sup>. Biz ham mana shu fikrni ma'qullaymiz.

– *Sening turadiring'an uying. – dedi Gulshan, yig'ishtirsang ko'ngling ravshan bo'ladi.*

– *Uy yig'ishtirilmasa ham ko'nglim ravshan, – dedi, Nozik va yonidagi Tuhfaga qarab kuldi. – Sening ham ko'ngling ravshanmi?*

*Tuhfa og'zini katta ochib, Gulshanning oldig'a keldi:*

– *Mana, o'z ko'zing bilan qara, opa. Ko'nglim chilchirog' yoqqandek ravshan, ko'rdingmi?*

– *Ko'rdim, ko'rdim, – dedi Gulshan yuzini chetka o'gurub. (A.Qodiriy, «Mehrobdan chayon»)*

Tuhfaning og'zini katta ochishi va «*Mana, o'z ko'zing bilan qara, opa. Ko'nglim chilchirog' yoqqandek ravshan, ko'rdingmi?*» degan gapida piching, kinoya usulida «**bu haramda ko'nglim qanday ham ravshan bo'lsin**» tarzidagi pragmatik tagma'no yashiringan. Og'zini ochib, «ichini ko'rsatishi» metaforik ma'noli harakat bo'lib, ko'ngil qalbdan bo'lishi, qalb esa odamning ichida ekanligiga ishora qilish bilan kinoyaning kuchini orttirishga xizmat qilgan.

– *Nimalar qilib yuribsiz, oyi? Ikkinchi bunaqa qilmang.*

– *Nima qilibman, bolam?*

– *Supurgi bilan sayrga chiqmang.*

– *Haa. Uni aytyapsanmi? («Ona zamin» serialidan)*

<sup>1</sup> Лелис Е.И. Теория подтекста: учеб-метод. пособие. – Ижевск, Изд-во Удмуртский университет, 2011. – Б.16.

<sup>2</sup> Лелис Е.И. Ко'rsatilgan manba. – Б.12.

«*Supurgi bilan sayrga chiqmang*» jumlasida «*boshqa qizlarnikiga sovchilikka bormang*» pragmemasi implitsit tarzda ifodalangan. Bunday ifoda varianti va uning qabul qiluvchi tomonidan ham to'g'ri anglanishiga esa o'zbek mentalitetidagi sovchilikka bormoq ma'nosidagi «*ostonasini supurmoq*» iborasi asos bo'lgan. Kontekstdan yigitning o'zi tanlagan qizi borligi va boshqa xonadonlardan qiz izlab yurishning hojati yo'qligi tushuniladi.

## 1.2. Diskurs va madaniy kompetensiya

Tilga antropotsentrik yondashuv asosida o'zaro muloqot jarayonida inson omili bilan bog'liq jihatlarni o'rganish psixolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, sud lingvistikasi, tijorat lingvistikasi kabi sohalarning takomillashuvini tezlashtirar ekan, ular mustaqil paradigmalarda sifatida tobora mustahkamlanib bormoqda. Matn yaratishdan maqsad fikrni uzviy ifodalash orqali shaxslararo munosabatni ta'minlashdir. Aynan muloqot jarayoni, ya'ni shaxslararo lisoniy munosabat mahsuli bo'lgan diskursning pragmalingvistik talqini masalasi turli nuqtayi nazardan tadqiq etishni taqozo etmoqda. Pragmatik munosabatlar zanjiri adresant-matn-adresat tizimi orqali yuzaga keladi.

«...muloqotga kirishayotgan shaxsning asosiy maqsadi axborotni uzatish emas, balki *tinglovchini ushbu maqsadni anglashga undashdir* (Sh.Safarov). Aynan shuning uchun ham kommunikativ birlik mazmuni voqelik haqidagi xabar bilan chegaralanib qolmaydi, balki propozitsiya mazmuniga qo'shimcha ma'nolarni ham ifodalaydi (Bunday qo'shimcha ma'no turiga, masalan, emotsiyani kiritish mumkin).

Maqsadli ifodalanadigan *kommunikativ mazmun* va so'zlovchi istagi bilan bog'liq bo'lmagan holda tinglovchi idroki (qabuli)da hosil bo'ladigan *informativ mazmun* bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, ular o'zaro qorishib, birikib, muloqotning samaraliligini ta'minlovchi omilga aylanadilar. Kommunikativ va informativ mazmunlar uyg'unligi muloqot tizimi makrobirligining yaxlitligini ta'minlaydi. Hozirgi paytda bunday yaxlitlik xususiyatiga faqatgina *diskurs* ega ekanligi e'tirof etilmoqda»<sup>1</sup>.

Diskurs antropotsentrik tamoyillar asosida yuzaga kelgan til falsafasi, sotsiolingvistika, psixolingvistika, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika kabi yangi yo'nalishdagi tadqiqotlarda yetakchi tushunchalardan biri sifatida maydonga keldi. Diskurs borasida ko'plab ta'riflar yuzaga keldiki, ularning har birida bu murakkab jarayonning muayyan qirralari

---

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Safarov SH. Pragmalingvistika. – T., 2008. 318 b.

aks etgan deyish mumkin. Diskurs xususidagi fikrlarimizni asoslash uchun ayrim xarakterli tavsiflarni keltirib o‘tamiz.

«**Diskurs** – muayyan turdagi ijtimoiy mansublikni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan harakatlar, o‘zaro munosabatlar, fikrlash usullari, e’tiqod, baholash kabi omillarning tildagi integratsiyasi natijasidir<sup>1</sup>».

«**Diskurs** – lingvistik va ekstralingvistik omillar asosidagi nutqiy faoliyat jarayoni va natijalar majmuyi sifatida tushuniladi<sup>2</sup>».

«**Diskurs** – tilshunoslik nuqtayi nazaridan, me’yorlashtirilgan yozma nutqdan ko‘plab chetlanishlar bilan kechadigan jarayon, shuning uchun odamlar bilan suhbatning o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi, tugallanganligi, tematik muvofiqligi va tushunarligi bilan tavsiflanadigan jonli og‘zaki muloqot<sup>3</sup>».

Demak, diskurs, ya’ni til tashuvchilarining o‘zaro muloqoti jarayonida til fenomeni intralingvistik va ekstralingvistik omillar qurshovida jonlanadi, ya’ni harakatga keladi.

Diskurs atamasiga Arutyunovanning ta’rifi ko‘pchilik tomonidan eng ma’qul ta’rif sifatida qabul qilinmoqda: Diskurs – (fransuzcha diskurs – nutq) ekstralingvistik (pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa) omillar bilan uyg‘un, voqelik nuqtayi nazaridan qaralayotgan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida odamlarning o‘zaro munosabati va ularning ongli mexanizmlari (kognitiv jarayonlari)ning tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqiladigan nutq<sup>4</sup>.

Diskursiv tahlil orqali sintaktik sath til birligi bo‘lgan gapning keng qamrovli lingvistik qirralari ochiladi. Mana shunday yuqori hajmli pragmatik tahlil muloqot jarayonida inson fenomeni bilan bog‘liq turli aspektlarni yuzaga chiqarish imkonini bera boshladi. Insonning muayyan fikr yoki tushunchani milliy-madaniy sharoit doirasida qabul qilishidan boshlangan lisoniy faoliyat jarayonida shaxs o‘zi mavjud bo‘lgan ijtimoiy muhitga xos ko‘rsatkichlarni o‘zida jamlab boradi. «Badiiy matnda yoki muloqot jarayonida qo‘llanilgan pragmatik axborot va presedentlik fenomeni muayyan ijtimoiy muhitida yashagan va yashayotgan barcha kishilar uchun doimo tushunarli bo‘ladi va uni nutq jarayonida, diskursda

---

<sup>1</sup> Gee J. P. An introduction to discourse analysis. Theory and practice. – Routledge, 2005. – 209 p.

<sup>2</sup> Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. – М.: Гнозис, 2002. – С. 200.

<sup>3</sup> Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – С. 280.

<sup>4</sup> Bu haqda qarang: Арутюнова Н.Д. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 136-137; Арутюнова Н.Д. Прагматика // Языкознание: Большой энциклопедический словарь. – М, 1998. – С. 389-390.

qo‘llanishi boshqa til vakillari uchun doimo tushunarli bo‘lavermaydi<sup>1</sup>».

Sh.Safarov muloqot jarayonidagi ana shu ayrichalik jihatlarni tahlil qilar ekan, milliy madaniyatga xos qobiqning mavjudligini e‘tirof etadi. Etnik-etik normalar to‘planishidan tashkil topadigan ushbu qobiq muloqot strategiyasi va taktikasini bir xilda boshqarib boradigan qoidalar tutashadigan maydondir<sup>2</sup>.

Tilshunoslikda uzoq vaqt davomida, to XX asr o‘rtalariga qadar sintaksis va semantika sohalari alohida o‘rganib kelindi, ular orasida juda aniq farq bor edi: leksikologiya tilning semantik tomoni, grammatika (morfologiya va sintaksis) esa shakliy-grammatik jihati bilan shug‘ullandi. Zamonaviy tilshunoslikda semantika va sintaksis birlashdi: bir tomondan, leksik semantikada, birinchi navbatda Moskva semantik maktabi vakillarining asarlarida (Yu.D.Apresyan, I.A.Melchuk va boshqalar) sintaksisga qiziqish kuchaydi; boshqa tomondan, sintaktik birliklar semantik jihatdan faol o‘rganila boshlandi (N.D.Arutyunova, YE.V.Paducheva, O.N.Seliverstova va boshqalar)<sup>3</sup>.

Bu hol o‘zbek tilshunosligida ham o‘z aksini topdi. A.Nurmonov o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab belgining borliq bilan munosabatini o‘rganish kuchayganligini ta’kidlar ekan, tilning turli sath birliklarini semantik nuqtayi nazardan tadqiq etuvchi tilshunoslikning fonosemantika, morfosemantika, leksik semantika, sintaktik semantika singari yo‘nalishlari paydo bo‘lganligini aytib o‘tadi. «Semantik tadqiqotlar natijalari lisoniy birliklarning nutqiy jarayondagi vazifasini kontekst, nutqiy vaziyat, so‘zlovchi va tinglovchi shaxslarni e‘tiborga olmasdan turib to‘liq o‘rganib bo‘lmasligini ko‘rsatdi<sup>4</sup>».

Ma’lumki, N.Xomskiy g‘oyalari insonning tilni egallash qobiliyati, shuningdek, tildan foydalanish borasidagi tadqiqotlar doirasini kengaytirdi.

Generativ tilshunoslik bilan bog‘liq bo‘lgan yangi davrda bixeviorizm g‘oyalari bo‘lgan qiziqish yo‘qoldi, struktur paradigmadan generativ paradigmaga qat’iy ravishda o‘tish «Xomskiy inqilobi» yoki «ikkinchi kognitiv inqilob» deb nomlandi. Uning xarakterli xususiyati tilni yaratilgan rasmiy modellar orqali o‘rganish edi. Ushbu modellar tilni tavsiflovchi asosiy parametrlarni aks ettiradi. Lisoniy qobiliyatni cheklangan miqdordagi so‘zlardan cheksiz ko‘p jumla olish dasturiga ega

<sup>1</sup> Бабенко Л.Г. Филологический анализ текста. – М.: Академический Проект, Деловая книга, 2004. – 464 с.

<sup>2</sup> Сафаров Ш. Ko‘rsatilgan manba. – Б. 267.

<sup>3</sup> Стародумова Е.А. Синтаксис современного русского языка. Владивосток, Изд. Дальневосточного университета, 2005. – С. 33.

<sup>4</sup> Nurmonov A. Tanlangan asarlar. Uch jildlik. III jild. – T.: Akademnashr, 2012. – B. 76.



bo‘lgan miya tushunchasi asosida ma’lum qoidalar tizimi orqali o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu tariqa, N.Xomskiy «aqliy grammatika» va «universal grammatika» g‘oyalarini taklif qildi. Uning fikricha, grammatikani o‘rganishda odam so‘zlar tartibini emas, balki nutq qismlari tartibini o‘rganadi. Taklif barcha tillar grammatikalari uchun umumiy sxemaga qaratilgan<sup>1</sup>.

Xususan, matn – diskurs pragmatikasi muammolari, adresant va adresat munosabatida til birliklaridan foydalanishning psixologik-pragmatik omillari, til va inson omilining o‘zaro ta’siri kabi masalalar kommunikativ pragmatikani o‘rganish zaruratini keltirib chiqardi. Bu esa diskursiv vaziyatni yaxlit holda, ya’ni gap tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha jarayonlar doirasida tadqiq qilishni taqozo etadi.

«Gap ichidagi sintaktik birliklar sintagmatik zanjirda o‘zaro bir-biriga va til tizimiga bog‘liq bo‘lib, ma’lum paradigmatic munosabatlar doirasida birikadilar<sup>2</sup>».

Muayyan sintaktik qurilma kontekstda turli ma’no belgilari, kontekstual ma’nolar kasb etadiki, shakl va mazmun aloqadorligini til va nutq dixotomiyasi negizida nazariy umumlashtirishni talab etadi. Mazkur masala sintaktik birliklarning imkoniyat usullarini aniqlash zaruratini keltirib chiqaradi.

Nazariyotchilar va amaliyotchilar kuzatiladigan nutq hodisalarining doimiy, barqaror, til tashuvchilari tomonidan bir xilda yoki ozgina farq bilan takrorlanadigan murakkab turlarini izlaydilar<sup>3</sup>.

Ba’zan muayyan bir fikr ifodasi uchun mutlaqo o‘zgacha semantikaga ega sintaktik qurilmadan foydalanish zarurati yuzaga keladi. Bunda o‘sha o‘zgacha tarzda ifodalangan ma’no til me’yori doirasida qabul qilinadi. Ayni vosita to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanadigan birlik singari o‘zining moddiy-mantiqiy ma’nosida ham, majoziy ma’noda ham bo‘lishi mumkin. Ushbu hol til birliklarining voqelikni o‘ziga xos tarzda ifoda etishini ko‘rsatadiki, bunday hollarda til birliklari orasidagi muvofiqlik pragmatik xususiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup> Корниенко М.А. Лингвофилософия Ноама Хомского: от картезианской традиции к генеративной грамматике // Вестник Томского государственного университета Философия. Социология. Политология. 2018. – № 43. – С. 88-100.

<sup>2</sup> Bu haqda qarang: Почепцов Г.Г. Конструктивный анализ структуры предложения. – Киев: Вища школа, 1971. – С. 114; Почепцов Г.Г. История русской семиотики до и после 1917 года. – М.: 1998. – С. 168.

<sup>3</sup> Алпатов В.М. Язык – система правил и язык – деятельность // Историческая психология и социология истории. 2018. – № 2. – С. 202–220.

Demak, ifodaning adresat tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishiga asosiy ma‘no tashuvchi leksik birliklarga emas, balki sintaktik qurilmalarning to‘g‘ri idrok etilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot tarkibidagi har bir unsur, katta-kichikligidan, asosiy yoki yordamchiligidan qat‘i nazar, muayyan ma‘no va lisoniy vazifaning yuzaga kelishida ma‘lum ahamiyat kasb etadiki, uning adresat tomonidan yetarli baholanmasligi yoki yanglish tushunilishi so‘zlovchi nazarda tutgan fikrning noto‘g‘ri talqiniga olib keladi.

Til birliklari hamma vaqt ham odatda qo‘llaniladigan nutqiy qoliplarida kelvermasdan, ba‘zan o‘zgacha matniy xususiyat ham kasb etadiki, ularning jihati yangi pragmatik ma‘no tashishga xizmat qiladi. Grammatik shakl u yoki bu tarzda ma‘no mohiyatini aks ettiradi. Tilga zamonaviy kognitiv yondashuv asosini til birliklari shakllarida maqsadga muvofiq kognitiv tuzilmalarni qayta tiklash g‘oyasi yotadi. Qayta qurish lingvistik shaklning asos ma‘nolariga asoslanadi: lingvistik shakl qanday turtki bersa, uning ortida turgan kognitivlikni aks ettiradi.

Mazmunning «aslida» qanday qilib qurilganligini anglatuvchi modelini topish kerak. Ushbu yondashuv inson miyasida yuzaga keladigan jarayonlarga e‘tibor berishni talab qiladi.<sup>1</sup> «Mazmuniy sintaksisda gap mazmuni ikki unsur – obyektiv va subyektiv mazmundan iborat deb qaraladi. Obyektiv mazmun gapda aks etgan propozitsiya bo‘lib (u diktum ham deyiladi), subyektiv mazmun esa bu voqelikka so‘zlovchining munosabati (u modus deb yuritiladi)dir<sup>2</sup>».

T.V.Shmeleva sintaksisning uch tarkibiy qismi – **shakliy, semantik va aktual** sintaksisni farqlash kerakligini ta‘kidlaydi va ularni bir-biridan chegaralash emas, balki uch o‘lchovli hodisa – jumla haqida alohida olingan ma‘lumotlardan murakkab, ammo birlashtirilgan ifodani yaratish jarayoni sifatida talqin qiladi<sup>3</sup>. Boshqacha aytganda, bu uch jihat sintaktika, semantika va pragmatika birligini tashkil etadi.

Sintaktik qurilmaning tarkibiy qavatlanishi haqida so‘z borar ekan, gap modelida ular qanday shakllanadi va namoyon bo‘ladi, degan savol kelib chiqadi. «Sintaktik qurilma ifodalagan obyektiv **dalil**, voqea **diktum** hisoblanadi. Ayrim mualliflar mantiq terminologiyasidan foydalangan holda, uni propozitsiya atamasi bilan nomlaydilar. Modus sintaktik qurilma **orqali** ifodalangan voqeaning borliqqa munosabati


<sup>1</sup> Alpatov V.M. Ko‘rsatilgan manba. – S. 202–220.

<sup>2</sup> Qurbonova M., Sayfullayeva R., Boqiyeva G., Mengliyev B. O‘zbek tilining struktural sintaksisi. O‘quv ko‘llanmasi. – T., 2004. – B. 54.

<sup>3</sup> Шмелева Т.В. Семантический синтаксис: Текст лекций из курса «Современный русский язык» / – Красноярск: Краснояр. гос. ун-т, 1994. – С. 4.



hamda soʻzlovchining oʻzi ifodalayotgan voqeaga munosabatini ifodalaydi<sup>1</sup>». Diktum va modus tushunchasini Shmelevaning uch oʻlchovli jumla nazariyasiga tatbiq qiladigan boʻlsak, jumla = (diktum + modus) → aktuallashuv) formulasi kelib chiqadi. Shu tarzda, jumla mazmunining aktuallashuvida pragmatik omillar ham ishtirok etadi.



1.2-rasm. Shmelevaning uch oʻlchovli jumla nazariyasiga tatbiqan jumla = (diktum + modus) → aktuallashuv) formulasi

YE.A.Starodumova modusni aktuallashtirish kategoriyalari voqelikka (propozitiv mazmunga) munosabatni ifodalovchi 4 ta asosiy unsurni tavsiflaydi: modallik, shaxslantirish, zamon va makon lokalligi.

**Modallik** – bu propozitiv mazmunning voqelik bilan real / noreal nuqtayi nazari asosidagi munosabati boʻlib, leksik va grammatik usullarda ifoda etiladi. Masalan, feʼl mayllari, shuningdek, *xohlayman*, *qila olaman*, *kerak*, *zarur*, *shart* kabi istak, imkoniyat, majburiyat va boshqa modal maʼnolarga ega soʻzlar.

**Shaxslantirish** – bu harakat, xususiyatning vaziyat subyektini bilan bogʻliqligi, adresant, adresat va oʻzga shaxs feʼlining shaxs-son shakllari bilan kishilik olmoshlarining mos kelishi.

**Zamon lokalligi** – bunda boshlangʻich nuqta nutq momenti. Zamon lokalligi oppozitsiya (hozir – oldin – keyin)da oʻzini namoyon qiladi. Feʼning zamon shakllari va leksik koʻrsatkichlar – vaqt maʼnosiga ega soʻzlar bilan ifodalanadi.

**Makon lokalligi** qiymati yuqoridagi 3 xil kategoriyaga nisbatan ixtiyoriy. Bu voqea-hodisa roʻy berayotgan makonning «*u yerda / bu yerda*», «*bu yerdan / bu yoqqa*», «*bu yerdan / u yerdan*» kabi qarama-qarshiliklarda muloqot doirasiga nisbatan belgilanishidir. Makon lokalligi

<sup>1</sup> Mahmudov N, Nurmonov A. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis) – T.: Oʻqituvchi, 1995. – B. 23.

sintaktik qurilmaning pragmatik ma'nosi orqali bilvosita ifodalanishi ham mumkin<sup>1</sup>.

Masalan, *Keting, iltimos* jumlasida «*bu yerdan*», «*yonimdan*» ma'nomi yashirin tarzda ifodalangan. Xuddi shu jumlada «*iltimos*» modal so'zi yordamida «*uning qolishini xohlamaslik*» modallik ma'nosi ham ifodalanmoqda, «*keting*» fe'l shakli esa nutqning II shaxs (tinglovchi)ga qaratilganligi va hozirgi-kelasi zamonga ishora ma'nosini anglatadi. Shu tariqa, diktumda ifodalangan grammatik kategoriyalar modus ma'nolarini ifodalashi natijasida jumla **aktuallashadi**.

Sintaktik qurilmalar tarkibidagi lisoniy belgilarning predmet va tushunchaga bo'lgan munosabati semantikada o'rganiladi. Pragmatikaning esa nutqiy aktning bevosita kontekst bilan munosabatini o'rganishi ko'rsatildi. Ko'rinadiki, nutqiy akt bilan kontekst o'rtasidagi o'zaro munosabat pragmatikaning asosiy o'rganish obyekti sanaladi.

Demak, nutqiy akt bilan kontekst o'rtasidagi munosabat juda kuchli bo'lganda, nutqiy akt ma'nosi kontekst bilan bog'liq holda anglangan o'rinlarda pragmatikaga ehtiyoj tug'iladi<sup>2</sup>».

«Amaliy sintaksis muammolarini hal qilishda Ch.Fillmorning «tushunish mazmuni» g'oyasi katta yordam beradi. Ch.Fillmor mazmuniy nazariyani «tushunish mazmuni» va «haqiqat mazmuni» nazariyalariga ajratgan holda, «tushunish mazmuni» nazariyasi ostida lisoniy matnlar bilan jarayon o'rtasida mavjud bo'lgan munosabat haqidagi umumiy tasavvurni tushunadi. «Tushunish mazmuni»ning vazifasi lisoniy matn bilan uning matnlar qurshovida to'liq tushunilishi o'rtasidagi aloqa mohiyatini ochishdan, jumlaning u orqali ifodalanayotgan vaziyat bilan aloqasini ko'rsatishdan iborat<sup>3</sup>».

«Tilning asosiy vazifasi odamlarning bir-birlarini tushunishlari va gaplashishlarida vosita bo'lib xizmat qilishdir. Axborot uzatish va qabul qilish vositasi bo'lish – tilning kommunikativ mohiyatidir<sup>4</sup>». Shu jihatdan sintaktik birliklarning ham kommunikativ jihatiga e'tibor qaratish ularning muhim antropotsentrik jihatlarini tadqiq qilish imkonini beradi.

**Kommunikativ sintaktik** jihat nutqqa ham, tilga ham tegishli. Kommunikativ sintaksis birligi gapirish, ya'ni nutqiy ifoda muloqot maqsadlariga mos keladigan kommunikativ funksiyadir. Individual va

---

<sup>1</sup> Стародумова Е.А. Синтаксис современного русского языка. Владивосток, Изд. Дальневосточного университета, 2005. – С. 38-39; Степанов Ю.С. В мире семиотики // Семиотика. – М.: 1983. – С. 5-36.

<sup>2</sup> Hakimov M. O'zbek pragmatikalingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2013. – B. 11-12.

<sup>3</sup> Nurmonov A. Ko'rsatilgan manba. – B. 199.

<sup>4</sup> Qurbonova M., Sayfullayeva R. va b. Ko'rsatilgan manba. – B. 48.

nutqiy vaziyatga asoslangan nutqiy ifodalar cheksiz xilma-xildir. Ammo ifodada shunday xususiyatlar ham mavjudki, ular nafaqat nutq, balki til faktlarini ham belgilaydi. Ifodalarning lingvistik mohiyati ularning tipologiyasida namoyon bo‘ladi<sup>1</sup>.

Tildagi sintaktik vositalarning pragmatik imkoniyatlarini o‘rganish, jumladan, tinglovchiga murojaat shakllarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. So‘zlovchining olam lisoniy manzarasini anglashdagi o‘ziga xosligi, illokatsion niyatiga mos keladigan sintaktik birliklarni tanlashi hamda adresatning diskursiv vaziyatdagi ijtimoiy voqelikni idrok etishi va baholashi jarayonida sintaktik vositalarni qabul qilishdagi pragmatik yondashuvi doirasidagi tadqiqotlar ma’lum darajada adresant va adresatning ichki holatini ifoda etuvchi psixolingvistik asoslarni o‘rganish imkonini beradi. «Fikrlashimizning psixologik asosi bo‘lgan tasavvurlar zaxirasini avvalgi taassurot va kechinmalarimiz taqdim etadi va tajribalar yig‘ilib boradi; bu fikrlarning kommunikativ aktda birlashishi gapning psixologik asosini tashkil etadi<sup>2</sup>».

Ma’lumki, o‘zbek tilida senlab yoki sizlab murojaat qilishning o‘ziga xos lisoniy-uslubiy me’yorlari mavjud. Asosan, yoshi, mavqeyi, lavozimi, rasmiy maqomi kabi omillar asosidagi vertikal munosabatlarda sizlab murojaat qilinadi. Aksincha, o‘ziga nisbatan kichik yoshdagilarga, tengqur, do‘st-birodar, yaqin qarindosh yoki norasmiy maqomdagilarga nisbatan sensirab murojaat qilish mumkin. «O‘zbekistonning hamma hududlarida bobo, buvi, ota, ona, amaki, amma, tog‘a, xola, aka, opa kabi katta yoshli tinglovchilarga sizlab, nabira, farzand, jiyan, uka, singil singari kichik yoshdagi tinglovchilarga asosan senlab murojaat qilish kuzatiladi<sup>3</sup>».

Quyidagi matnda 3 xil munosabat shakllarining me’yoriy darajasi aks etgan: **ona (ota) → bola, er → xotin** munosabatida sensirash mumkin, **xotin→er** munosabatida esa, albatta, sizlab murojaat qilinishi shart.

– *Yig‘lamang-da, ayajon, mana, yuripman-ku. Menga jin urmaydi. Ona hamon uni bag‘ridan qo‘yib yubormas, peshanalaridan silar, yuz-ko‘zlaridan tinmay o‘pard.*

– *Rangi-ro‘yingni qara, senga nima bo‘ldi, bolam. Voy-bu, kiyim-boshlaring ham juldur bo‘lib ketibdi. Nima yeb, nima ichib yuribsan, tentakkinam. Menginani ko‘ndirib shaqlarda yuribman degin.*

<sup>1</sup> Starodumova YE.A. Ko‘rsatilgan manba. – B. 41.

<sup>2</sup> Шахматов А.А. Синтаксис Русского языка. 3-е изд. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – 624 с.

<sup>3</sup> Babaxanova D.A. Shaxs nutqiga u yashab turgan hududning ta’siri // NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник NamGU, 2019. – № 3. – B. 198-204.

*Shu payt Ummatali yetib keldi.*

– **Qo‘y** endi, onasi, damini olsin, ishlab turgan joyidai chaqirib kelyapman.

– Voy, **shoshmang**, diydorginasiga bir to‘yvolay. (Said Ahmad. «Ufq» trilogiyasi)

O‘zbek mentalitetiga ko‘ra ayollarning o‘z umr yo‘ldoshlariga «senlab» murojaat qilishi muloqot xulqi me‘yorlarining o‘ta qo‘pol buzilishi, ma‘naviyatsizlik belgisi hisoblanadi. «Xotinining bu kesatig‘ini eshitib, Ismoil aka battar asabiylashdi, oqibatda er-xotin biroz g‘ijillashib olishdi. Aslida shunaqa paytda ayol kishi bir pog‘ona past tushib, bitta gapdan qolsa, nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi. Lekin O‘g‘iloy opa yana tiliga erk berdi.

– Doim shu zormandani ichib olib, janjal **qo‘zg‘aysan**, – dedi ayol xo‘jayinini sensirab battar izzat-nafsiga tegib. Qaynonasining qaynotasiga qilgan bunday hurmatsizligini ko‘rib, kelini Sharifa labini tishladi» (Internetdan).

Shuningdek, **aka (opa)→singil (uka)** munosabatida sensirash, **singil (uka) → aka (opa)** munosabatida esa sizlash odatiy me‘yor hisoblanadi.

– Rahmatli onam **seni** menga tashlab ketgan. El-yurt oldida **boshimni xam qilib ketding**, orqangdan quvmadim. Marg‘ilon yo‘lini menga **berk qilib ketding**, indamadim. Jigarchilik, deb chidadim. Endi esingni **yig‘**.

*Lutfinisa akasining betiga tik qaradi.*

– **Qistamang**, aka. Ketolmayman. Biron haftadan keyin kanalga suv ochiladi. Men shu yerda bo‘lishim kerak.

*Akbarali istehzoli kuldi.*

– Tavba, **sen** bo‘lmasang kanalga suv kelmay qolarkanmi. **Ahmoq bo‘lma!** (Said Ahmad. «Ufq» trilogiyasi)

**Yoshi katta (begona) → yoshi kichik (begona):**

Voy, xo‘p, xo‘p, bolam. **Sen** bosh **yuvasan-u** men suv isitib bermaymanmi?- Orzixon aya pildirab o‘choq boshiga ketdi, Samovarga suv quyib tasha bilan tarasha uchira boshladi.-Sochingni o‘zim qirq kokil qilib o‘rib qo‘yaman. Hoy bolam, o‘sma uzib oftobga **tashlab qo‘y**. So‘lib tursin. (Said Ahmad. «Ufq» trilogiyasi)

**Yoshi kichik (begona) → yoshi katta (begona) :**

– Esh aka, **xafa bo‘lmaysiz**. Sizga tan beraman. Siz menning **ustozim bo‘lasiz...**

*Azizxonning gapi og‘zida qoldi. Esh polvon uni ko‘ksidan itarib do‘ng‘illadi:*

– *Tirrancha, sen hali chuchvarani xom sanayapsan. Meni mayna qilyapsanmi?*

*U shunday dedi-yu, yerni gurs-gurs bosib choyxona tarafga ketdi* (Said Ahmad. «Ufq» trilogiyasi).

Sintaktik birliklarning pragmatik maqsad talabi bilan **og‘ishi** esa til tashuvchilarining muayyan nutqiy vaziyatdagi sotsiopsixopragmatik holatiga ko‘ra yuz beradi. «*Chehrasi shu qadar xomush, shu qadar ayanchli ediki, qo‘rqib ketdim. Shahnoza qilt etmay o‘tirar, o‘zi yonimda-ku, xayollari uzoq-uzoqlarda kezayotganini his etib turardim.*

– ***Qo‘y endi, Shahnoz... – dedim umrimda birinchi bor sensirab. – Ko‘rasan, hammasi yaxshi bo‘ladi***» (O‘.Hoshimov «Tushda kechgan umrlar»).

Diskursiv vaziyat nutq birliklarini tanlashga bevosita ta‘sir qiladi. So‘zlovchi uzoq muddatli armiyaga ketish arafasida, Afg‘onistonga yuborilish ehtimoli mavjud holatda oldinda kutilayotgan mavhum ayriliq, urushdan omon qaytish-qaytmasligi gumon bo‘lib turgan ijtimoiy tanglik ta‘sirida to‘rt yildan beri sizlab, ardoqlab yurgan qiziga sensirab murojaat qiladi. Bundan maqsad, hurmatsizlash, tinglovchini past olish emas, balki o‘ziga yaqin tutib, qalbiga yaqin qadrdonini yo‘qotib qo‘yish xavfidan cho‘chish sababli murojaat shaklini o‘zgartiradi. So‘zlovchi ham buni his qiladi, tushunadi.

Odatda, o‘zbek mentalitetiga ko‘ra ikki begona shaxs bir-biriga sizlab murojaat qiladilar. Nutqiy vaziyat talabi bilan ushbu me‘yordan chetlashish ijobiy yoki salbiy xarakterda bo‘ladi, bu esa kontekstda ma‘lum bo‘ladi.

Ijobiy:

– ***Gapiring!*** – dedi jerkib. – *Nima dardingiz bor? Oldindan aytib qo‘yay!* «Paxta ishi» bilan ***kelgan bo‘lsangiz*** gaplashmayman!

*Shaxt bilan o‘rnimdan turdim-da, xayrlashmasdan eshikka yo‘naldim.*

– ***Shoshmang!*** – dedi u baqirib. *To‘xtadim.*

– ***Qayting!*** – «Opal» qutisidan sigaret olib labiga emas, sarg‘ayib ketgan tishlari orasiga asabiy qistirdi. *Go‘yo g‘ajib tashlamoqchi bo‘lgandek.*

– ***Aytaver, dardingni!*** – dedi to‘satdan ***sensirab.*** *Gap boshlashim bilan chehrasi yorishdi. – Shomansur akaning o‘g‘limisan? Tashla qo‘lni! Otang ajoyib odamlar! U kishi to‘g‘risida ocherk yozganman. Ishning ko‘zini biladigan rais edilar. ... O‘zing qayerda ishlaysan?*

– *O‘qiyman, – dedim to‘ng‘illab. – Jurnalistikada.*

– *Iya, hamkasb ekanmiz-ku! Qani, bir boshidan gapir-chi, nima bo‘ldi o‘zi?* (O‘.Hoshimov «Tushda kechgan umrlar»)

Haqparast jurnalist yigit jamiyatda bo‘layotgan nohaqliklar, xususan, «paxta ishi», «o‘zbek ishi» deb nom olgan ommaviy ayblovlardan norozi kayfiyatda edi. Redaksiyaga haqiqat izlab kelgan yigitga, dastlab, rasmiy muomalada bo‘lgan jurnalist Rustamjonning maqsadini anglagach, o‘zi nafratlanayotgan voqelikdan jabr ko‘rayotgan insonning o‘g‘li ekani so‘zlovchining do‘stona yaqinlik asosidagi murojaat shakliga o‘tishiga turtki beradi.

Salbiy:

Munosabatlar taranglashganda, yoshi, mavqeyi kabi omillar asosidagi muloqot xulqi me‘yorlaridan chekinish ro‘y beradi, natijada murojaat shakli ham salbiy tusga kiradi.

*Kimsan akam shunday vajohat bilan ustiga bostirib bordiki, Ochilboy beixtiyor orqaga tisarildi.*

– *Ukam... – dedi qaltirab.*

– *Eshidingmi? – Kimsan akam g‘azab bilan pishqirdi.*

– *Jon kerak bo‘lsa, tuyog‘ingni shiqillat!*

– *Ukam...*

– *Men sening ukangmasman! – Kimsan akam tishlarini g‘ijirlatib ta’kidladi. – Tushundingmi?*

– *Kimsanjon... – Ochilboy shosha-pisha ko‘zoynagini qaytadan taqdi. Qorong‘ida ayanchli iljaydi* (O‘.Hoshimov «Ikki eshik orasi» romani).

Odatda, sizlab murojaat qilish ijobiy fazilat hisoblanadi, ayrim nutqiy vaziyatlarda esa uning **salbiy** xarakter kasb etishini ham kuzatish mumkin.

1) Ota-bola munosabatidagi nosamimiylik, makon va zamon jihatdan uzoqlashish tufayli «poytaxtda yashaydigan o‘g‘il» oldida o‘zining kamtarin va hokisor turmush tarzidan qimtinishi natijasida otaning o‘z o‘g‘liga begonasirab muomala qilishi adresat ruhiyatiga ham ta’sir qiladi, ya’ni *perlokutiv akt* salbiy natija beradi.

- *Nega joyini o‘zgartiryapsiz? – so‘radi tag‘in Yusuf.*

- *Chunki soyada qolib ketdi. Qo‘shni imoratni qarang, – Odil aka imo bilan sobiq rais bovaning qo‘shqavatli, baland uyini ko‘rsatdi, zang‘arning dastidan ko‘p mevalar hech oftob ko‘rmayapti. Tokni boshqa tomonga tarashdan maqsad ham shu – oftobga olib chiqish. Negadir Odil aka o‘g‘liga xiyol qizarib, qimtinib, buning ustiga «sizlab» gapirardi. Yusuf bundan mutaassir bo‘ldi. U otasida ilk*

*bor odamzotga xos ojizlikni, siniqlikni ko'rayotgandi. Ko'ngli allanechuk bo'lib, tomog'iga nimadir tiqildi...* (Ulug'bek Hamdam. «Muvozanat» romani)

2) Qatag'on yillarining ayovsiz, berahm «organ» xodimlari xalq orasida o'lim sharpasidek kezib yurgan bir paytda ularning xalqni ezish mexanizmi muruvvatlari sifatida insonlarga hayvondek munosabatda bo'lishi odatiy holga aylangan edi. Mana shunday jirkanch guruh vakilining xonadonga bostirib kirib «mehribonlik» niqobida muomala qilishi ortida g'arazli maqsadlar yashirinishi tabiiy hol edi. Shuning uchun bobosi, otasining o'limiga sababchi bo'lgan «shapkali»ning himoyasiz ona-bolaga sizlab muomala qilishi o'smir qiz Cho'lponoyga g'ayri tabiiy tuyuladi. Darhaqiqat, pirovardida «shapkali» mudhish voqeaga – onaning o'limiga sabab bo'ladi.

*Sandalga oyog'ini tiqqanidan keyingina Qurbonoy sovuq jonjonidan o'tib ketganini sezdi. yelkalari silkinar, a'zoyi badani titrar, negadir nafas olishga qiynalardi. Qiziq, shapkali ham sandalning bir tomoniga cho'kdi. Oyog'ini sandalga tiqib, bir zum ko'zlarini yumib turdi-da, buyurdi:*

*- O'tiring! Nega qaqqayib turibsiz? Ajab, bu safar negadir sizlab gapirdi. Tokcha oldida turgan onasi bosh chayqadi.*

*- Ziyoni yo'q, men turaveraman...*

*- O'zingiz bilasiz... – Shapkali boshidan shapkasini yechib, sandal ustiga to'nkarib qo'ydi (O'.Hoshimov «Tushda kechgan umrlar»).*

Nutqiy aktda til tashuvchilari mansub bo'lgan millatning madaniy xususiyatlari negizidagi bilim muhim rol o'ynaydi. Hayotiy faoliyatning inson ongida mustahkamlangan tasavvur shakllari bo'lgan madaniy hodisalar paydo bo'lishi markazida kommunikativ ehtiyoj yotadi va ular inson ongining mulki sifatida fikrlari va harakatlariga ta'sir qilishi bilan izohlanadi. Madaniyat insonning nutqiy faoliyati xarakterini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Uning lingvistik kommunikativ kompetensiyasi aynan shu jihat bilan belgilanadi. Boshqa madaniyatga oid til tashuvchilari bilan muloqot jarayonida ana shu madaniy bilim yetishmasligi oqibatida til birliklarini noto'g'ri talqin qilish mumkin.

*- Nega u suvni mingboshiga berdingiz?*

*- Juda tashna bo'lib so'ragan edi, shundoqqina tokchadan olib uzatdim.*

*- Choynakda zahar borligini bilarmidingiz? Zebi kuldi.*

*- Qiziq ekansan (o'rusni sizlab bo'lmaydi), men qayerdan bilay?*



- Demak, eringizni o'zingiz o'ldirdingiz? Zebi qattiqroq va cho'zibroq javob berdi:

- Yo '-o '-q!.. O'libmanmi o'z erimni o'ldirib (Cho'lpon. «Kecha va kunduz» romani).

Soddagina Zebining eshitganlari bo'yicha tasavvurida «o'risni sizlab bo'lmaydi» degan axborotning mavjudligi uning tergovchiga *sensirab* murojaat qilishiga sabab bo'ladi. O'zbeklarda bunday fikrning paydo bo'lishi esa o'sha davr ijtimoiy muhiti bilan bog'liq bo'lib, ruslarning o'zaro muloqotida *sensirab* gapirish nutqiy me'yor ekanligi haqidagi bir yoqlama tushuncha bilan bog'liq edi. Madaniyatlararo muloqotning ibtidoiy shaklida hali umuminsoniy mezonlar shakllanib ulgurmagan edi. Shuning uchun ham madaniyatlararo muloqotga ehtiyoj kuchaygan bugungi davrga kelib, chet tilini o'rganishni o'sha xalq madaniyatini o'rganish bilan qo'shib olib borish zarurati mutaxassislar tomonidan ko'p bor ta'kidlanmoqda.

**Sensiramoq.** 1. Biror shaxsga «sen» deb murojaat etmoq.<sup>1</sup>

2. «Sen» deb murojaat qilish orqali behurmat munosabatda bo'lmoq.

**Sizlamoq.** O'zidan kattaga yoki biror odamga hurmat yuzasidan «siz» deb murojaat etmoq.<sup>2</sup> «O'zbek tilining izohli lug'ati»da *sensiramoq* va *sizlamoq* so'zlarining izohi to'liq ta'riflanmagan. Yuqoridagi tahlillarimiz asosida har ikki so'z ham kontekstda ijobiy va salbiy ma'nolar ifodalay olishini kuzatdik. Bu esa kelgusida ana shunday konseptual tushunchalar izohini mukammallashtirishda pragmatik tahlilning ahamiyati katta ekanligini ko'rsatadi

Tahlillardan ko'rinadiki, til belgilarining nutqiy jarayonda voqelanishi ekspressiv sintaksisni yuzaga keltirishi pragmatika bilan chambarchas bog'liqdir. Sintaktik qurilmalar transformatsiyasi voqelikni bayon qilish bilan birga baho munosabatini ham ifodalaydi. Subyekt bilan bog'liq har qanday nutqda so'zlovchining ijobiy yoki salbiy munosabati aks etadi. Pragmatik bahoning yuzaga kelishida transformatsiyalangan sintaktik qurilmaning ijobiy yoki salbiy bo'yoqqa egaligi gapning ifoda mazmunini kengaytiradi. Yuqoridagi tahlillar asosida fikrimizni umumlashtiradigan bo'lsak, har qanday til birligining funksional qo'llanishi nutqiy faoliyat natijasida ma'lum bir ichki qonuniyatlar va me'yorlar asosida aktuallasadi. Ana shu birliklarda muayyan diskursiv vaziyat talabi bilan yoki kontekstdagi vazifasiga ko'ra chetga og'ish yuz bersa, albatta, pragmatik tahlilga ehtiyoj paydo bo'ladi. Matn-diskurs

<sup>1</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildlik, 3-jild, – T.: O'zME, 2007. – B. 480.

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildlik, 3-jild, – T., O'zME, 2007. – B. 496.

dixotomiyasida sintaktik qurilmalarning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilishda pragmatik funksiya bajaruvchi til birligi sifatida **pragmema** tushunchasini keng qo'llash maqsadga muvofiqdir. Pragmemalarning lingvopragmatik xususiyatlari muloqot yoki kontekst doirasida aniqlanadi. Muloqot jarayonida so'zlovchi tomonidan uzatilayotgan ma'lumotning qabul qiluvchi tomonidan idrok qilinishi pragmatik munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bunday munosabatlarda pragmatik jihatdan **so'zlovchi pozitsiyasi** (shaklni tanlash) va **tinglovchi pozitsiyasi** (gapni talqin qilish) harakatlanadi. Til belgilarining nutqiy jarayonda voqelanishi ekspressiv sintaksisni yuzaga keltirish imkoniga ega. Pragmatik bahoning yuzaga kelishida transformatsiyalangan sintaktik qurilmaning o'rni katta. Sintaktik qurilmalar transformatsiyasi voqelikni bayon qilish va baho munosabatini birga ifodalaydi. Har qanday nutqda so'zlovchining ijobiy yoki salbiy munosabati – pragmatik bahoning yuzaga kelishida sintaktik qurilmalarning o'rni katta.

## IKKINCHI BOB

### SINTAKTIK SATH TIL BIRLIKLARINING NUTQ INDIVIDUALLIGINI TA'MINLOVCHI LINGVOPRAGMATIK TABIATI

#### 2.1. So‘z birikmasining nutq individulligini ta‘minlovchi lingvopragmatik tabiati

So‘z birikmasi sintaktik birlik sifatida strukturasi, shakli, birikma tarkibidagi so‘zlarning vazifasi, o‘zaro birikish usullari va turlari, birikmalarning turlari va shu kabi qator masalalarni qamrab oladi. Shuningdek, so‘z birikmasini ibora, so‘z qo‘shilmasi va qo‘shma so‘zlardan farqlash masalasi ham muhim jihat hisoblanadi.

So‘z birikmasi borasidagi dastlabki nazariy qarashlar F.Fortunatov ishlarida kuzatiladi. Akademik olim so‘z birikmasini tugallanmagan birikma va gapni tugallangan birikma tarzidagi sintaktik birliklar sifatida talqin qiladi<sup>1</sup>.

A.A.Shaxmatov F.Fortunatov fikrini rivojlantirib, so‘z birikmasini bir so‘zning boshqasiga tobe munosabati orqali shakllangan grammatik birlik sifatida tavsiflaydi. U ham gap – tugallangan so‘z birikmasi degan fikrni qo‘llasa-da, «So‘z birikmasi haqida ta‘limot» va «Gap haqida ta‘limot» masalalarini alohida tadqiq qiladi. Shuningdek, kengaygan birikmalarning alohida xususiyatini aniqlashtirib beradi: «Kengaygan birikmalar – ikki yoki undan ortiq so‘zlar o‘zaro tobe bog‘lanib, ulardan birortasi alohida gap bo‘lagi bo‘la olmaydigan shaklda bitta grammatik yaxlitlikni ifodalovchi sintaktik butunlikdir<sup>2</sup>».

V.V.Vinogradov nazariyasida so‘z birikmasi alohida sintaktik birlik bo‘lib, u hokim so‘zning leksik-grammatik kengayishi natijasidir. Demak, so‘z birikmasi faqat tobe bog‘lanish asosida mavjud va nominativ vazifaga ega. Kamida ikkita to‘liq qiymatli so‘zning birikishidan tarkib topgan so‘z birikmasi grammatik birlik sifatida gap uchun qurilish materialidir. So‘z birikmalari faqat jumla tarkibida va gap orqali tilning kommunikativ vositalari tizimiga kiradi<sup>3</sup>.

«Ikki va undan ortiq mustaqil so‘zlarning grammatik-semantik munosabatidan tashkil topib, bir murakkab tushuncha (predmet, harakat,

---

<sup>1</sup> Fortunatov F.F. Избранные труды. Том 1. – М.: Гос.учебно-пед.изд. Мин.просв. РСФСР, – С. 183.

<sup>2</sup> Shaxmatov A.A. Ko‘rsatilgan manba. – B. 275-419.

<sup>3</sup> Vinogradov V.V. Slovosochetaniye kak predmet sintaksisa // Sintaksis sovremennogo russkogo yazyka: xrestomatiya. 2-ye izd., SPb: Filologicheskiy fakul’tet SPbGU, 2013. – S. 91.

holat, belgi tushunchasi) anglatadigan nominativ xarakterdagi ochiq konstruksiyalar soʻz birikmalari deyiladi<sup>1</sup>».

Oʻzbek tilshunosligida soʻz birikmasi keng koʻlamda oʻrganilgan boʻlsa-da, hanuzgacha ayrim nomuvofiq fikrlar uchrab turadi. Masalan, teng bogʻlanish asosida shakllanadigan uyushiq boʻlaklar Gʻ.Abdurahmonov va boshqa hammualliflarning «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» oʻquv qoʻllanmasida teng soʻzli birikma<sup>2</sup>, B.Umurqulovning «Hozirgi oʻzbek tili» qoʻllanmasida esa teng bogʻlanishli birikma tarzida soʻz birikmasi qatoriga kiritilgan: «Soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlarning bogʻlanishi ikki xil: *teng bogʻlanish, tobe bogʻlanish*. Teng bogʻlanishli birikmalar tarkibidagi soʻzlar teng bogʻlovchilar yoki ohang yordamida bogʻlanib, bir xil gap boʻlagi boʻlib keladi. Masalan, *Oʻktam va Sodiq* bir sinfda oʻqiydi<sup>3</sup>». Soʻnggi yillarda darslik va qoʻllanmalarda, xususan, R.Sayfullayeva va boshqalarning «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» qoʻllanmasida teng bogʻlanishli uyushiq boʻlaklarga nisbatan soʻz qoʻshilmasi atamasi qoʻllana boshlagani maqsadga muvofiqdir.

Soʻz birikmasidagi sintaktik munosabatlar quyidagi omillarga bogʻliq:

- 1) birikma qismlarining umumiy leksik-grammatik xususiyatlari va ularning kategorial maʼnolariga;
- 2) soʻzlarning leksik maʼnosiga;
- 3) birikma qamrovidagi kontekstga.

Tarkibiga koʻra soʻz birikmasining sodda va murakkab turlari mavjud.

**Sodda va murakkab soʻz birikmalari.** Grammatik adabiyotlarda soʻz birikmalarining tuzilishi boʻyicha sodda va murakkab turlarga boʻlinishida, asosan, ularning ikki jihati hisobga olinadi: 1) tarkibidagi mustaqil soʻzlar soni 2) tobe aloqa usullarining soni va tabiati;

Sodda soʻz birikmalari ikki mustaqil, toʻliq maʼnoli soʻzlarning leksik-semantik va grammatik jihatlardan birikuvidan paydo boʻladi va bir butun, murakkab maʼnoni ifodalaydi. Masalan, *yangi qoʻshni, oʻnta kitob, yaxshi oʻqiydi* kabi. Tarkibidagi soʻzlar sonidan qatʼi nazar bitta bogʻlanish usuli asosida tuzilgan soʻz birikmalari ham sodda birikma hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan nafaqat ikki komponentli, balki uch-toʻrt komponentli, lekin mustaqil soʻzlar ikkitadan oshmagan birikmalarni

---

<sup>1</sup> Abdurahmonov Gʻ., Sulaymonov A., Xoliyorov X., Omonturdiyev J. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Sintaksis. – T.: Oʻqituvchi, 1979. – B. 5.

<sup>2</sup> Abdurahmonov Gʻ., Sulaymonov A., va b. Koʻrsatilgan manba. – B. 10.

<sup>3</sup> Umurqulov B. Hozirgi oʻzbek tili. – Termiz, 2012. – B. 116.

ham sodda deb talqin qilish mumkin. Masalan, *qoidalarga rioya qilmoq* (boshqaruv), *ota-onalar majlisi* (moslashuv), *bir ovozdan saylash* (bitishuv). Bu o‘rinda *rioya qilmoq* qo‘shma fe‘l, *ota-onalar* juft so‘z, *bir ovozdan* qo‘shma ravish sifatida bitta so‘roqqa javob bo‘ladigan til birligi va shu holida so‘zshakl hisoblanadi. Bizningcha, ko‘makchili birikmalar ham sodda so‘z birikmasi hisoblanadi, negaki, ko‘makchi to‘liq mustaqil ma‘no anglatmaydi, o‘zi birikkan so‘z bilan birga bitta so‘roqqa javob bo‘ladi hamda biriktiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Masalan, *foйда haqida fikrlashmoq*, *onam uchun oldim*, *devor yonidagi karavot* kabi.

Murakkab so‘z birikmalari uch va undan ortiq so‘zlarning leksik-semantik va grammatik jihatdan o‘zaro bog‘lanishidan tashkil topadi. O‘z navbatida murakkab so‘z birikmalari bir hokim so‘zga tobe qismning turli xil usullar bilan bog‘lanishi asosida tuzilgan so‘z birikmalarini o‘z ichiga oladi. Masalan, *ikkita ko‘p qavatli bino*. Sh.Rahmatullayev murakkab birikmalarga nisbatan «yoyiq birikma» atamasini qo‘llaydi: «Ikki va undan ortiq tobe a‘zo birikmaning hokim a‘zosiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lansa, yoyiq birikma deyiladi: *quyuq payvasta qoshlar* kabi<sup>1</sup>». Bizningcha, sodda va murakkab so‘z birikmalari tarzida qo‘llagan ma‘qul.

Shunday qilib, oddiy va murakkab so‘z birikmalarini farqlashda asosiy mezon sifatida bog‘lanish tarziga e‘tibor qaratiladi. Murakkab so‘z birikmalarining quyidagi turlarini ajratish mumkin:

**1. Sodda birikmalarni o‘z ichiga olgan murakkab so‘z birikmalari:** *ko‘p kitob o‘qiganman – ko‘p kitob, kitob o‘qiganman.*

*Men bu yil Toshkentdagi San‘at institutiga hujjat topshirmoqchiman:*  
1) *hujjat topshirmoqchiman* (sodda), 2) *bu yil topshirmoqchiman* (sodda),  
3) *Toshkentdagi San‘at institutiga* (murakkab).

**2. Har xil belgili uyushmagan aniqlovchilarni o‘z ichiga olgan so‘z birikmalari:** *naqshinkor katta sandiq, ikkita zamonaviy kutubxona.*

**3. Tarkibida har xil belgili fe‘l-kesim kengaytiruvchilari mavjud bo‘lgan so‘z birikmalari:** *yuklarni poyezdda olib kelmoq – yuklarni olib kelmoq, poyezdda olib kelmoq.*

**4. Kengaygan tobe qism (sifatdosh oborot)li so‘z birikmasi:**

*Sojida supada sochilib yotgan kir mashinaning qutisi va yelim qoplamlarning yonidan hayron bo‘lib aylanib o‘tdi – kir mashinaning qutisi* so‘z birikmasida tobe qism qo‘shma so‘z bilan ifodalangan va *qanday?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi (*qanday quti?*), *supada sochilib yotgan*

---

<sup>1</sup> Rahmatullayev SH. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Darslik. – T.: Universitet, 2006. – B. 271.

*quti* birikmasida esa tobe qism kengaygan aniqlovchi, ya'ni sifatdoshli oborot bilan ifodalangan va *qaysi?* so'rog'iga javob bo'ladi (*qaysi quti?*).


Zamonaviy qarashlar asosidagi yangicha talqinlar negizida so'z birikmasini sintaktik qurilmalarning asosiy turlaridan biri sifatida o'rganishga e'tibor yanada kuchaymoqda<sup>1</sup>.

M.K.Sharipov hozirgi o'zbek tilida so'z birikmalari masalasini o'rganar ekan, so'z birikmasi va so'z, so'z birikmasi va qo'shma so'zlar, so'z birikmasining hajmi va chegarasi masalalarini tadqiq qiladi<sup>2</sup>.

Mualliflar guruhining «Hozirgi o'zbek adabiy tili» o'quv qo'llanmasida lison-nutq dixotomiyasi asosida so'z birikmasining lisoniy sintaktik birlik sifatida shakliy tomoni, nutqiy sintaktik birlik sifatida esa mazmuniy tomoni qonuniyatlari o'rganilishi ta'kidlanadi. Qo'llanmada *lisoniy sintaktik qolip* (qisqacha **LSQ**) va nutqiy so'z birikmasi tushunchalari dialektik birlikda tadqiq etilgan. Shu tariqa, bugungi kunda o'zbek tilida so'z birikmasi hosil qilishning 18 ta ustuvor qolipi aniqlanganligi bayon qilingan. Masalan, (**W qaratqich kelishigi – W egalik qo'shimchasi = qaratuvchi-qaralmish**) qolipi asosida turli-tuman so'z birikmalari hosil qilish mumkin: *Halimning qalami, odamning qo'li* kabi<sup>3</sup>.

Bu nima qiyomat!!! – deb shovqin solishi ikkala yosh qizni chaqmoq tekkan daraxtday turgan joylarida qotirib qo'ydi (Cho'lpon «Kecha va kunduz»). «*Nima qiyomat*» (sodda) so'z birikmasida nima va qiyomat so'zlari mantiqan bog'lanmaydi, lekin kontekstda sheva elementi sifatida qanday so'roq olmoshi o'rnida qo'llangani anglashiladi.

«*Ikkala yosh qizni*» (murakkab) birikmasida ikki xil belgi bildiruvchi uyushmagan aniqlovchilar hokim so'zga ketma-ket bog'lanib, kengaygan birikma hosil qilgan.



Bu o'rinda yana shuni aytib o'tish joizki, aniqlanmish (bitta emas) ikki qizni ifodalayotgani uchun *yosh qiz* sodda so'z birikmasi *yosh qizlar* shaklida bo'lishi kerak edi, lekin ikkinchi kengaytiruvchi *ikkala*

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., YUnusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T., 2009. – B. 271; Xo'jayev T. So'z birikmasi talqiniga qisqacha sharh // <http://library.ziyonet.uz/>; Raupova L.R. Hozirgi o'zbek tilida so'z birikmalari. – T.: Yoshlar matbuoti, 2015.

<sup>2</sup> Sharipov M.K. Hozirgi o'zbek tilida so'z birikmalari sintaksisi masalasi, – T.: Fan, 1978. – 88 b.

<sup>3</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., va b. Ko'rsatilgan manba. – B. 267-305.



aniqlovchisi miqdorni ifodalagani uchun ikkala yosh qiz birikmasida - *lar* ko'plik formasi tushib qoladi – *ikkala yosh qiz*.

- *qiz(lar)ni qotirib qo'ydi* (murakkab) – hokim qism frazeologik birlik bilan ifodalangan.

- *turgan joylarida qotirib qo'ydi* (murakkab) – tobe qism o'z kengaytiruvchisi bilan birga qo'llangan.

- *chaqmoq tekkan daraxtday qotirib qo'ydi* (murakkab) – tobe qism kengaygan birikma, ya'ni sifatdashli oborot bilan ifodalangan.

O'zbek tili grammatikasida, odatda, so'z birikmasi nominativ funksiya bajaradi, yolg'iz o'zi gapni tashkil qilmaydi degan fikr tilshunoslar tomonidan e'tirof etiladi. Lekin tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, muayyan diskursiv vaziyatda, xususan dialogik nutqda qo'llanadigan to'liqsiz gaplarda so'z birikmasi ham va hatto birgina so'z ham gapga teng keladi, ya'ni predikativlik va intonatsion tugallikka ega bo'ladi.

1) - *Xo'sh, Tarloningiz kim?*

- *Bizning otimiz-da, kapitan katta* (Tog'ay Murod «Ot kishnagan oqshom»).

*Bizning otimiz-da, kapitan katta*

2) - *Bir soat tanaffus!* - dedi kattalar.

*O'tirib-o'tirib, qornim ochqadi. Choyxonaga qarab yurdim.*

*Men choy ichib qayta berdim, odamlar suddan chiqib kela berdi.*

*Demak, sud sob bo'пти, endi sud oqibatini so'rayin, dedim* (Tog'ay Murod «Ot kishnagan oqshom»).

Birinchi jumlada *bizning otimiz* so'z birikmasi to'liqsiz gapga teng bo'lib, *kapitan katta* undalmasi gap bo'lagi hisoblanmaydi. Ikkinchi jumlada *bir soat tanaffus* birikmasi kuchli intonatsion ohang vositasida gapga aylangan. Yozuvdagi undov belgisi gapga qat'iy tugallanganlik tusini beradi.

*Kapitan katta menga yuzlandi.*

- *Shularmi?* – dedi.

- *Shular, ha, shular,* – dedim.

- *Olib keting bularni!* – dedi kapitan katta.

*Militsioner bo'zbolalarni haydab ketdi* (Tog'ay Murod «Ot kishnagan oqshom»).

*Olib keting bularni!* gapi *bularni olib keting* so'z birikmasiga teng bo'lib, inversiyaga uchragan, ya'ni hokim so'z va tobe so'zning tartibi o'zgargan. Odatda, ism+fe'l shaklidagi boshqaruvli birikmalarda so'z tartibi o'zgarsa ham, semantik ma'no o'zgarmaydi: *olib keting bularni* –



*bularni olib keting*. Aniqlovchi+aniqlanmish shaklidagi birikmadagi soʻz tartibi oʻzgarganda esa soʻz birikmasining grammatik mohiyati oʻzgarib, gapga aylanadi: *shirin ovqat – ovqat shirin*.

Birikma komponentlarining koʻchma maʼnoda qoʻllanishi gapning pragmatik mazmunini oʻzgartiradi.

- *Qalay, ov tuzukmi? – dedi nonushta qilgani oʻtirishganda.*

- *Zoʻr, - jilmaydi Abdulla.*

- *Aslida ishimni tashlab ovchilikka oʻtib qoʻya qolsam ham boʻlar ekan.*

- *Hali ham traktor haydaysizmi?*

- *Sal balandroqdan kel. Hamma traktorchilarning boshligʻiman hozir* (Oʻ.Umarbekov). Diskursiv vaziyat talabi bilan *sal balandroqdan kel* toʻliqsiz gapining kesimi va uning kengaytiruvchisi vazifasida kelgan birikma komponentlari semantik muvofiqlashuv asosida koʻchma maʼnoda qoʻllangan va *balanddan kelmoq* tarzidagi frazemaga yaqin tushuncha ifodalovchi til birligiga aylangan.

«Oʻzaro sintaktik munosabatga kirishayotgan leksemalarning mazmuniy muvofiqligi qonuniyati sintagmatik munosabatga kirishayotgan har ikki leksema mazmuniy mundarijasida bir xil semaning mavjud boʻlishini taqozo qiladi. Oʻzaro mazmuniy bogʻlanuvchi ikki leksemada takrorlanuvchi bir xil semaning mavjud boʻlishi ularning shu sema asosida sintagmatik munosabatga kirishish imkoniyatini taʼminlaydi<sup>1</sup>». Shu nuqtayi nazardan, *kelmoq* yoʻnalish feʼli bilan «*baland*» sememasi tarkibidagi «*joy*» semasi muvofiq tarzda *baland (joy)dan kelmoq* soʻz birikmasini hosil qila oladi. Biroq yuqoridagi matnda *ovchilikka oʻtib qoʻya qolsam, traktor haydaysizmi, traktorchilarning boshligʻiman* soʻz birikmalarining mantiqiy uygʻunligi hamda *baland* sememasining «*yuqori*» semasi qabul qiluvchi ongida «*balandroq (yaʼni, yuqoriroq) mansabni aytaver*» pragmemasini shakllantiradi.

Oʻzbek tilida *poʻstagini qoqmoq, oʻzini taroziga solmoq, burnini tiqmoq, yostigʻini quritmoq, oʻzini laganga solmoq, qovun tushirmoq, ilonning boshini qoʻzgʻamoq, qulogʻiga quymoq, (qulogʻiga) lagʻmon osmoq, qoʻlga tushmoq, qoʻldan ketmoq, qoʻlning kiri, tilga olmoq, tildan qolmoq, yumshoq supurgi, ochiq koʻngil* kabi koʻplab frazeologik birikmalar borki, ular shaklan grammatik jihatdan erkin birikmaga teng keladi. Biroq semantik nuqtayi nazardan esa ularning ayrimlari erkin birikma sifatida qoʻllansa, ayrimlari faqat koʻchma maʼnoda qoʻllanadi.

<sup>1</sup> Nurmonov A. Tanlangan asarlar Uch jildlik. III jild. – T.: Akademyashr, 2012. – B. 39-126.

**O‘z ma’noda (so‘z birikmasi):** *Gilamni yumshoq supurgida tozalash kerak.*

**Ko‘chma ma’noda (frazologik birikma):** *Ja yumshoq supurgi ediyu, endi botir bo‘p qoptimi?* Birinchi jumlada *yumshoq supurgi* birikmasidagi har bir leksema mustaqil ma’no anglatib, alohida so‘roqqa javob bo‘ladi: *yumshoq* (qanday?) *supurgi* (nima?) va mana shu ikki leksema o‘zaro bitishuv yo‘li bilan tartib va ohang vositasida bog‘langan. Ikkinchi jumlada esa frazema sifatida yaxlit tushuncha ifodalab, leksik birlik sifatida bitta so‘roqqa javob bo‘ladi: *yumshoq supurgi* (qanday?) *odam.*

Odatda, bunday iboralar so‘zlashuv va badiiy uslubda keng qo‘llanib, kinoya, qochirim, so‘z o‘yini, hazil-mutoyiba maqsadlarida foydalaniladi. Masalan, *Qovun bilan siylab qovun tushirdi* jumlasida qovun so‘zi ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qo‘llanib, so‘z o‘yini hosil qilingan. *Qovun bilan siylab* birikmasi erkin birikma sifatida *odamlarga qovun yedirdi, qovun tushirdi* frazeologik birligi esa ko‘chma ma’noda *noo‘rin harakat qildi* pragmemalarini ifodalagan. *Ana shunaqa, bolalarim, Pul - qo‘lning kiri, hunarning esa turgan-bitgani zar, deb shunga aytadilar, Sizlar ham topgan boyliklaringizga (ilohim, Xudo bersin) mahliyo bo‘lib yuravermay, yoshligingizdan kasb-hunarli bo‘lishga harakat qiling.* (Internetdan). Jumladagi *qo‘lning kiri* birikmasi «qadrsiz» ma’nosini anglatadi. A.Mamatov, B.Boltayevalarning «Frazologik birliklarning lingvomadaniy va semantik-pragmatik tadqiqi» monografiyasida *bozori chaqqon, yuragi keng, aqli butun, beti qattiq* kabi frazeologizmlar so‘z birikmasiga teng birliklar tarkibida berilgan.

Bunday birliklar gap kengaytiruvchisi+kesim qolipi<sup>1</sup>da bo‘lganligi sababli gapga teng keladi. So‘z birikmasidagi tobe so‘z oldin, hokim so‘z keyin kelishi tamoyiliga ko‘ra, bu so‘zlarning tartibi o‘zgartirilsa, ya’ni aniqlovchi+aniqlanmish shaklida kelsagina so‘z birimasiga teng bo‘la oladi: *yuragi keng* (gapga teng) – *keng yurak* (so‘z birikmasiga teng).

So‘z birikmasi – bu so‘zning sintaktik valentligi asosida gapdan mustaqil mavjud bo‘lsa-da, maxsus sintaktik birlik sifatida jumla tarkibida ishlatiladi. Nutqiy vaziyat talabi bilan so‘z birikmasi quyidagicha o‘zgarishlarga uchrashi mumkin:

a) kommunikativ funksiya talabi bilan so‘z birikmasi elementlarining tartibi o‘zgaradi, lekin hokim-tobe munosabat saqlanib qoladi: *Tegma*

---

<sup>1</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., va b. Ko‘rsatilgan manba. – B. 121.

*menga, tegma menga! Bu uyda uning iziga ham o‘rin yo‘q. Izlarini qirib tashlayman! Sidirib tashlayman!..*

b) qo‘shma gap tarkibida birikma to‘liqsiz ishlatilishi mumkin: hokim yoki tobe komponent tushirib qoldiriladi:

1. Kitob kerak bo‘lsa, menikini ola qol. *Menikini ola qol* to‘liqsiz gapida *mening kitobim* birikmasi qisqarib, hokim va tobe qism birgina *meniki* so‘zida ifodalangan, ya’ni hokim so‘z tushib qolgan. Qo‘shma gapning birinchi qismidagi kitob so‘zi ikkinchi qismidagi meniki olmoshi bilan semantik va mantiqiy jihatdan muvofiqlashib, «*mening kitobimni ola qol*» pragmemasini yuzaga chiqarmoqda.

2. *O‘qimoq* fe’li bir necha xil valentlikka ega – kitob (*nimani?*) *o‘qimoq*, *ravon* (*qanday?*) *o‘qimoq*, *har kuni* (*qachon?*) *o‘qimoq*, *gazetadan* (*nimadan?*) *o‘qimoq* kabi. Lekin ayrim gaplarda tobe qism ifodalanmasligi mumkin: *Bahodirning doktorlarnikidan-da xunuk ilonizi xatiga ko‘zim tushdi. Zo‘rg‘a o‘qidim. Zo‘rg‘a o‘qidim* to‘liqsiz gapidagi obyektiv aktant xat ekanligi oldingi gapdan anglashiladi va adresat «*xatni zo‘rg‘a o‘qidim*» pragmemasini «qabul qiladi».

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, so‘z birikmasi – bu so‘zning sintaktik valentligi asosida yuzaga kelgan nominativ sintaktik birlik. Grammatik jihatdan lisoniy qolipga va semantik ma’noga ega sintaktik qurilma. So‘z birikmasi kommunikativ birlik emas, lekin gap tarkibiga kiradi va kommunikativ o‘zgarishlarga uchrashi mumkin.

## **2.2. Sodda gaplarning grammatik pozitsiyasida lingvopragmatik belgilar**

Gap kishilar orasidagi asosiy muloqot vositasi – kommunikativ nutqiy butunlik sifatida axborot almashinuv jarayonida sintaktik qurilma shaklida namoyon bo‘ladi. Insonlar o‘zaro fikr almashish, bayon qilish va anglashda gapdan foydalanadilar. Muayyan tilning virtual bazasi nutqiy gap (jumla)larda aktuallashadi. Gap so‘zlovchi uchun fikr ifodalash, bayon qilish, tinglovchi uchun esa uzatilayotgan ma’lumotni qabul qilish, fikr anglash vositasidir. «...gap inson nutqining nisbiy tugal fikrni ifodalaydigan voqelikni aks ettiradigan va shunga munosabatni bildiradigan, grammatik jihatdan shakllangan eng kichik bo‘lagidir. U ham fikriy, ham grammatik jihatdan bir butunlikka egadir<sup>1</sup>».

Tilshunoslik fanining keyingi yuz yillik davrida jahon miqyosidagi taraqqiyoti natijasida gapning ifoda, mazmun va ma’no qatlamlariga ega

<sup>1</sup> G‘ulomov A.G‘. Sodda gap (hozirgi zamon o‘zbek tili kursidan materiallar). O‘zFA, – T. 1955. – B. 9.

sintaktik yaxlitlik sifatidagi mavqeyi borasidagi serqirra paradigmatic tadqiq doirasi shakllandi va shu asosda matn tarkibidagi imkoniyatlari o'rganila boshlandi.

«Gap sintaktik yaxlitlik, bu uning grammatik shakllanganligi, tarkibiy uzvlari bir butunlik holiga kelganligi bilan izohlanadi. Demak, gapda bir necha jihat birlashgan bo'ladi. Birinchi jihat gapning moddiy qobig'i, bu uni tashkil etuvchi so'z va grammatik shakllar. Masalan, aksariyat gapda kesimlik ko'rsatkichlari bilan shakllangan atov birligi (kesim)ning bo'lishi shart. Ikkinchi jihat ana shu moddiy qobiqqa singdirilgan aqliy mahsul – fikr – axborot. Uchinchi jihat esa so'zlovchining voqelikka munosabati, nutq vaziyati. Bu uch jihat nutqda uchlikni – sintaktika, semantika va pragmatika birligini tashkil etadi<sup>1</sup>».

Antropotsentrik tamoyillar negizida «gap lisoniy sathda» va «gap nutqiy sathda» tushunchalari ajratila boshlandi<sup>2</sup>. Mana shu tamoyil asosida «O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis.» va «O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi» darslik va qo'llanmalari yaratildi<sup>3</sup>.

«Ifoda maqsadiga ko'ra gapning turlanishi sof nutqiy hodisa. So'zlovchi nutq jarayonida fikr ifodalash bilan birga, ma'lum bir maqsadni ko'zlaydi ham<sup>4</sup>». Shu tariqa, gaplar ifoda maqsadiga ko'ra darak, so'roq, buyruq va istak gaplarga bo'linadi.

Fikrimizcha, Sh.Rahmatullayev ifoda maqsadiga ko'ra bo'linish nutqiy hodisa ekanligini nazarda tutgan holda bu turlarga nisbatan gap emas, jumla atamasini qo'llaydi: «Jumlalarning ifoda maqsadiga ko'ra ma'no turlari ifodalanayotgan axborot, so'roq, buyruq kabi umumiy grammatik ma'nolar asosida ajratiladi<sup>5</sup>».

Har qanday gapda nutq egasining kommunikativ maqsadi aks etar ekan, nutqiy faoliyat mahsuli bo'lgan gap turlarining har biri pragmatik tahlilga muhtoj bo'ladi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab ko'proq gapning mazmuniy jihati va ana shu mazmunni yuzaga chiqaruvchi omillarga e'tibor qaratila boshlandi. Bu esa lingvistik nazariya rivojiga turtki berib, kontekstning

---

<sup>1</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., va b. Ko'rsatilgan manba. – B. 306.

<sup>2</sup> Bu haqda qarang: Qurbonova M., Sayfullayeva R., Boqiyeva G., Mengliyev B. O'zbek tilining struktural sintaksisi. O'quv ko'llanmasi. – T., 2004. – 48 b.; Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., YUnusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: 2009. – 416 b.

<sup>3</sup> Bu haqda qarang: Mahmudov N., Nurmonov A., Ahmedova A. Solixo'jayeva S. O'zbek tili mazmuniy sintaksisi. – T.: Fan, 1992. – 298 b.; Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis) – T.: O'qituvchi, 1995. – B. 23.

<sup>4</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., va b. Ko'rsatilgan manba. – B. 359.

<sup>5</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – T.: Universitet, 2006. – V. 387.

mazmuniy doirasida inson omili, sintaktik qurilma ifodasi va jumla mazmuni o'rtasidagi mantiqiy muvofiqlik/nomuvofiqlik muammosi masalasi o'rtaga qo'yildi. Shu tariqa, shakl va mazmun munosabatini o'rganishning «yangi pog'onaga ko'tarilishi, til va nutqning ma'no tomoniga umumiy burilishi, nutq faoliyatining pragmatik komponentiga e'tiborning kuchayishi, gapga o'zining maxsus ma'nosi bo'lgan til belgisi sifatida qarashning vujudga kelishi hamda gaplarning mazmuniy ekvivalentligi tushunchasiga tayanadigan sintaktik transformatsiya nazariyasining vujudga kelishi»<sup>1</sup> davri boshlandi.

**Darak gaplar.** Ma'lum voqea-hodisa, belgi-xususiyat haqida tasdiq yoki inkor yo'li bilan xabar beruvchi gaplarga **darak gaplar** deyiladi. Darak gaplar uslubiy jihatdan neytral bo'lib, barcha uslublarda ifoda maqsadining asosiy turi sifatida faol qo'llanadi.

Darak gaplar darak-xabar birlashtiruvchi semasi bilan mazmuniy bir butunlikni hosil qilsa ham, lekin bu butunlik o'zaro farqlanuvchi bir necha semalarni o'z ichiga birlashtiradi. N.Mahmudov va A.Nurmonovlar darak gap mazmunini quyidagi semik variantlar orqali namoyon bo'ladi deb hisoblaydilar:

- 1) xabar semasi: *Toshkentda Xalqaro kinofestival ish boshladi.*
- 2) orzu-umid semasi: *Bu yil o'g'limni uylantirmoqchiman;*
- 3) ishonch semasi: *Akam yordam beradi;*
- 4) maslahat semasi: *Avval davolanib olishingizni maslahat beraman;*
- 5) istak semasi: *Filolog bo'lishingni xohlayman;*
- 6) tashviq semasi: *To'garagimiz sizga yoqadi;*
- 7) mavjudlik semasi: *Anhorda suv to'lib oqmoqda;*
- 8) atash semasi: *Bular bari seniki;*
- 9) ko'rsatish, ishora (deyktik) semasi: *Maktabimiz – shu va boshqalar*<sup>2</sup>.

Bizningcha, ushbu tasnifdagi orzu-umid (2) va istak (5) semalari istak gaplar turiga kiritilishi kerak edi. Bu holat darak va istak gaplar mantiqan bir-biriga yaqin ekanligidan dalolat beradi.

Darak gapda, odatda, muayyan so'z tartibiga rioya qilinsa-da, uslubiy talab bilan gap bo'laklarining o'rni almashishi (inversiya) yoki tushirib qoldirilishi (ellipsis) mumkin.

---

<sup>1</sup> Mahmudov N., Nurmonov A., Ahmedova A. Solixo'jayeva S. O'zbek tili mazmuniy sintaksisi. – T.: Fan, 1992. – B. 26.

<sup>2</sup> Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis) – T.: O'qituvchi, 1995. – B. 28.

A.G‘ulomov va M.Asqarova darak gaplarda intonatsion va sintaktik belgilar kuchli ekanligini alohida ta’kidlaganlar:

1. Gapning bosh qismida ohang ko‘tarilib, oxirida pasayadi. Bu darak gap intonatsiyasi deyiladi. Darak gaplar bir-biridan to‘la pauza bilan ajralib turadi.

2. Gap bo‘laklari, odatda, normal tartibda o‘rinlashgan bo‘ladi.

3. Darak gapning kesimi buyruq maylidagi fe‘l bilan ifodalanmaydi, so‘roq, undov va buyruq belgilaridan holi bo‘ladi.

4. Darak gaplar, albatta, tasdiq yoki inkor shaklida bo‘ladi<sup>1</sup>.

**So‘roq gaplar.** So‘zlovchining o‘ziga noma’lum bo‘lgan biror narsa, voqea-hodisa haqida ma’lumot olish istagini, zaruriyatini ifodalovchi gap so‘roq gap deyiladi. So‘roq gaplar, asosan, dialogik nutqqa xos.

- *Siz marhum Shomatov Rustanning xotini ekanligingizni tasdiqlaysizmi?*

- *Hozir turgan uylaringga qachon ko‘chib kelgansizlar?*

- *Sentyabrning oxirida.*

- *Ungacha qayerda turgansizlar?*

- *Qaynonamnikida. Pskentda.*

- *Hovlinglar kattamidi?*

- *Nima desam ekan... El qatori hovli...*

- *Grajdanka Shomatova, ayting-chi, nima uchun Pskentdagi hovlida turmay, Toshkentga ko‘chib keldingizlar? Qaynonangiz bilan orangiz buzildimi?*

- *Oyimlar bilan ahil edik.*

- *Ovsiningiz bilan-chi?*

- *U kishi bilan ham. (O‘.Hoshimov «Tushda kechgan umrlar»)*

Xususan, sud-mahkama diskursida aybdor yoki guvohlar bilan suhbat (tergov jarayoni)da ko‘rilayotgan masalaning har bir detalini aniqlashtirish maqsadida shu tarzda davomli savol-javob olib boriladi.

*To‘yinglar qachon bo‘lgan?*

- *Shu yili yozda.*

- ***Aniqrog‘i?***

- *Sakkizinchi avgust kuni. (O‘.Hoshimov «Tushda kechgan umrlar»)*

Bunday hollarda savol kontekstdan ma’lum bo‘lgani sababli to‘liqsiz so‘roq gaplar ham qo‘llaniladi.

- *Hoy opa, unaqa dema. Nizom pochchamiz-ku.*

---

<sup>1</sup> G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Sintaksis). – T.: O‘qituvchi, 1965. – B. 54-61.



- *Hali shunaqami? Unaqa bo'lsa hu anavi bog'dan shaftoli o'g'irlab kelsang, pochcha qilamiz.*

*Adolat uni jo'rttaga ermak qildi.*

- *Pochchaning yuraklari sal quyunchasigarroq.*

*Nizomjonning jahli chiqib ketdi.*

- *Opchiqolmaymanmi? Opchiqolmaymanmi? Mana ko'rasanlar. U shunday dedi-yu, g'irillagancha bog' tarafga qarab chopdi (S.Ahmad, «Ufq» romani).*

Diskursiv vaziyat taqozosi bilan hayajonlangan bola so'roq gap shaklida «olib chiqqa olaman» mazmuni ifodalangan bir tasdiqlovchi jumlaning takror qo'llangan.

Badiiy matnda qahramonlar ruhiyatini ochib berish maqsadida ichki monolog berilgan o'rinlarda so'roq gaplar ketma-ketligi o'ziga xos uslubiy vazifa bajaradi.

*O'z oyog'i bilan uydan chiqib ketib eri yog'och oyoqqa suyanib kirib keldi. O'g'li nima bo'ladi? Omonmikan? Butun qaytarmikan? Shu uylarda to'y-tomosha bo'larmikan? Bolasini kuyovlik sarposida ko'rarmikan?* (S.Ahmad, «Ufq» romani). Matndagi so'roq gaplar kimgadir, qandaydir adresatga qaratilmagan bo'lib, onaning sog'inchi iztiroblari, o'g'li haqidagi tashvishli o'ylari, orzu-niyatlari o'z-o'ziga so'roq tarzida ifodalangan.

**Buyruq gaplar.** Buyruq gaplar ham nutq egasining pragmatik maqsadini ifodalashiga ko'ra pragmatiklikning o'rganish obyekti bo'la oladi. Ma'lumki, buyruq gaplar buyruq, do'q, yalinish, iltimos, maslahat, nasihat kabi ma'nolarni ifodalovchi alohida gap turidir. R.Sayfullayeva va boshqalar hammuallifligidagi qo'llanmada buyruq gaplarning 6 xil, G'.Abdurahmonov<sup>1</sup>da o'nga yaqin ma'no turlari ajratiladi. Buyruq gaplarning grammatik va uslubiy xususiyatlari tahlil etilgan bo'lsa-da, ularning semantik-sintaktik stukturasi, pragmatik jihatlari maxsus o'rganilmagan.

Buyruq gapning adresatga yetkazmoqchi bo'lgan axborotining mohiyatiga ko'ra jumlaning semantik mazmuni o'zgaradi. Odatda, duo iboralarida fe'lning buyruq mayli qo'llanadi, lekin mazmunan so'raladi, iltijo qilinadi: *Joynamoz ustida yuziga fotiha tortayotib, baralla tavallo qiladi: - Ey poki parvardigor!.. Yakkayu yagona bolam haqqi, iltijo qilaman. Otasining gunohidan o't. Mahshar kunida do'zax azobidan o'zing xalos et!* (O'.Hoshimov «Tushda kechgan umrlar», 17-bet)

---

<sup>1</sup> Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi (Sintaksis), – T.: O'qituvchi, 1996. – B. 18.



Gaplarni qisqartirish hodisasi, ko‘pincha jonli so‘zlashuvda, dialoglarda uchraydi. Dialoglar so‘roq-javobdan iborat bo‘lganda, javob to‘liqsiz gapdan iborat bo‘lib, unda shu so‘roqqa javob bo‘luvchi – fikriy jihatdan birinchi o‘rinda turuvchi so‘zgina aytiladi. Mavjudlik bildiruvchi kesimlar, kesimi buyruq fe‘ldan bo‘lgan gapdagi egalar ko‘pincha yashirinadi<sup>1</sup>. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, badiiy uslubda so‘zlashuv uslubiga xos ana shu usuldan personajlar nutqida keng foydalaniladi. Xususan, ikkinchi shaxsga qaratilgan buyruq maylidagi fe‘l-kesimdan iborat to‘liqsiz gaplar, ko‘pincha, takror holda qo‘llanib, ifodadagi emotsionallikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

- *Zararsizlantir!* - *BTR panasida yotgan kapitan bo‘ynini ichiga tortib buyurdi:* - *Zararsizlantir!* (O‘.Hoshimov «Tushda kechgan umrlar», 50-bet)

*Torini g‘ilofga tiqa boshlagan sozandaning oldiga yugurib bordi.*

- *Chal!* – *dedi g‘ayritabiiy tantana bilan.* - *Chal deyman!* «Lazgi»ni *chal!* (O‘.Hoshimov «Tushda kechgan umrlar», 11-bet)

Birinchi vaziyatda fe‘l-kesim yolg‘iz takrorlangan bo‘lsa, ikkinchi vaziyatda kesim o‘z kengaytiruvchilari bilan birga takrorlangan.

**Istak gaplar.** Sintaktik sathga oid til birliklari borasidagi nazariy tushunchalarning rivojlanishi natijasida birinchi marta N.Mahmudov va A.Nurmonovlarning «O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis)» nomli o‘quv qo‘llanmasida gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari qatorida istak gaplar ham mavjudligi xususida fikr yuritildi. Istak gaplar so‘zlovchining istak-xohishini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday gaplar so‘zlovchining axborot berishi belgisiga ko‘ra darak gaplar bilan umumiylikni hosil qiladi. Lekin til sathida o‘zining alohida modeli mavjudligi va nutqda konnotativ ma‘no ma‘lum axborot berish bilan birga, so‘zlovchining istagi, xohishining ifodalanishiga ega bo‘ladi. Istak gaplar so‘zlovchining istagini ifodalaganligi uchun ham u kelgusida bo‘lishi orzu qilinayotgan voqea-hodisa, belgi-xususiyat haqida axborot beradi<sup>2</sup>.

Shuni aytib o‘tish kerakki, an’anaviy tilshunoslikda istak gaplar ham buyruq gap tarkibida o‘rganilgan, tasniflash ham mana shu asosda shakllantirilgan. O.Dadajonova istak gaplar o‘z davrida Abdurauf Fitrat tomonidan tilak gaplar sifatida ajratilib, izohlanganini ta’kidlaydi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> G‘ulomov A.G‘. Ko‘rsatilgan manba. – B. 87.

<sup>2</sup> Mahmudov N, Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis) – T.: O‘qituvchi, 1995. – B. 31.

<sup>3</sup> Dadajonova O. Istak gaplarning pragmatik xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti, – № 6. 2017. – B. 61-65.

D.Qo‘lboyeva darak, so‘roq, buyruq va istak gaplarni farqlashda so‘zlovchining ifoda maqsadini namoyish etishga yordam beruvchi bosh mezon semantik tamoyil ekan, istak semasi asosida birlashuvchi barcha gap ko‘rinishlarini bir turga – istak gaplarga birlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi<sup>1</sup>.

### **2.3. Murakkablashgan sodda gaplarning grammatik pozitsiyasida lingvopragmatik belgilar**

**Undalmaning lingvopragmatik xususiyatlari.** Pragmalingvistika turli sathlarga oid til birliklarining nutqiy muloqot jarayonidagi tadqiqiga yangicha munosabatni talab qilmoqda. Kommunikantlar nutqiy muloqot jarayonida ongli tafakkur orqali bir-birlarini anglyadilar. So‘zlovchi nutqiy vaziyatda o‘z ongidagi umumiy bilimlar tizimidan voqelikka xos xususiy belgilarni tanlaydi va ular orqali kommunikativ niyatini bayon qiladi. Nutq adresant maqsadini adresatga tanishtiruvchi asosiy omil sifatida nutqiy ifodani shakllantiruvchi (adresant) va uni qabul qiluvchi (adresat) o‘rtasidagi muloqot vositasi, ya’ni murakkab va o‘ziga xos tashkil etilgan ongli faoliyat shaklidir. Muloqot jarayonidan, albatta, ma’lum bir maqsad ko‘zlanadi. Maqsad esa pragmatik omillarning lisoniy hodisalar bilan uyg‘unlashuvi natijasida ro‘yobga chiqadi. Shu ma’noda «lingvistik pragmatika tilshunoslikning yangi sohasi sifatida nutq subyektining ichki maqsadi bilan bog‘liq yashirin propozitsiyalarni o‘rganadi<sup>2</sup>».

«...gap tahlilida tor ma’nodagi sintaktik doiradan chiqish va ushbu hodisaning diskursiv-pragmatik tabiatini o‘rganish lingvistik tadqiqotlarni yangi pog‘onaga olib chiqdi<sup>3</sup>». Shu tariqa sintaktik qurilmalarning matn pragmatikasidagi o‘rni va rolini tadqiq qilishga ehtiyoj kuchaydi.

Ma’lumki, tarkibida undalma, kirish va kiritmalar, ajratilgan bo‘laklar, undovlar qatnashgan gaplar murakkablashgan sodda gaplar hisoblanadi. Bunday gaplar ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan murakkablashadi. Undalma, kirish va undovlar ifodalagan munosabat gap orqali ifodalanayotgan sintaktik vaziyat bilan so‘zlovchi o‘rtasidagi munosabatdir. Bunday munosabat «subyektiv munosabatni ifodalaydi<sup>4</sup>».

---

<sup>1</sup> Qo‘lboyeva D. O‘zbek tilida istak gaplarning ifodalanishi xususida // O‘zbek tilshunosligi: taraqqiyot tamoyillari, ilmiy muammolar, istiqboldagi vazifalar mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T., 2013. – B. 131-133.

<sup>2</sup> Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2013.– B. 47.

<sup>3</sup> Safarov Sh. Tilshunoslikning navbatdagi vazifalari // Xorijiy filologiya. – № 3. 2016. – B. 48-51.

<sup>4</sup> Mahmudov N., Nurmonov A. Ko‘rsatilgan manba. – B. 98.

Murakkablashgan sodda gaplardagi bunday munosabat gapning mazmunini kengaytiradi. Undalmalar undash munosabatini, kirishlar modal munosabatlarni ifodalasa<sup>1</sup>, undovlar sezish va ta'sirlanish munosabatini ifodalaydi<sup>2</sup>.

M.Qosimova undovlarni ham subyektiv munosabat bildiruvchi introduktiv aloqa<sup>3</sup>ga kirishuvchi, ya'ni sintaktik aloqaga kirishmaydigan, faqat mazmuniy tomondan bog'lanadigan birliklar qatorida tadqiq qiladi. A.Nurmonov va A.R.Sayfullayevlarning bu boradagi ishlarida masalaga to'g'ri yondashilganini e'tirof etgan holda, yana bir lisoniy birlik – undovlar e'tibordan chetda qoldirilganini ta'kidlaydi. Bu o'rinda undov so'zlarning undalma tarkibida kelishi nazarda tutilmaydi. Undov so'zlar, ko'pincha, gapda kirish so'zga o'xshash vazifa bajarib, undov bo'lib keladi. Bunday undovlar gap mazmuniga emotsional bo'yoq berib, uning pragmatik holatini o'zgartirishi mumkin<sup>4</sup>. Undalmalar o'zining leksik-grammatik tabiati bilan nutqiy vaziyat mazmuniga ta'sir eta oladigan kuchli til birligi hisoblanadi. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni bildiradigai so'z yoki so'z birikmasi undalma deyiladi. A.R.Sayfullayevning «Hozirgi o'zbek adabiy tilida undalma» risolasida undalmaning umumiy xarakteristikasi, leksik-semantik xususiyati, morfologik-sintaktik ifodalanishi, strukturasi batafsil bayon etiladi, shuningdek, undalmaning gapdagi o'rni, intonatsiyasi, tarixiy taraqqiyoti, uslubiy tabiati, ajratilgan va uyushgan undalmalar haqida ham so'z yuritiladi. Risolaning e'tiborli jihati shundaki, undalma gap bo'laklari – ega, kesim, to'ldiruvchi, hol va aniqlovchining ekvivalenti bo'lib kelishi bilan grammatik xususiyatga ham ega ekanligi ta'kidlanadi<sup>5</sup>.

Undalmaning gap ichida mavjudligi, ya'ni sistemaning ajralmas bir uzvi sifatida, A.Sayfullayev va M.Qosimovalarning fikrlarini umumlashtirgan holda undalma, kirish va undovlarni «gapning uchinchi darajali bo'laklari» tarzida tasniflanishi tarafdorimiz.

Undalma gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi, lekin so'zlovchining undash munosabatini, tinglovchi subyektini, badiiy matnda esa tinglovchi e'tibori qaratilmoqchi bo'lgan predmet va tushunchalarni ham ifodalaydi. Undalmaning qanday obyektiv vaziyatni ifodalash maqsadida qo'llanganini esa faqat nutqiy vaziyatning diskursiv mazmuni

---

<sup>1</sup> Mahmudov N., Nurmonov A. Ko'rsatilgan manba. – B. 99.

<sup>2</sup> Qosimova M. Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (Tog'ay Murod asarlari asosida): Filol. fan. nomz. ... diss.avtoref. – T., 2008. – 23 b.

<sup>3</sup> Mahmudov N., Nurmonov A. Ko'rsatilgan manba. – B. 98-99.

<sup>4</sup> Qosimova M. Ko'rsatilgan manba. – B. 15.

<sup>5</sup> Sayfullayev A. Hozirgi o'zbek adabiy tilida undalma. – T.: Fan, 1968. – B. 70-71.

belgilaydi. Shu jihatdan undalmalar ijobiy, salbiy, neytral qobiqlarda hurmat, erkalash, kesatiq, do‘q-po‘pisa, qarg‘ish, mensimaslik, xushomad kabi qator semalarni ifodalashi mumkin.

Undalmalar og‘zaki so‘zlashuvda, badiiy va publitsistik matnlarda faol qo‘llanadi. Ularni qo‘llash ekspressivlikni sintaktik usul bilan ifodalash imkoniyatini ham beradi.

M.Yo‘ldoshev undalmalarni murojaat birliklari deb ataydi: «Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyatida – nutq jarayonida keng qo‘llaniladigan, o‘zaro aloqa aralashuvga faol xizmat qiladigan, so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan, o‘zida turli modal ma’nolarni tashiydigan o‘tkir, ta’sirchan vositadir. Murojaat birliklaridan nutqda tinglovchi e’tiborini tortish, xitob qilish, undash kabi maqsadlarda foydalaniladi. Bunday birliklarda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi yaqinlik, hurmat, ishonch, masofa (subordinatsiya), hurmatsizlik, ishonchsizlik kabi kommunikativ munosabatlar ham ifodalangan bo‘ladi. Undalmaning leksik-grammatik xususiyatlaridan biri o‘zi ifodalayotgan shaxs yoki predmetni tavsiflashi ham mumkin<sup>1</sup>.

I.Rasulov undalmalarni 2 guruhga ajratadi:

1. Stilistik neytral undalmalar.

2. Baho xarakteristikasi ifodalovchi undalmalar<sup>2</sup>.

Ko‘pincha shaxsning ismi, familiyasi, unvoni, qarindoshlik munosabatini bildiruvchi so‘zlar neytral ma’no ifodalab kelishi mumkin.

- Qiziqmisan, **Rashid**, nimasidan xijolat tortasan? Undan ko‘ra, o‘zingdan gapir (U.Hamdani, «Muvozanat»).

- **Amma**, Robi opam qachon keladila? (O‘.Hoshimov, «Ikki eshik orasi»)

- **Dada**, menga nima olib keldingiz? (Og‘zaki so‘zlashuvdan)

Rasmiy matnlarda, asosan, neytral undalmalardan foydalaniladi:

**Hurmatli senatorlar!** Yuqori palata ishining samaradorligini oshirish maqsadida yaqin va uzoq istiqbolda quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirish zarur, deb hisoblayman. (O‘zbekiston Prezidenti nutqidan)

---

<sup>1</sup> Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – T.: Fan, 2006. – B. 21.

<sup>2</sup> Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – T.: O‘qituvchi, 1983. – B. 189.

Baho xarakteristikasi ifodalovchi undalmalar emotsional– ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lib, faqat nutq adresatini ifodalamay, uni xarakterlaydi, unga munosabat bildiradi<sup>1</sup>.

Bunday undalmalar tabiatan salbiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan so‘zlar, metaforik leksemalar, subyektiv baholi so‘zshakllar, vulgarizmlar, varvarizmlar, undalmalarning takrorlanishi kabi til birliklari orqali hosil bo‘ladi.

Metaforik undalma:

- *Men senga biron yomon gap gapirdimmi, **it** !!!* (Tog‘ay Murod «Ot kishnagan oqshom»)

*Ko‘zimni ochsam, Hoji buvi jilmayib turibdi.*

- *Nega tishlaysan, **kuchukvoy**? – dedi boshimni silab* (O‘tkir Hoshimov, «Dunyoning ishlari»).

Birinchi jumlada «it» so‘zi metafora asosida salbiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lib, tinglovchiga nisbatan nafratni ifodalasa, ikkinchi jumladagi «kuchukvoy» so‘zi bolaga nisbatan qo‘llanib, erkalash ma‘nosini ifodalagan.

Vulgarizm asosidagi undalma:

*«Piqillama-ye-ye, **enag‘ar!** Nima, men yeb, sen quruq qoldingmi?»* (Tog‘ay Murod, «Otamdan qolgan dalalar»)

Varvarizm asosidagi undalma:

*«Menga qara, **churban!** Tiling bormi? Bo‘lsa, gapir?»* (Tog‘ay Murod, «Otamdan qolgan dalalar»)

- *Muborak bo‘lsin, **giroy!***

- *Iya, poson bo‘p ketibsiz-ku! Do‘ppingizni bizga soting, **giroy!*** (O‘.Hoshimov, «Ikki eshik orasi»)

Bu misollarda ham «*churban*» so‘zi pastga urish, mensimaslik, haqorat ma‘nosidagi salbiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lsa, «*giroy*» varvarizmi «*geroy*» (qahramon) so‘zining so‘zlashuv nutqiga xos buzilgan varianti bo‘lib, yosh bolaga nisbatan erkalash ma‘nosida qo‘llangan.

Qisqartirilgan ism shaklidagi undalma:

Og‘zaki so‘zlashuv nutqida ismlarni qisqartirib, chala aytish usuli mavjud bo‘lib, erkalash, o‘zaro yaqinlik, o‘ziga yaqin olish ma‘nolarini ifodalaydi. Ijodkorlar badiiy matnda bu holdan personaj nutqida uslubiy vosita sifatida foydalanadilar.

- *Ha, **Nilu**, yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi? – dedim erkalab.*

---

<sup>1</sup> Shomaqsudov A. va b. Ko‘rsatilgan manba. – B. 189.

- *Bugun man tug'ildim, - dedi u qop-qora ko'zlarini pirpiratib jilmayarkan.* (O'.Hoshimov, «Dunyoning ishlari»)

- *Iye, qani, **Robi**, o'qi!* - dedi bobom qorong'i ayyonga turtinib chiqarkan. (O'.Hoshimov, «Ikki eshik orasi»)

- *Oyi, akam yomon-a?*

- *Nega, **jinnivoy**?*

- *Hali yasagan qorbobomni tepib buzib tashladi-ku!* (O'.Hoshimov, «Dunyoning ishlari»).

«*Jinni*» so'zi aslida aqldan ozgan, ruhiy xastalikka chalingan ma'nosini bildiradi, lekin so'zlashuv nutqida «*jinnivoy*» shakli o'ziga yaqin olish, erkalash ma'nosida qo'llanadi.

Yuqorida Ermon buvaning ingichka tovushi keladi:

- *Shoshmanglar, **popuklar**, shoshmanglar, **qoravoylar**, yana besh-o'n marta qoqay, hammalaringga yetadi.* (O'.Hoshimov, «Dunyoning ishlari»)

- *Tut yurakni o'rtab yuboradi, **ko'paygurlar**. Yuringlar, choy ichamiz* (O'.Hoshimov, «Dunyoning ishlari»).

Ermon buva hech kimning ismini aytib chaqirmaydi: uning uchun hamma qizlar – popuk, hamma o'g'il bolalar – qoravoylar. Personaj nutqi individualligini ta'minlash uchun yozuvchi uning nutqida o'ziga xos undalmalarni qo'llaydiki, beg'ubor, oqko'ngil bir inson xarakteri gavdalanadi, uning bolajonligini, sodda xatti-harakatlarini to'ldirishga xizmat qiladi.

- ***Voy, poshsha-a-a!** Nima qilib qo'ydingiz, tamom bo'psiz-ku!* (O'.Hoshimov, «Dunyoning ishlari»)

Ushbu jumladagi undalmaning ma'no bo'yoqdorligi «a» unlisini cho'zib talaffuz qilish (yozuvda esa bir necha harf bilan ifodalash) usuli orqali hosil bo'lgan. Bu usul ham, asosan, og'zaki so'zlashuv nutqida hamda badiiy matnda uslubiy vosita sifatida qo'llanadi.

Muloqot jarayonida kommunikantlar o'rtasidagi ziddiyatning kuchayishi – gradatsiya hodisasini undalmalar orqali ifodalash ham nutqiy vaziyatni qabariq holda idrok etish imkonini berishi kuzatiladi.

- ***Husanxo'ja! Husanxo'ja!***

- *Nima? - degan ingichka ovoz keldi.*

- *O'rik olib tush. Hov, yuqori shoxdan. Tez bo'l!*

- *Yiqilib tushaman-da.*

- *Yiqilmaysan.*

*Husanxo'ja uzun ishtonini shaloplatib yaqin keldi.*

- *Kesak otaqolay?*



- *Mayli, - dedi Soat loqaydlik bilan.*

*O'rik balandda edi. Husanxo 'ja mo 'ljallab nuqul kesak otar, kesagi tepa shoxga yetmas edi. Terlab ketdi. Boshqa bolalar indamay tomosha qilib yotibdi. Oxiri, bitta kesak o 'rikli shoxga tegdi. Uchta o 'rik to 'pillab tuproqqa tushdi. Husanxo 'ja yugurgilab olib keldi.*

- *Mang, Soat aka!*

- *Yuvmaymanmi, axmoq!* - *Soat ko 'zini ola-kula qildi. - Tuproqqa qo 'shib yemayman-ku!*

*Husanxo 'ja anhor sohiliga qorni bilan yotib, o 'rikni chayib keldi.*

- *Mang, aka!*

- *Yorilibdi-ku, eshshak! Menga butuni kerak!* – *Soat o 'riklarni anhorga uloqtirdi. – Chiq shoxga!* – *dedi o 'dag 'aylab. - Butunidan uzib tush!* (O'tkir Hoshimov, «Tushda kechgan umrlar»)

O'smir bolalar – Husanxo'ja va Soat o'rtasidagi muloqot jarayonida so'zlovchining tinglovchiga nisbatan subyektiv salbiy baho ottenkasi *Husanxo 'ja > axmoq > eshshak* tarzidagi kuchaytiruv darajalanishi orqali yuzaga kelmoqda. Asardagi voqelik sobiq ittifoq davrida kechganligini e'tiborga olsak, ushbu diskursiv vaziyatda yozuvchining maqsadi – allyuziya hodisasi orqali «bo'lib tashla va hukmronlik qil» tamoyili yetakchi bo'lgan sun'iy mafkuraga asoslangan tuzum kirdikorlarini fosh qilishdir. (Allyuziya - (lot. allusio - ishora, hazil) - barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usul)<sup>1</sup>. Soat obrazi timsolida sinfiylik asosida bir millat vakillari orasiga nifoq solish maqsadi, hatto, yosh bolalar ruhiyatini shakllantirish jarayoniga ham singdirib yuborilganini kuzatish mumkin. Salbiy baho ottenkasini maksimal darajada kuchaytirish maqsadi bola (shaxs)ga nisbatan «eshshak» undalmasining qo'llanishi bir tomondan so'zdagi metaforik ma'no orqali yuzaga kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan so'zdagi «sh» undoshini qavatlantirish orqali qo'shimcha fonopragmatik vositadan ham foydalanilgan. Natijada, *Soatning «qarama-qarshi sinf vakili» bo 'lgan Husanxo 'jaga nisbatan nafrati juda kuchli* propozitsiyasi bo'rtib ko'rinadi.

Xulosa qilib aytganda, o'ziga xos sintaktik qurilma – undalmalarning lingvopragmatik xususiyatlarini tilshunoslikdagi yangicha qarashlar, yangi tahlil metodlari asosida o'rganish fanimiz uchun boy material manbai bo'la oladi.

---

<sup>1</sup> Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2010. – B. 28.

**Kirish va kiritmalarning pragmatik imkoniyatlari.** Kirish kengaytiruvchilarining barchasining o‘ziga xos yagona «so‘zlovchining o‘z fikriga munosabatini bildirish» umumiy ma’nosini birlashtiradi<sup>1</sup>. Bu munosabat suhbatdoshga qaratilgan va unga gapiruvchining fikri, irodasi va his-tuyg‘ularini to‘g‘ri idrok etishga yordam berish uchun mo‘ljallangan. Ularning funksiyalari ko‘p qirrali bo‘lib, xabarning ishonchliligi, uning manbasini ko‘rsatish, qabul qiluvchiga e’tibor, hissiy baholash va boshqalarni o‘z ichiga oladi. «Kirish komponentlar gap strukturasi kirmaydi, gap bo‘lagi hisoblanmaydi, gapdagi boshqa bo‘laklar bilan grammatik jihatdan bog‘lanmaydi. Biroq muloqot ishtirokchilari uchun ular funksional va pragmatik vosita sifatida juda muhimdir<sup>2</sup>».

Kirish komponentlarning ma’nosi mavhum grammatik xarakterga ega. Ular gap ichida o‘zining leksik ma’nosini yo‘qotadi va mavhum semantik ma’no tashuvchisi sifatida qatnashadi. Gapda ifodalanayotgan mazmunning ishonchli, taxminiy yoki shubhali ekanini so‘zlovchining o‘zi baholaydi.

P.A.Lekant semantik jihatdan kirishlarning quyidagi turlarini ajratadi:

1) ishonch, tasdiq, gumon kabi modal ma’nolarni ifodalovchi: *albatta, darhaqiqat, balki, ehtimol* kabi.

- Saltanatxonni chaqirtiray, deb edim. Bir kelib o‘ynab ketsa, yaxshi bo‘laridi.

- Mayli, bugun kechgacha otang kelmasa, ertaga chaqirtirarsan (Cho‘lpon, «Kecha va kunduz»).

2) hissiy – emotsional ma’no ifodalovchi: *afsuski, baxtinga, baxtinga, baxtga qarshi, dahshat* kabi.

Baxtinga, darrov taksi kelib to‘xtadi (So‘zlashuvdan).

3) fikr muallifini ko‘rsatuvchi: *menimcha, bizningcha, qo‘shnilarning fikricha, mutaxassislar aytadiki, gazetada yozilishicha* kabi.

Olimning fikricha, tanqidchining vazifasi birinchi navbatda asarning salohiyatini ko‘ra bilish va unga to‘g‘ri baho berish bo‘lgan (O‘z.A).

4) bayon qilingan fikrlarni umumlashtiruvchi: *odatdagidek, har doimgidek, o‘z odaticha, qoida tariqasida, umuman olganda* kabi.

---

<sup>1</sup> Qurbonova M., Sayfullayeva R., Boqiyeva G., Mengliyev B. O‘zbek tilining struktural sintaksisi. O‘quv ko‘llanma. – T.: Universitet, 2004. – B. 107.

<sup>2</sup> Лекант П.А. Синтаксис простого предложения в современном русском языке: Учебное пособие. 3-е изд., – М.: Высш. Школа, 2004. – С. 214.

*Umuman olganda, O‘zbekistonda uzoq yillar mobaynida yashash jarayonida turganlar o‘z an’anaviy madaniyati majmuyini sezilarli darajada saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi* (Internetdan).

5) muloqotga yo‘naltiruvchi: *eshiting, bilasizmi, o‘ylab ko‘ring, ishonasizmi, tan oling* kabi.

*Tan oling, xuddi shunday bo‘lganmidi?* (So‘zlashuvdan)

6) avvalgi fikr bilan bog‘lovchi (bu o‘rinda gaplarni shakliy jihatdan bog‘lovchi grammatik vosita emas, fikrlarni mantiqan bog‘lovchi semantik vosita sifatida talqin qilinadi): *demak, shunday qilib, aksincha, biroq* kabi.

*Bilasanmi, o‘g‘lim, insonga familiya zeb bermaydi, aksincha, inson familiyaga zeb beradi.* (Gazetadan).

Kirishlar tarkibiga ko‘ra kirish so‘z, kirish birikma, kirish gap shakllarida qo‘llanadi.

Kirish so‘z: Darhaqiqat, inson uchun kerakli barcha shifo vositalarini tabiat ne‘matlari orasidan topish mumkin. (Ma‘ruzadan)

Kirish birikma: Muallifning yozishicha, (Imom al-Buxoriy) *Bag‘dodda istiqomat qilgan paytda, ko‘pincha, oying nurida ijob qilib, qorong‘i kechalarda sham yorug‘ida kitob yozar ekan* (<https://saviya.uz>).

Kirish gap: Xabaringiz bor, *Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so‘zlagan nutqimda men boshqa ko‘pgina muhim masalalar qatorida Yoshlar huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiyani qabul qilishga oid O‘zbekiston tashabbusiga yana bir bor jahon hamjamiyatining e‘tiborini qaratdim* (O‘zbekiston Prezidenti nutqidan).

Bu o‘rinda shuni aytib o‘tish kerakki, kirish gap bilan kiritma gapni farqlash zarur. O‘zbek tilshunosligida grammatikaga oid ko‘pgina darslik va qo‘llanmalarda kirish gap va kiritma gap orasidagi farq yaxshi ochib berilmagan.

R.Sayfullayeva va boshqa hammualliflarning «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» o‘quv qo‘llanmasi (2009)da ham M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldoshevalarning «Ona tili» darsligi (2017)da ham gapni murakkablashtiruvchi vositalar tarkibida kirish so‘z, kirish birikma va kiritma gaplar tavsiflangan holda kirish gaplar e‘tibordan chetda qoldirilgan<sup>1</sup>.

Bu jihatdan B.O‘rinboyev tasnifi ancha mukammal shakllantirilgan. Olim kirishlar *kirish so‘z, kirish birikma, kirish gap*, kiritmalar ham

---

<sup>1</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: 2009. – B. 313.

*kiritma so‘z, kiritma birikma, kiritma gap* shakllarida mavjudligini to‘g‘ri tasniflagan<sup>1</sup>.

Quyidagi faktik materiallar bunga dalil bo‘la oladi:

a) kiritma so‘z: Turkiy (o‘zbek) va forsiy tillarni chog‘ishtirishga bag‘ishlangan maxsus asar - «Muhokamat ul-lug‘atayn»ning maydonga kelishi (1499) bilan dunyo tilshunosligida yangi sahifa ochildi: tilshunoslikning hozirgi kunda chog‘ishtirma (kontrastiv) lingvistika deb yuritiluvchi yangi yo‘nalishiga asos solindi (A.Nurmonov, «Tanlangan asarlar»).

b) kiritma birikma: Turkiyshunoslikning maxsus fan sifatida shakllanishida Mahmud Koshg‘ariyning (XI asr) xizmatlari katta (Darslikdan).

v) kiritma gap: Bu qarash esa ijodda individuallik rolini pasaytirish (avtor o‘limi), asardagi obrazlarning voqelik bilan aloqasini inkor etishga (ya’ni, belgi voqelikka ishora kilmaydi, u o‘zinigina ifodalaydi) olib keladi (D.Quronov, «Adabiyotshunoslik lug‘ati»).

Kiritmalar, ko‘pincha ilmiy va publitsistik matnlarda qo‘llanadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, kirishlar asosiy gapda ifodalanayotgan fikrga subyektiv munosabatni ifodalasa, kiritmalar asosiy gapdagi ma’noga qo‘shimcha ma’lumot, izoh tariqasida kiritiladi.

---

<sup>1</sup> O‘rinboyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Samarqand, 2001. – B. 99.

## UCHINCHI BOB

### INTERNET MULOQOTI SINTAKSOPRAGMATIKASI

#### 3.1. Internet diskursi tilining sintaktik o'ziga xosligi

Internet muloqoti ijtimoiy munosabatlarning nisbatan yangi maydoni bo'lsa-da, qisqa vaqt ichida butun insoniyatni qamrab oldi. Bu esa internet tarmog'ida muloqot tizimi, foydalanuvchilarning o'zaro munosabatlari, virtual jamoatchilikning shakllanishi, shaxsning qay tarzda o'zligini namoyon qilishi, nutqiy ta'sir kabi qator masalalarni keltirib chiqardiki, psixolingvistik, sotsiolingvistik, pragmalingvistik yo'nalishlar uchun tadqiqotlar obyektiga aylandi.

So'nggi yillarda tilshunoslik sohasida internet tarmog'idagi muloqot muammosini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Internet muloqotini batafsil tadqiq qilishga intilishning sabablaridan biri bu an'anaviy muloqot me'yorlaridan farq qiladigan tamoyillar shakllanayotgan ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, blogerlarning faol ommalashishidir.

Tadqiqotchilarning fikricha, bugungi jamiyat hayoti internetning asosiy maqsadi bo'lgan ma'lumot olish vazifasi keyingi planga o'tib, muloqot maydoni sifatidagi ahamiyati ortib borayotganligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, internet diskursi kommunikantlarning birgalikdagi tezkor va samarali faoliyatini ta'minlovchi nostandart muloqot shakli deb hisoblash mumkin. Internet muloqotida nutqning informativ, fatik, ixtiyoriy funksiyalarini amalga oshirishning o'ziga xosligini shaxsiyat, e'tiroz, ustunlik, hamdardlik, hissiylik, mavjud stereotiplar va idrok mexanizmlarining o'zgarishi kabi tamoyillar belgilaydi.

Internet tarmog'ining o'zbek segmenti foydalanuvchilari o'rtasidagi grafik, imlo, leksik va sintaktik vositalar va muloqot xususiyatlarini tadqiq qilish bugungi muloqot imkoniyatlarining lingvistik xususiyatlarini o'rganishda boy manba bo'la oladi.

«Internet tarmog'i, ya'ni cheksiz muloqot doirasi shakllanishi natijasida qandaydir ma'noda yozma (vizual) va qaysidir ma'noda og'zaki bo'lgan ma'lum bir oraliq muloqot turi paydo bo'ldi. Qabul qilish usuli nuqtayi nazaridan, albatta, nutq vizual, ya'ni ko'zlar orqali qabul qilinadi. Shu bilan birga, suhbat davomida uzoq vaqt tanaffus qilish mumkin (asinxron), yuzma-yuz og'zaki muloqot jarayonida esa bu hol yuz bermaydi. Xabar jo'natuvchi javobni tezlik bilan olishi yoki uzoq kutishi mumkin. Joriy yozma matn darhol uzatiladi va qabul qilinadi, biroq adresatning bandligi, elektron pochtaga kirish imkoniyati, texnik

muammolar, vaqt farqlari va hokazo sabablar bilan bir necha kun ichida javob olish mumkin<sup>1</sup>».

Internet tarmoqlarida tanish va notanish odamlar bilan hamkorlik, do'stlik munosabatlari o'rnatiladi, turli-tuman illyustrativ vositalar, audiovizual, musiqa va boshqalar orqali axborot va fikr almashiladi, umumiy maqsadlar odamlarni birlashtiradi. Shu tariqa, jamiyatga internet diskursi tushunchasi kirib keldi. O.K.Melnikovaning ta'kidlashicha, ushbu termin masalasida tilshunoslar orasida yakdillik mavjud emas. Shuning uchun atama *kompyuter diskursi, virtual diskurs, tarmoqli diskurs, elektron diskurs, onlayn diskurs, elektron muloqot* kabi turli variantlarda qo'llanmoqda. Nazarimizda, biz uchun eng ma'quli, internet diskursi atamasi, chunki internet tushunchasi atamasining boshqa versiyalarida keltirilgan barcha ma'no ottenkalarini o'z ichiga oladi. Eng mashhur aloqa vositalaridan biri sifatida internet zamonaviy tilga juda katta ta'sir ko'rsatadi<sup>2</sup>. Biz ham O.K.Melnikovaning ushbu fikrini qo'llab-quvvatlaymiz.

Internet diskursi yangicha toifadagi alohida muloqot turi sifatida o'ziga xos xususiyatlari, shakllanish vositalari, o'zgacha muloqot shakllari, internetning zamonaviy jamiyat hayotida yetakchi mavqega egaligi bilan tavsiflanadi.

Verbal diskursda nutqimiz mimika, imo-ishora va ohang kabi nolingvistik vositalar bilan boyitiladi. Internet muloqotida ana shu vositalarning o'rnini qoplash uchun tinish belgilari, grafik belgilar, tasviriy belgilardan foydalanish imkoniyati mavjudki, bu muloqot jarayonini osonlashtiradi va ta'sir kuchini oshiradi. Lisoniy va nolisoniy vositalarning kamroq qo'llanishi orqali ko'proq va kengroq mazmunni ifodalash tamoyili doirasida xabarni uzatishda vaqt va kuchni tejash maqsadida til birliklari bilan birga grafik va audiovizual belgilar ham ishlatiladi.

Hozirgi vaqtda internet tarmog'i yangi axborot muhiti, yangi muloqot amaliyoti, dunyoni idrok etishning yangi turini shakllantiruvchi zamonaviy madaniyat, zamonaviy belgi hodisasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, internet tugallangan bir hodisa emas, chunki u hali rivojlanishning boshida turibdi.

---

<sup>1</sup> Трач А.С. Особенности использования письменной речи в сети Интернет. // Известия ЮФУ (Южный федеральный университет) Раздел I. Проблемы современной филологии. – Таганрог, 2010. – С. 34-39.

<sup>2</sup> Мельникова О.К. К вопросу об определении термина Интернет-дискурс // Казанский вестник молодых ученых. Теоретические и практические вопросы современной лингвистики. 2018, том-2 – № 4. (7). – С. 30-33.



S.V.Bondarenko virtual olamdagi ijtimoiy tarmoqlar strukturasi hisobga olgan holda, virtualdagi ijtimoiy jamoat tabiatan obyektivligini va real dunyoda mavjud bo'lgan ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlariga (albatta, virtual makonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda) bo'ysunishini qayd etadi.

Tilshunoslar internet tarmog'ini nutq yaratish imkoniyatlarini kengaytirish va tilda yangiliklar yaratishning samarali asosi sifatida tan oladilar<sup>1</sup>. Shuni ta'kidlash kerakki, elektron muloqot sohasida texnik vosita orqali uzatiladigan matn ko'rinishida bu yozma nutq, lekin til qurilishi va muloqot uslubi nuqtayi nazaridan og'zaki nutq sifatida tavsiflanadi.

Shu bilan birga, internetda shaxsning o'zini erkin tutishi, psixologik to'siqlarning bartaraf bo'lishi, diqqatni natijadan, ya'ni matnlarni iste'mol qilishdan o'zgartirib, ularni yaratish jarayoniga o'tish, shubhasiz, tilga nafaqat ijod qilish vositasi, balki o'z ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish shakli sifatida yangicha munosabatni shakllantiradi.

Internet muloqotining asosiy belgilari sifatida giperintellektuallik va so'zlashuv uslubining yozma shaklini ko'rsatish mumkin. To'g'ridan to'g'ri gapiriladigan og'zaki nutq internetda muqarrar ravishda yozma (aniqrog'i, bosma) shaklda uzatilishi kerak<sup>2</sup>.

Shunday qilib, dunyo tilshunosligida diskursning yangi turi – yozma so'zlashuv nutqining shakllanganligi tan olindi. Og'zaki so'zlashuv nutqiga xos bo'lgan fonetik, leksik, grammatik nomuvofiqliklar, ya'ni til me'yorlaridan chekinishlar internet diskursining yozma shaklida ham amal qila boshladi. Adabiy til me'yorlariga amal qilinmaslik, noadabiy qatlamga oid dialektizm, vulgarizm, varvarizm, nostandart qisqartmalar kabi lug'aviy birliklardan foydalanish xususiyatlari yozma so'zlashuv nutqiga ham «ko'chib o'tdi». Og'zaki so'zlashuv uslubiga xos xususiyatlar, asosan, norasmiy doirada, ya'ni ijtimoiy tarmoqlar, ko'ngilochar saytlardagi o'zaro va guruhij muloqotlar, shaxsiy yozishmalarda kuzatiladi. Birinchidan, bunday platformalarda, ko'pincha, muloqot tezligi talab etiladi, shuning uchun tezda javob xabar yuborish kerakligi

---

<sup>1</sup> Шмелева Т.В. Медиалингвистика как медийное речеведение // Медиатекст как полиинтенциональная система: сб. статей / отв. ред. Л.Р. Дускаева, Н.С. Цветова. СПб, 2012. – С. 68-71.

<sup>2</sup> Виноградова Т.Ю. Специфика общения в интернете // Русская и сопоставительная филология: Лингвокультурологический аспект. – Казань, 2004. – С. 63-67; Витгенштейн Л. Философские исследования // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16: Лингвистическая прагматика. – М., 1985. – С. 79-128.

bilan ham bog‘liq deb hisoblash mumkin. Ikkinchidan, adresantning saviyasi, bilim doirasi, diskursiv vaziyatdagi holati va imkoniyatlari kabi psixolingvistik yoki tashqi omillar ham sabab bo‘lishi mumkin. Rasmiy doiradagi ijtimoiy qatlamlar muloqotida esa imkon qadar adabiy til me‘yorlariga amal qilinadi.

Bugungi kunda ko‘plab olimlar og‘zaki nutqni butunlay so‘zlashuv uslubiga xos deb bo‘lmaydi yoki yozma nutqni so‘zlashuv uslubiga qarama-qarshi qo‘yish mumkin emas deb hisoblaydilar. Bu juda o‘rinli gipoteza, chunki bugungi muloqot imkoniyatlarining turli darajalarida «og‘zaki-yozma» nutq shakllari bir-birini to‘ldiradi.

Sharl Balli so‘zlashuv uslubi sintaksisi olimlar tomonidan e‘tiborga loyiq deb hisoblanmaganligi uchun kam o‘rganilganligi, undagi hamma narsa «noto‘g‘ri» degan bahona bilan unga ehtiyotkorona yondashganlarini ta‘kidlaydi. Go‘yo tilshunoslik uchun «to‘g‘ri» va «noto‘g‘ri» tushunchasi mavjud va tilshunos o‘z ishida bu noto‘g‘ri qarashni boshqarishi kerak! Sintaksisni faqat yozma material yordamida o‘rganish mumkin, deb hisoblaydigan tadqiqotchilar ham yetarli. Ular yozishdan gapirishga o‘tganda bitta grammatikadan boshqasiga o‘tishlarini inkor etishga moyildirlar. Biroq bu kategoriyalarning lisoniy vositalari butunlay boshqacha, vaholanki, u yerda ham, bu yerda ham to‘g‘ri ifodalanadi. Kitobiy sintaksisning odatiy shakllari bilan qiyoslanganda, so‘zlashuv sintaksisining o‘ziga xos xususiyatlari aniq ko‘rinadi. Ularning biri ikkinchisiz mavjud bo‘la olmaydi, og‘zaki sintaksis me‘yoriy sintaksisdan barcha shaxssiz va noekspressiv birliklarni o‘zlashtiradi. Bu o‘rinda tadqiqotlar metodikasini tubdan o‘zgartirish mumkinki, grammatik qoidalar lisoniy qonunga aylanishi kerak. Kamida uslubiy grammatika nuqtayi nazaridan og‘zaki nutq sintaksisini o‘rganish zarur<sup>1</sup>.

«Raqamli qurilma ekranida paydo bo‘ladigan bosma matn o‘z xususiyatlarini o‘zgartira olishi bilan an‘anaviy matn tushunchasidan tamoman farq qiladi. Matn endi avvalgiday muzlatilgan, o‘zgarmas shakl bo‘lmaydi. Foydalanuvchi manipulyatsiya qilish maqsadida uni tahrir qilishi, o‘zgartirishi, jumla qo‘shishi yoki o‘chirishi, o‘z fikrini bildirishi, izoh qoldirishi mumkin. Shuningdek, tarmoqdagi matn, ko‘plab

---

<sup>1</sup> Балли Ш. Французская стилистика. 2-е изд., стереотипное – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – С. 352-354.

olimlarning fikriga ko‘ra, giperhavola tufayli yanada to‘liq ma‘lumotli, yuqori darajada to‘yingan deb hisoblanishi mumkin<sup>1</sup>».

Internet muloqotining amaldagi oldingi muloqot an‘analari bilan bog‘liq bo‘lmagan ma‘lum qoidalari ham bor. Adresant xabarni iloji boricha qisqartirib, nutqiy harakatini tejashga intiladi; boshqa tomondan esa qabul qiluvchi kengroq va yetarli ma‘lumot olishni istaydi. Shu munosabat bilan virtual muloqotning yana bir xususiyatini ajratish, ya‘ni internet diskursida leksik va sintaktik qisqartmalarni kuzatish mumkin.

«Til strukturasi taraqquyoti kommunikatsiya ehtiyojlaridan kelib chiqib, aloqa uchun qulay birliklar tanlash yoki struktural o‘zgarishlar yasash bilan bog‘liq va bu hol ma‘lum darajada til birliklarining qisqarishida o‘z aksini topadi»<sup>2</sup>. Axborot oqimining keskin ko‘payishi, axborot uzatishda samaradorlikka erishish maqsadi, vaqtdan va til birliklaridan unumli foydalanishga intilish qisqartmalardan keng foydalanishni taqozo etmoqda. Shu maqsadda internet muloqotida abbreviatura va akronimlardan ham keng foydalanilayotgani kuzatildi.

**Abbreviatura** (italyancha abbreviature lotincha brevis – qisqa so‘zidan olingan). Qadimgi qo‘lyozma va kitoblardan boshlab to zamonaviy nashrlarda so‘z yoki so‘zlar guruhining qisqartirilgan imlosi. *BMT, DHX* kabi.

**Akronim** (yunoncha ἀκρός – «eng baland, o‘ta» va όνομος – «ism») - qisqartma, so‘z yoki iboralarning bosh harflaridan tuzilib, alohida-alohida harflar tarzida emas, so‘z sifatida talaffuz qilinadi. Misol: «GUM» so‘zi *gum* deb o‘qiladi, *ge-u-em* kabi talaffuz etilmaydi<sup>3</sup>.

Akronimlar ham abbreviaturaning bir ko‘rinishi hisoblansa-da, ular o‘zaro farqlanadi. Ikkalasida ham so‘zlarning birinchi harflari bor, lekin abbreviaturadan farqli o‘laroq, akronimlarda aniq harflarga bo‘linish yo‘q, ular birgalikda qo‘shib o‘qiladi. Shuning uchun ular tilda tezroq ildiz otib, umumiy nomga aylanadi. Kuzatishimizcha, akronimlar tarkibidagi harflarning qo‘shilib aytilishida unli tovushlar muhim rol o‘ynaydi.

«Lazer» va «radar» akronimlari *laser (light amplification by stimulated emission of radiation – orttirilgan radiatsiya orqali yorug‘lik kuchayishi)*, akronimi *radar (Radio Detection And Ranging –*

<sup>1</sup> Ахренова Н.А. Теоретические основы Интернет-лингвистики // Филологические науки. Вопросы теории и практики, – № 10 (28). 2013. – С. 22-26.

<sup>2</sup> Eltazarov J.D. Tildagi tejamlilik tamoyili va qisqaruv. Monografiya. – Samarqand: SamDU, 2004. – B. 16.

<sup>3</sup> Вольф Александр. Акронимы и аббревиатуры //astro.uni-altai.ru/~aw/blog/2010/06/acronyms-and-abbreviations.html.

*radioto'lqinlar orqali aniqlash va o'lchash*) kabi ko'plab so'zlarning qisqartirish identifikatorlari e'tibordan chetlashdi va endi ular oddiy so'z sifatida qabul qilinadi<sup>1</sup>.

O.Xasanova til o'rganish jarayonida akronim hosil qilish orqali ma'lumotlarni eslab qolishni osonlashtiruvchi usul sifatida taqdim etadi: «Akronimlar til o'rganuvchilar orasida sevimli bo'lgan usul hisoblanadi. Ularning yasashidagi asosiy holat o'rganilayotgan so'zlarning birinchi harflaridan yangi so'z yasagan holda ma'lumotlarni eslab qolishdan iborat. Masalan, quyidagi **BELAK** akronimi yordamida nemis tilidagi daraxtlarni nomlarini tez yodga tushirish mumkin: **Buche, Eiche, Linde, Ahorn, Kastanie**. Nemis tilidagi ko'makchilarni esda saqlashda ham akronimlar samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, **haanivüzu** akronimi **Dativ** va **Akkusativ** kelishigida qo'llaniladigan ko'makchilarni bildiradi, ya'ni **hinter, auf, an, neben, in, vor, über, zwischen, unter** ko'makchilari. Akronimlarni yasashni til o'rganuvchilarning o'zlari bajarishlari bu texnikaning samarasini yanada oshiradi<sup>2</sup>».

- Slm desa nima ekan debman. Salomning qisqartirilgani ekan.
- Sizam wlksm deb yozippoying 🤔
- A.A. ni bilmasangiz kerak?
- Gangitgan birinchi marta
- Rhmt
- e'robini qo'yib o'qing, arabcha yozibdida
- men ham odatda shoshib kerak – kk, mumkin – mn, bilan – bn deb yozaman))
- Qayerdan bildiz slm salom deganini. Balki arabchada o'qigan bo'lsa, arab alifbosi asosida **ASALIM** demoqchi bo'lgandir 😊
- Ortib qolgan vaqtni nima qilisharkan endi
- Tejagan yaxshi-ku, lekin shu tejab qolingan harflarni keyin nima qilisharkin? («Feysbuk»dan )

Internet tarmog'ining o'zbek segmentida bunday noan'anaviy qisqartmalar endi-endi shakllanmoqda. Ushbu diskurs mazmunidan anglash mumkinki, til birligi sifatida shakllanmagan qisqartmalar adresat tomonidan turlicha qabul qilinishi ehtimoli mavjud ekan. Bu holat suhbat jarayonining pragmatik tusini o'zgartirib yuborishi mumkin. Xususan, *slm* qisqartmasi (unlilarning tushirib qoldirilishi) Abdulaziz

<sup>1</sup> <https://cambridge.ua/blog/top-10-english-acronyms-that-became-words/>.

<sup>2</sup> Xasanova O.Q. Akustik mnemotexnikalar // «Xorijiy tillarni o'qitish dinamikasi va uni o'qitish samaradorligini oshirishning kognitiv texnologiyalari» masalalariga bag'ishlangan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi – T.,– B. 314-317.

Saidalikhonov tomonidan *salom* deb qabul qilinsa, Sanjar Stone tomonidan esa *asalim* shaklida talqin qilinmoqda. Kamoliddin Mann eslatib o'tgan kerak - kk, mumkin - mn, bilan - bn shakllari esa bugungi kunda odatiy holga aylanib ulgurdi. *AA* – *assalomu alaykum*, *VAA* – *va alaykum assalom*, *XK* – *xush kelibsiz* kabi qisqartmalarni sintaktik akronimlar sifatida baholash mumkin. Odatda, bunday birliklar nutqiy etiketlar sifatida gap shaklida qo'llanadi.

Adresatga ta'sir ko'rsatish maqsadida sintaktik sathga oid quyidagi vositalardan foydalaniladi: ritorik so'roq va undovlar, savol-javob kompleksi, gapning uyushiq bo'laklaridan foydalanish, sanalganlarni muvofiqlashtirish, sintaktik parallellizm; anafora va epifora, noto'liq ifodalar, buyruq gaplar. Ular ta'sir ko'rsatishning asosiy tamoyillari bilan bog'liq, jumladan, qabul qiluvchining shaxsiy ehtiyojlari va manfaatlarini nazarda tutish, muloqotga tortish, moslashuvchanlik, adresatning shaxsiy faoliyatiga tayanish orqali uning hamfikrliligiga va javob berishiga, muloqot pragmatizmi, emotsionalligiga erishish.

Darvoqe, internet muloqoti paydo bo'lgunga qadar bu kabi sintaktik me'yordan chekinishlar og'zaki so'zlashuv uslubiga xos xususiyatlar hisoblanar edi. Bugunga kelib esa, fan-texnika taraqqiyotining mislsiz imkoniyatlari tufayli yozma so'zlashuv shakli paydo bo'ldiki, internet muloqoti ana shu yangi uslubiy shakl uchun o'ziga xos maydon vazifasini o'tay boshladi. Endi insonlar asinxron shaklda va masofadan turib bilvosita muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Shunday qilib, interaktiv sintaksisni tahlil qilish quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni belgilashga imkon berdi:

- so'zlarni xato yozish;
- grammatik vositalarni xato qo'llash;
- qisqartiruv usullari;
- agrammatizmga moyillik;
- inversiya;
- parsellyatli konstruksiyalar.

Internet diskursi sintaksisida nutqiy ta'sirchanlikni ta'minlash maqsadida parsellyatsiya va ellipsis usullari keng qo'llanilayotgani kuzatildi.

**Parsellyatsiya** (fransuzcha *parcelle* – qism, parcha) – bitta sintaktik tuzilma-jumlani bir necha kommunikativ mustaqil birliklar orqali ifodalash usuli. Nutqiy parsellyatsiya ohang yordamida, yozma matnda esa uning grafik ko'rsatkichlari - tinish belgilari orqali amalga oshiriladi. Parsellyatsiya fenomeni nutqni tashkil qilishning shakliy-strukturaviy va



intonatsion-semantik jihatlarining nisbiy mustaqilligini, lisoniy va nutqiy (matniy) birliklar asimmetriyasini ochib beradi. Kengaytirilgan va o'ta murakkab sintaktik tuzilmalarni idrok etishni osonlashtiruvchi parsellyatsiya ta'limiy matnning maxsus usuli vazifasini bajaradi. Uning kommunikativ va ekspressiv funksiyalari nutqning turli uslublarida qo'llash imkoniyatini beradi<sup>1</sup>.

**Parsellyatsiya** (*frans.* pagselle – *lotin.* ragtieile – bo'lakcha). Gapning ekspressiv maqsad bilan bo'laklanishi bo'lib, unda gapning bir qismi ayiruvchi to'xtamdan keyinga, gapning tashqarisiga chiqariladi<sup>2</sup>.

Sharl Balli «dislokatsiya» deb nomlagan til hodisasi, aynan, parsellyatsiya atamasiga xos tushunchani anglatadi: «Gap bo'laklari orasidagi mantiqiy muvofiqlik fikr uzvlari ketma-ketligini ta'minlab, uni tushunishga hissa qo'shadigandek ko'rinsa ham, aslida fikrni to'g'ridan to'g'ri ifoda etish uchun to'siq bo'ladi. Bu ikki omil ta'sirida ifoda elementlari bir-biridan ajratiladi (hech bo'lmaganda, shakl jihatdan); gapirish bir xil ohangda emas, balki yengil silkinishlar bilan amalga oshiriladi. Shunday qilib, tinglovchi butun bir fikrni birdaniga emas, balki alohida-alohida qismlarga ajratib qabul qiladi. Bu qismlarning har biri alohida ekspressiv ta'sir kuchiga ega bo'ladi, qisqa pauza bilan ajralib turadi; har biri mustaqil bir gap sifatida boshqalarga hech qanday aloqasi yo'qdek ko'rinadi, ammo aslida unday unday emas. ... garchi so'zlar mantiqiy tartibining buzilishi tinglovchini qayta tiklashga majbur qilishi paradoksga o'xshaydi – chunki mantiqiy tartib aqliy dangasalikka hissa qo'shsa, aksincha, dislokatsiya diqqatni rag'batlantiradi<sup>3</sup>.

Parsellyatsiya hodisasi o'zbek tilshunosligida, dastlab, ilova konstruksiyalar sifatida talqin qilingan bo'lsa<sup>4</sup>, ikkinchi bosqichda parsellyativ va ilovali qurilmalarni farqlash jarayoni kechdi<sup>5</sup> va nihoyat

---

<sup>1</sup> <https://studfile.net/preview/4272288/page:3/>.

<sup>2</sup> Karimov S. O'zbek tili funksional stilistikasi. Monografiya. – Samarqand: SamDU, 2010. – B. 186.

<sup>3</sup> Балли Ш Ко'rsatilgan manba. – B. 356.

<sup>4</sup> Bu haqda qarang: Ishoqov F. Hozirgi zamon o'zbek tilida ilovali konstruksiyalar // Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari. 2-kitob. – Toshkent: O'zFA, 1961. – B. 285-289.; Abdullayev A. Ilova ko'chirma gapli konstruksiyalar // O'zbek tili va adabiyoti. – 1982. – № 2. – B. 50-52.; Maskapov B. Prisoyedinitel'nyye konstruksii v uzbekskom yazyke: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – T., 1985. – 20 s.

<sup>5</sup> Bu haqda qarang: Turoпова M. Ilova konstruksiyaning boshqa sintaktik konstruksiyalardan farqi // O'zbek tili va adabiyoti. – 1980. – №1. – B. 53-56.; G'afforov A.A. Hozirgi o'zbek tilida parsellyativ va ilovali qurilmalarning sintaktik derivatsiyasi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Samarqand, 1997. – 26 b.



zamonaviy lingvistik tamoyillar asosida alohida sintaktik hodisa sifatida tadqiq etilmoqda<sup>1</sup>.

Parsellyativ konstruksiyalarni badiiy matn doirasidagina talqin qilinishi<sup>2</sup>, bizningcha, yetarli emas. Hodisaning nutqiy ta'sirni ta'minlash xususiyati reklama matnlarida faol qo'llash uchun asos bo'la oladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ijtimoiy tarmoqlardagi Internet mulqoti so'zlashuv uslubining yozma varianti sifatida «so'zlashuv matni»da ham parsellyatli tuzilmalar faol qo'llanmoqda.

«Parsellyatli tuzilmalardagi tartib mohiyat e'tibori bilan ta'sirchan so'z tartibi bo'lib, uslubiy jihatdan betaraf tuzilmali gap qismlarini kommunikativ maqsadga muvofiq tarzda guruhlash, sintaktik jihatdan qayta o'rinlashtirish sifatida ro'yobga chiqadi»<sup>3</sup>.

Ilmiy adabiyotlarda parsellyatli konstruksiyalar quyidagi xususiyatlarga ega sintaktik birliklar sifatida tavsiflanadi: 1) ikki komponentli tuzilma: asosiy qism va parsellyat; 2) parsellyatlar asosiy qismga grammatik va semantik jihatdan bog'liq bo'lib, talaffuzda pauza bilan va yozma matnda nuqta bilan ajratiladi; 3) komponentlar tartibi qat'iy belgilangan; 4) parsellyatlarni tayanch qism bilan bog'laydigan vositalar parchalanish belgisi sifatida xizmat qiladi; 5) ajratilgan element dolzarb ma'lumot tashuvchi (rema) hisoblanadi<sup>4</sup>.

Suyun Karimov parsellyatsiya hodisasini so'zlashuv uslubiga xos deb hisoblaydi<sup>5</sup>. Bunda parsellyat oldindan rejalashtirilmagan, o'ylanmagan holda ajratilganga o'xshaydi. Aslida unday emas. U

---

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Toshaliyev I. Hozirgi o'zbek tili. Sintaksis. Sintaktik va sintagmatik qayta bo'linish. Parsellyatsiya. – T.: Zar qalam, 2004. – 88 b.; Haydarov SH.M. Badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalarning ko'llanilishi. Filol. fan. nomz. diss. ... avtoref. – T., 2011. – B. 68-71; Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – T.: Fan, 2007. – 123 b.

<sup>2</sup> Haydarov Sh.M. Badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalarning ko'llanilishi. Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T., 2011. – 21 b.; Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – T.: Fan, 2007. – 123 b.

<sup>3</sup> Toshaliyev I. Ko'rsatilgan manba. – B.88.

<sup>4</sup> Bu haqda qarang: Иванчикова Е.А. Парцеллированные конструкции в современном русском языке // Русский язык и советское общество: Морфология и синтаксис современного русского литературного языка: сб. статей. – М.: Наука, 1968. – С. 274-302; Крючков С.Е. Вопросы синтаксиса современного русского языка. – М.: 1950. – С. 274; Сковородников А.П. Экспрессивные синтаксические конструкции современного русского литературного языка. – Томск: Изд-во Томского ун-та, 1981.; Ванников Ю.В. Синтаксис речи и синтаксические особенности русской речи. Изд-е 2-е. – М.: Книжный дом Либроком, 2009. – 296 с.; Александрова Е.М., Астафьева О.А. Парцелляция как экспрессивно-синтаксический приём расчленения текста (на материале коротких анекдотов) // Филологические науки. Вопросы теории и практики, – № 6 (48). 2015, часть 1. – С. 13-17.

<sup>5</sup> G'afforov A. Hozirgi o'zbek tilida parsellyativ va ilovali qurilmalarning sintaktik derivatsiyasi: Filol. fan. nomz. ... diss.avtoref. – Samarqand, 1967. – B. 14.

yetakchi gapning ataylab tushirib qoldirilgan va uning davomida alohida keltiriladigan bo‘lagidir, so‘zlovchi tomonidan ongli ravishda ajratilgan qismidir.

*Orada men o‘qishimni o‘zgartirdim. Ularning tavsiyasi orqali. Anqara universitetiga* («Feysbuk»dan).

**Ellipsis** tabiatan murakkab hodisa bo‘lib, u tilning sintaktik tizimida alohida o‘rin egallaydi. Ellipsisda nutq jarayonida qaysidir bir bo‘lak qisqalikka erishish yoki nutq vaziyatidan kelib chiqib tushirib qoldiriladi. Internet muloqoti shakllangunga qadar tilshunoslar ellipsisni, asosan, og‘zaki so‘zlashuvga xos nutqiy hodisa deb hisoblaganlar. Bugungi kunda internet muloqotida ellipsis hodisasi keng qo‘llanilmoqda.

Ellipsis Sh.Balli, V.V.Vinogradov, A.M.Peshkovskiy, A.A.Shaxmatov, Kubryakova, I.A.Lipova, Yu.V.Vannikov, Yu.M.Skrebnev, G.A.Ribakova, A.P.Skovorodnikov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan<sup>1</sup>.

Sh.Balli ellipsisni nol ko‘rsatkichli forma deb hisoblaydi. «Ellipsis» so‘zi har xil ma’noda ishlatiladi. Biz nutqda oldingi yoki keyingi kontekstdan aniq bo‘lishi nazarda tutilgan belgini ellipsis deb ataymiz. Boshqacha qilib aytganda, ellipsis nutqda ishora qilingan belgiga to‘g‘ri keladi. Masalan, - Qayerga ketyapsiz? - Universitetga... Ellipsis yozma nutqqa qaraganda og‘zaki nutqda ko‘proq ishlatiladi. Bu tabiiy: og‘zaki tilda so‘zlovchi nutqiy vaziyatdan yoki suhbatdoshning so‘zlaridan kelib chiqishi mumkin; yozma nutqda esa muvofiq holatni uning o‘zi tanlashi kerak<sup>2</sup>».

Sh.Balli «Fransuz stilistikasi» kitobida ellipsis hodisasiga qayta murojaat qilib, masalaning mohiyatini yanada chuqurroq yoritib beradi. Odatda, qo‘llanadigan «ma’noni ifodalash uchun zarur bo‘lgan bir yoki bir nechta **so‘zni** tushirib qoldirish» degan ta’rifga kengroq tus berib, «ma’noni aniq ifodalash uchun zarur bo‘lgan bir yoki bir nechta **lisoniy elementlarni** tushirib qoldirish» deb ta’riflaydi va bu o‘zgartirishni shunday izohlaydi: «bo‘g‘indan bitta tovush yo‘qolganda, so‘zdan bir yoki bir nechta bo‘g‘in yo‘qolganda, so‘z birikmasidan bir yoki bir nechta so‘zning tushirilishi, va nihoyat, iboraning bir qismi bo‘lgan jumlaning tushirib qoldirilishida namoyon bo‘lishi mumkin»<sup>3</sup>. Bizningcha, Sh.Balli

<sup>1</sup> Скребнев Ю.М. Основы стилистики английского языка. – М.: Высш. шк, 1994. – 240 с.

<sup>2</sup> Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: изд-во Иностранной литературы, 1955. – С. 175-176.

<sup>3</sup> Bu haqda qarang: Балли Ш. Французская стилистика. 2-е изд., стереотипное – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – С. 317-324; Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: изд-во Иностранной литературы, 1955. – 412 с.

*tovush, bo'g'in, so'z* va hatto qo'shma gap tarkibidagi *jumlaning* tushirib qoldirilishi kontekstda mazmunga putur yetkazmasligini nazarda tutgan. Demak, olimning bu fikriga tayanib, fonetik, leksik va sintaktik ellipsis turlarini belgilash mumkin. Bu g'oya esa tilshunoslar oldiga kelgusida ellipsis hodisasini yanada chuqurroq tadqiq qilish vazifasini qo'yadi.

- *Ke(l) o'tir, hozir yuzimni yuvib turgan edim* («Odnoklassniki»dan).
- *Nozi(ma), namuncha kech qop ketting?* («Odnoklassniki»dan)
- *U boshqa tomonga...(ketyapti)* (So'zlashuvdan).
- *Qassobga yog' qayg'usi, deng, oka!* («Feysbuk»dan)

Birinci jumlada so'zning oxirgi tovushi (l), ikkinchi jumlada so'zning bir bo'g'ini (-ma), uchinchi jumlada esa yo'nalma harakatni ifodalovchi *ketdi, ketyapti, boradi* kabi fe'llardan biri qo'llanishi kerak bo'lgan o'rinda butunlay tushirib qoldirilgan bo'lsa-da, ma'no to'liq anglashiladi. To'rtinchi misolda «*Echkiga jon qayg'usi, qassobga yog' qayg'usi*» maqolining birinchi komponenti, ya'ni qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning biri tushirib qoldirilgan, lekin maqol mohiyatiga yashiringan pragmatik ma'no kontekstdan anglashiladi va adresat tomonidan to'g'ri qabul qilinadi.

Ellipsisga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishi odamning muloqot jarayonida tilning rivojlanish qonunlaridan biri bo'lgan lisoniy vositalarni tejash, lisoniy shakllarni takomillashtirishda aqliy va jismoniy energiyani kam darajada sarflash istagi tufayli yuzaga keladi<sup>1</sup>.

Akademik V.V.Vinogradov ellipsisni gapning o'ziga xos shaklda, ya'ni mavhum grammatik sxemada ifodalanadigan va gap strukturasi o'zini namoyon qilmaydigan alohida usul sifatida tavsiflaydi. Olim jumlaning tuzilish xususiyatlari va funksiyasini o'rganish asosida ularning taxminiy tugallanmaganligini isbotlash orqali gapning to'liq shakli gavdalaniriladi va u o'z vazifasini aniq bajaradi deb hisoblaydi<sup>2</sup>.

«Elliptik konstruksiyalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularni ishlatishning barcha holatlarida strukturaning ixchamligi, bu har bir aniq ifodalangan elementga semantik va uslubiy yukning ortishida namoyon bo'ladi. To'liq jumalarda har bir element ma'lum miqdordagi ma'lumotni o'z ichiga oladi. Elliptik konstruksiyalarda esa nazarda

---

<sup>1</sup> Иванилова Е.Н. Структурно-семантические особенности эллиптических предложений во французском и английском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Нальчик, 2008. – С. 10.

<sup>2</sup> Виноградов В. В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – М., 1975. – 560 с.

tutilgan ma'lumot saqlanib qolgan bir yoki bir nechta elementlarga qayta taqsimlanadi<sup>1</sup>».

Gapning elliptik xarakteri uning mantiqsizligini keltirib chiqarmaydi. Nutqiy vaziyat, suhbatdoshlarning o'zaro munosabati ana shunday to'liqsiz gaplar vositasida ham gap mazmunining to'liq anglanishiga ko'maklashaveradi. Hatto bir suhbatdosh nutqining ikkinchisi tomonidan bo'lishi ham, odatda, suhbatdagi asosiy mantiqning, izchillikning saqlanib qolinishiga xalaqit bermaydi<sup>2</sup>.

Ellipsis hodisasi funksiyalarining xilma-xilligi tufayli ularning pragmatik chegaralarini aniqlash vazifasi funksional va grammatik xususiyatlarini chuqurroq o'rganishni taqozo etadi. K.Ya.Sigal ellipsisning mantiqan *tushirib qoldirish, qisqartirish, to'liq konstruksiyaning noto'liq variantini qo'llash* kabi usullari mavjudligini bayon qiladi<sup>3</sup>.

*Jim qolish* (pauza) ham ellipsisning bir turi sifatida qaraladi. Badiiy uslubda ruhiy iztiroblarni, psixologik holatni ifodalaydigan jim qolishlar birmuncha faol. Bu usul yordamida yozuvchi va o'quvchi o'rtasida mustahkam psixologik aloqa o'rnatiladi, o'quvchi beixtiyor ijodkor hissiyotlariga sherik bo'ladi<sup>4</sup>.

Odatda, jim qolish yozuvda ko'p nuqta (...) bilan ifodalanadi.

*Safo aka keluvdilar. Sho'rlik bir tutam bo'lib qolibti. Ayolidan yashirishibti. Zohirjondan ham...* («Feysbuk»dan).

Internet-diskurs sintaksisining yana bir xususiyati an'anaviy adabiy til me'yorlaridan chetlashishdir. Bu hodisa agrammatizm deb ataladi. Sintaktik sathda agrammatizm ifoda elementlari va turli qismlar o'rtasidagi sintaktik munosabatning buzilishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Tinish belgilarining yetarli qo'yilmasligi yoki noto'g'ri qo'llanishi, gap bo'laklari orasidagi sintaktik munosabatning buzilishi, nomuvofiqlik (anakoluf) va nutqiy uzilish, tutilish kabi holatlar **agrammatizm** hisoblanadi. Shuningdek, oddiy so'zlashuvdagi, she'riy nutqqa yo'naltirilmagan inversiya – gap bo'laklari tartibining o'zgarishi ham agrammatizmning ko'rinishidir. Bunday shakliy va mantiqiy nomutanosibliklar ifoda tartibining buzilishi bilan bog'liq bo'lib,

---

<sup>1</sup> Галичкина Е.Н. Специфика компьютерного дискурса на английском и русском языках (на материале жанра компьютерных конференций): Дисс. ... канд. филол. наук. – Астрахань, 2001. – С. 147.

<sup>2</sup> Karimov S. O'zbek tili funksional stilistikasi. Monografiya. – Samarqand: SamDU, 2010. – B.186.

<sup>3</sup> Сигал К.Я. Эллипсис как речевой процесс (на материале словосочетаний) // <https://cyberleninka.ru/article/n/ellipsis-kak>.

<sup>4</sup> Karimov S. Ko'rsatilgan manba. – B. 147.

soʻzlovchining hissiy holati ifodasi nuqtayi nazaridan, *ikkilanish, norozilik, xavotir, ishonchsizlik, qatʼiyatsizlik, kayfiyat oʻzgarishi* kabi psixologik omillar taʼsirida roʻy berishi mumkin.

Internet muloqotida boshqa-boshqa til vakillari ham oʻzaro muloqot qila olishi imkoniyati insoniyatni oʻziga jalb etgan yutuqlaridan biridir. Bugungi globallashuv jarayonida bu juda muhimdir. Ana shu jarayonda til oʻrganayotgan foydalanuvchilarning ham agrammatizm holatlariga duch kelishi tabiiy holdir.

Kuzatishlarimiz shuni koʻrsatadiki, aslida soʻzlashuv uslubi sintaksisiga xos boʻlgan parsellyatsiya, ellipsis, anakoluf kabi til hodisalari, koʻpincha, badiiy tasvir vositalari sifatida talqin qilinadi.

Anakoluf hodisasiga berilgan quyidagi taʼriflar ham shundan dalolat beradi. **Anakoluf** - (yunoncha – tarqoq, notoʻgʻri) badiiy asar matnining grammatik jihatdan tarqoqligi, gap boʻlaklarining notoʻgʻri joylashtirilishi. Bu xil uslubiy vositalar qahramon xarakterini individuallashtirish, tasvirlanayotgan vaziyat ruhini toʻlaroq ifodalash niyatida adiblar tomonidan ataylab ishlatiladi<sup>1</sup>.

**Anakoluf** (yunoncha «mos kelmaydigan, nooʻrin») - gap boʻlaklari grammatik izchilligining qasddan buzilishidan iborat ritorik figura boʻlib, eʼtiborsiz qilingan xato yoki stilistik usul sifatida tan olingan. Tasodifiy boʻlmagan stilistik xato deb ham atash mumkin. Anakoluf tabiatan ajralib turuvchi xarakterga ega va grammatik jihatdan toʻgʻri nutq fonida ayon boʻladi. Anakoluf koʻpincha tilni yaxshi bilmaydigan chet ellik, madaniyati rivojlanmagan oddiy odam yoki bola nutq xususiyatlarini gavalantirish uchun qoʻllaniladi<sup>2</sup>.

Bizningcha, avvalo, til hodisasi sifatida «**Anakoluf** – (yunoncha anakóluthos - nomuvofiq, tarqoq, notoʻgʻri) soʻzlashuv uslubiga xos matn yoki diskursda grammatik qoidalar meʼyoridan chekinish usuli, sintaktik konstruksiyalarning grammatik jihatdan tarqoqligi, gap boʻlaklarining notoʻgʻri joylashishi. Badiiy matnda qahramon nutqining oʻziga xosligini taʼminlash, xarakterini individuallashtirish maqsadida sintaktik figura sifatida qoʻllanadi» deb tavsiflansa, maqsadga muvofiq boʻladi.

*Xuv anavi yerga meniki xotinim, bolalar oʻlgan, meniki kechasi yomon tush koʻrgan* («Dersu Uzala» filmidan). Bu jumlada grammatik koʻrsatkichlarning notoʻgʻri qoʻllanishi sintaktik gʻalizlik keltirib chiqargan.

- *Командиржоооон...дакумент эта. нет этаа ...*

<sup>1</sup> <https://e-adabiyot.uz/maqola/412>

<sup>2</sup> <https://webkonspect.com/?room=profile&id=19244&labelid=255884>



- *Nimaga hujjatsiz yurasan?! Nega kelgansan bu yerga?!-o'shqira boshladi yoshgina mallasoch leytenant. Rostakamiga yig'lay boshladim.*

- *Eee kamandirjon, муж один год назад пришил работ. Ну работ, ни муж, ни денги нету эта. Адин нидел назад ман пришил эта. Муж ищит эта. Дома дети эта. Папа мама бабушка дедушка эта.*

- *Ko'ngli bo'shroq ekanmi rahmi kelayotgani ko'rinib turardi («Feysbuk»dan).*

Internet tarmog'ining «YouTube» kanalida bir videolavha efirga uzatildi. Unda tasvirlanishicha, ingliz tilini deyarli bilmaydigan o'zbek yigiti Amerikada shofyorlik qilar ekan. Katta yo'lda mashina yurmay qolgan. Telefonda ustaga bir amallab tushuntiryapti: *Yah, problem this problem skor. One going, going, two going, going, three (qih, qih) not going.* - *Bu yerda muammo, borasiz, borasiz, (qxx, qxx) ishlamayapti, yurmayapti.* Aslida, so'zlovchi «*Bir marta, ikki martada yuryapti, keyin ishlamay (yurmay) qolyapti*» demoqchi bo'lgan. Demak, anakoluf hodisasi faqat badiiy asarda qo'llanadigan badiiy tasvir vositasigina emas, jonli so'zlashuv uslubiga xos diskursiv vaziyatda kechadigan psixolingvistik holatning tildagi ifodasidir. Shunisi e'tiborliki, mediamatn imkoniyati orqali internet foydalanuvchilari yigitning grammatik jihatdan keskin xatoli nutqini jonli (real) shaklda ko'rib, tinglay oladilar. Ushbu tasvirdagi nutqiy vaziyatni ko'rgan ingliz tilini yaxshi bilmaydigan kuzatuvchi ham so'zlovchining xato gapirayotganini fahmlaydi. Bu esa jumlaning matn shakliga nisbatan ekspressiv ta'sirchanligini ancha yuqori darajada ta'minlaydi, ya'ni pragmatik tusini o'zgartiradi.

*Oramizda shifokorlar bormi Boyni ostirish un kimga borish kerakk terapevtmidiii*

*Boyni ostirish* birikmasi aslida *Bo'yni o'stirish* tarzida yozilishi kerak edi, lekin so'zlovchi (bayon qiluvchi)ning e'tiborsizligi tufayli «o» fonemasi bilan «o'» fonemasini farqlovchi belgilar tushirib qoldirilgan. Endi shu yozuvga nisbatan bildirilgan ayrim fikrlarni keltiramiz.

- *Zor BAD bor.Yaponiyaniki.Boyni zor ostiradi.*

- *Suzishga borish kerak*

- *Endokrinologga boring*

- *16-17 yoshgacha xarakter qilish kk edi*

- *Vrach ko'rigidan, kerakli tekshiruvlardan so'ng ma'lum bo'ladi*

- ***BOYNI OSTIRISH UCHUN-UNI JINOYATINI ISBOT QILISHI KERAK. BOYLAR KŪPINCHA PUL BILAN QUTILIB KETISHADI. ŪLIM JAZOSI BIZDA YO'QOTILGAN, BERSA-25 YIL BERADI.***

- *Savodsizlik tirik odamniyam go'rga tiqarkan*



- *bo‘yi o‘smayotganlik haqida gap boryapti bu yerda*
- *BO‘Y deb yozish kerak. BOY emas*
- *voy tovbayey, bu Maslaxat guruxi yekan, man «Keling bir kulishamizda»man db o‘ylovdim*
- *kuyonga borsez sabzi beradi*
- *Буў нарм менга ёкаду.*

### **3.2. Internet muloqoti sintaksisida paralingvistik va media vositalarning o‘rni**

Hozirgi zamon dunyosi – bu «tinglovchi» va «ko‘ruvchi odam» sintezi davri. A.V.Sokolov bugungi global ijtimoiy kommunikatsiya tizimining shakllanishi borasida Kanadalik professor M.Maklyuxan oldindan bashorat qilgani xususida bayon qilar ekan, uni «elektron muloqot dahosi» deb ataydi. Elektr va elektron muloqot vositalari, M.Maklyuxanga ko‘ra, insoniyat tarixidagi «kommunikatsion inqilob»dir. Zamonaviy muloqot vositalarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular individual sezgilarga emas, balki insonning butun asab tizimiga ta’sir qiladi. Elektron muloqot texnologiyalari yangi texnologik asosda sayyoramizni yagona «global qishloq»qa aylantiradi. M.Maklyuxan XX asrning 60-yillarida o‘z bashoratlarini o‘sha paytda paydo bo‘lgan televideniye imkoniyatlaridan boshlab shakllantirgan. U kompyuter texnologiyalarining istiqbollari hisobga olmagan edi, chunki u davrda hali muloqot vositasiga aylanmagan edi; shaxsiy kompyuterlar, masofadan kirish imkoniga ega ma’lumotlar banki, elektron pochta, «butun dunyo bo‘ylab o‘rgimchak to‘ri - internet» yo‘q edi. Ammo Maklyuxan «gipermediya» – multimediya tizimlarida amalga oshiriladigan tovush, statik va dinamik tasvirlar birligini paydo bo‘lishini oldindan bashorat qilgan<sup>1</sup>.

Eksperimental psixolog olim P.M.Yakobson shaxsni harakatlantiruvchi, faoliyatga rag‘batlantiruvchi motivatsion omillarning quyidagi ijtimoiy-psixologik turlarini tasniflaydi:

- 1) siyosiy, axloqiy ideallar;
- 2) taassurot olish uchun yetarlicha asosli manfaatlar (sport, san’at va hokazo);
- 3) kundalik hayotni tashkil etishga intilish, mehnat, ijodiy faoliyat va oilaviy hayot va boshqalarga layoqat);
- 4) biror narsaga kuchli ehtiyoj (kitoblar, pul va h.k.);

<sup>1</sup> Соколов А.В. Общая теория социальной коммуникации: Учебное пособие. СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 2002. – 103-104.

5) kuchli tuyg‘u (qadrlash, sevgi, qo‘rquv, g‘azab, g‘azab, achinish va h.k.);

6) muayyan vaziyatlarda kerakli tarzda munosabat bildirish uchun ichki ishonch);

7) urf-odatlar (an’analar, axloq);

8) taqlid (ijtimoiy taqlid, muayyan xulq-atvor namunasiga taqlid va boshqalar)<sup>1</sup>.

Bizningcha, internet muloqoti ana shu tushunchalarning barchasi doirasida ma’lumot olish, axborot almashish, global miqyosda hamfikrlar bilan bog‘lana olish, istagan mashg‘uloti bilan bilvosita shug‘ullanish imkoniyati to‘yintirilganligi sababli «*attraktor*» sifatida butun insoniyatni o‘ziga jalb eta oldi. Attraktor – (inglizcha attract – jalb qilmoq, o‘ziga tortmoq) dinamik tizimlar fazali nuqtalarining ko‘pligi bilan xarakterlanadigan, vaqt o‘qi davomida dinamik tizim trayektoriyasiga tortiluvchi holat. Attraktorning ortida sistemani to‘la egallashi, qoplashi mumkin bo‘lgan nisbatan barqaror holatlar yotadi<sup>2</sup>. Attraktorning eng oddiy belgisi – bu o‘ziga tortuvchi doimiy nuqta bo‘lib, pirovard natijada tizimning yangi sifat bosqichiga o‘tishiga sabab bo‘ladi. Xususan, bugungi shiddatli davrda dunyoda kechayotgan jarayonlar tillarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda.

Tilshunoslik fani paydo bo‘lganidan beri tilshunoslar og‘zaki va yozma nutq usullari haqida gapirib kelishgan. Shuningdek, til faoliyat ko‘rsatadigan vositalarga alohida e’tibor qaratilgan: og‘zaki nutq uchun – fonemik; yozma nutq uchun – grafik; imo-ishora tili uchun – vizual.

Bugungi kunda internet paydo bo‘lgunga qadar mavjud bo‘lgan xususiyatlarni o‘zida jamlagan tilning yangi faoliyat doirasi – Internet muloqoti haqida gapirish mumkin.

Bu internet foydalanuvchilari uchun kundalik-maishiy muloqot paytida ham turli noverbal vositalar: tasvirlar, fotosuratlar, audio va video elementlardan foydalanish imkonini berdi. Shu bilan birga, nutqiy muloqot samaradorligini ta’minlovchi paralingvistik vositalarning maqbul shakllarini tobora ko‘proq izlab topmoqda. Turli daraja va ko‘lamdagi muloqot doiralarida keng qo‘llanilayotgan zamonaviy «og‘zaki-yozma» internet diskursining ilgari tavsiflanmagan jihatlarini

---

<sup>1</sup> Якобсон П.М. Психологические проблемы мотивации поведения. – М., 1969. – С. 21-22; Якобсон Р. В поисках сущности языка // Семиотика. – М.: 1983. – С. 102-117; Якобсон Р. Избранные работы. – М.: 1985. – С. 21-22

<sup>2</sup> Nurmonov A., Rahimov A. Lingvosinergetikaga kirish – T.: Akadernashr, 2013. – B. 25.

yoritish, bugungi kunda tilda kechayotgan optimallashtirish jarayonlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

O'zaro ijobiy munosabat o'rnatish aksariyat suhbatdoshlarning asosiy kommunikativ maqsadidir. Bu maqsadga erishishda noverbal vositalar muhim ahamiyatga ega. Internet muloqoti bilvosita jarayon bo'lib, *adresant* → *texnik vosita (telefon, kompyuter)* → *adresat* tarzida kechadi. Tabiiyki, kommunikantlar bir-birlarining yuz-ko'z ifodalarini, imo-ishoralarini ko'ra olmaydilar. (Videomuloqotda buning ham imkoni paydo bo'ldi.) Hissiy ekspressivlik darajasi shaxslararo munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi: his-tuyg'ularning qanday vositalar orqali uzatilishi va qanchalik to'g'ri amalga oshirilishi axborot mazmuni va muloqot ta'sirchanligini orttirishi yoki kamaytirishi mumkin<sup>1</sup>.

Internet muloqotining inson hayotining barcha sohalariga kirib borishi va yetakchi vositalardan biriga aylanishi tilga ham o'z ta'sirini kuchaytirmoqda. Tarmoqli muloqotning turli shakllari tarkibini tahlil qilish tilning og'zaki va yozma muloqot uyg'unligidagi funksional jihatlari, jumladan, sintaktik xususiyatlarini tadqiq qilish imkonini beradi.

A.L.Latipovning o'rinli ta'kidlashicha, internet tilida sodir bo'layotgan o'zgarishlar vaqt o'tishi bilan kundalik tilga kirib boradi va shu bilan til tizimiga, uning so'z boyligiga ta'sir qiladi, shuning uchun so'nggi yillarda tilshunoslar tarmoq muloqotiga alohida e'tibor bera boshladilar.

Bugungi davr kishisida «yangi shiddatli virtual dunyo<sup>2</sup>» shakllanishi va rivojlanishini kuzatish imkoniyati bor<sup>3</sup>.

Paralingvistik vositalar internet muloqotining ustun jihati sifatida qo'shimcha axborot xususiyatiga ega bo'lishi bilan birga pragmatik funksiyalarni bajarishi bilan ham tobora ilmiy jamoatchilik e'tiborini tortmoqda. Ularning matn va diskursdagi o'rni va roli borasida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Paralingvistika** nutqiy muloqotga ovoz tembri, intonatsiya, yo'tal, imo-ishora, gapirish uslubi kabi vositalar yordamida uzatilayotgan ma'lumot muayyan ma'noda to'ldiradigan hodisalarni o'rganadi. Qabul qiluvchining belgilar ifodasiga reaksiyasini o'rganishi jihatidan pragmatikaga yaqin turadi. Paralingvistika obyekti turlicha tushuniladi.

---

<sup>1</sup> Боева Е. Д. Когнитивная паралингвистика. – Анапа, 2005. – С. 167.

<sup>2</sup> Crystal D. A brave new linguistic world. 125 Trinity: assessing the performance arts since 1877 (London: Trinity College), June 2002, – P. 18-19; Латипова А.Л. Лингвистическая специфика интернет-дискурса в разнотемных языках: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М.: Нальчик, 2020. – С. 3.

<sup>3</sup> Латипова А.Л. Ko'rsatilgan manba. – S. 3-4.

Tor ma'noda u talaffuz bilan birga keladigan tovush hodisalarini o'z ichiga oladi; keng ma'noda og'zaki nutq (faqatgina tovushga oid bo'lishi shart emas) bilan bog'liq jarayonlarni nazarda tutadi; va nihoyat, eng keng yondashuvda paralingvistika umuman nutqiy faoliyatga hamroh bo'lgan har qanday hodisa: tovush, grafik, kinetik va boshqalarni o'z ichiga oladi<sup>1</sup>.

- *Nima sababdan gumonsiraganini bilmayman. Bilib qolsam, Anvar degan laqma oshnam bor, o'shanga aytaman, sizga oqizmay-tomizmay yetkazadi. Keyingi paytda shunaqaroq bo'lib qolgan, derdim.*

*Bu gapdan Anvar ranjidi. «Shuni odam deb yo'qlab keldimmi?» deb. Hozir uning pichingiga javob qaytarsa gap talashib qolishlari mumkinligini bilib, indamadi. Boshini xam qilib o'tirdi. Elchin bu holatni pushaymonlikdan deb tushunib, jahl otidan tushdi. Birnafaslik sukut keraksiz gaplar seli yo'liga to'g'on bo'ldi (T.Malik, «Shaytanat»).*

«*Boshini egib, indamay o'tirish*» Anvar tomonidan gap talashishning oldini olish maqsadini ifodalasa, bu kinesik harakat Elchin (qabul qiluvchi) tomonidan «*qilgan ishidan pushaymon bo'lyapti*» pragmemasi tarzida qabul qilinyapti.

*Mana, oradan necha yil o'tib o'z darvozasi oldida uchrashib turibdi. Chuvrindi xuddi o'shandagi kabi «Polvon tog'a!» deb bo'ynidan quchgisi keldi. Salom bergach, quchoqlashib ko'rishish maqsadida qo'llarini ikki yonga yoydi. Lekin Hovuz polvon uning shashtini qaytardi – o'ng qo'lini uzatib qo'ya qoldi. Atayin shunday qildimi yo odati shumidi, Chuvrindi bilolmadi (T.Malik, «Shaytanat»).* Matnda kinesik harakatlar pragmatik mazmun ifodalashga xizmat qilgan. Hovuz polvonning quchoqlashib ko'rishmay, o'ng qo'lini uzatib qo'ya qolishi kommunikant kutgan samimiyatni bermaganligi uning ichki e'tiroziga sabab bo'ldi.

«Filosofskaya ensiklopediya» (Falsafiy ensiklopediya) lug'atida paralingvistikaning lingvistik va ijtimoiy-falsafiy mohiyati batafsil ochib berilgan. Paralingvistikaning rivojlanishi tilshunoslik amaliyoti va chet tilini o'rganishda, boshqa millat vakillari bilan muloqot jarayonida, san'at, tibbiyot, sud, tibbiy-ekspertiza kabi qator sohalarning ehtiyojlari uchun ham ahamiyatli ekanligi ta'kidlanadi. Masalan, shifokor kasallik belgilari ko'rinishida bemorning nutqiga hamroh bo'ladigan paralingvistik hodisalarni «o'qiydi». Bunday hollarda paralingvistik hodisalarni idrok etish va talqin qilish qobiliyati maxsus bilim talab qiladi – paralingvistik elementlar qanchalik maxsus bo'lsa, shunchalik murakkab bo'ladi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> <http://philosophy.niv.ru/doc/encyclopedia/philosophy>

<sup>2</sup> <http://philosophy.niv.ru/doc/encyclopedia/philosophy>

Internet muloqotida muayyan hissiyotni ifodalash uchun ishlatiladigan paralingvistik (grafik) vositalardan biri tinish belgilaridir. Yozma nutqqa xos bo'lgan tinish belgilari va bosh harflar imlosi ham yangicha uslubiy ma'no kasb etib, hissiy emotsionallikni ifodalash vositasiga aylandi. Undov va so'roq belgilarini qator qilib bir nechta qo'yish, jumladagi gap bo'laklari orasida va oxirida ko'p nuqtani qo'llash, so'z yoki jumlani bosh harflar bilan yozish, ayrim so'zlardagi harflar orasiga raqamlar qo'shish, kirillcha-lotınca alifboni aralashtirib qo'llash kabi bir qator yangicha funksional usullar paydo bo'ldiki, bularning bari subyektiv baho shakllari sifatida talqin qilinadi. Bu holatlar grammatik me'yorlardan chekinish hisoblansa-da, lekin «og'zaki-yozma» so'zlashuv jarayoni uchun uslubiy vosita sifatida emotsional-ekspressivlikni ifodalash vazifasini o'taydi.

*Kim bo'lishidan qat'iy nazar INSONNI sevishga o'rganing, o'rgating!* («Feysbuk»dan)

Jumlada mantiqiy urg'u olgan so'z bosh harflar bilan yozilgan. Ifodanayotgan fikrga so'zlovchi o'z subyektiv munosabatini shu tariqa ta'kidlamochi bo'lgan.

*ANOR HOSILI...ONAM EKKAN ANORLAR...*(«Feysbuk»dan)

Internet foydalanuvchisi tomonidan o'z onasining surati va anor rasmiga ilova tarzida yozilgan bu yozuv «Onamdan yodgorlik bo'lgan anor pishdi» mazmunidagi pragmemani ifodalaydi va kuzatuvchilarga (qabul qiluvchilarga) ham hissiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'sirchanlikni oshirish maqsadida so'zlar to'lig'icha bosh harflar bilan yozilgan.

Sintaktik birliklar mazmuni pragmatik doirasining kengayishi va turli modal ma'nolar ifodalanishida tinish belgilarining ham o'z o'ri va roli bor. Masalan, **so'roq belgisi** taajjub, g'azab, pushaymonlik, istehzo va haqorat kabilarni ifodalash uchun ishlatiladi.

a) istehzo: *Meni sertifikatim kani??? Kambag'alni tuyani ustida it qopadi deganday. Nima balo, uni ham gumdon kildilarmi???*

b) taajjub: *Tushunmadim xazilmi yeki???*

c) bezovtalik: *Kim uylaydi bularni, kim????*

d) ajablanish: *qatta adres???*

Ayniqsa, **undov belgisi** hissiyotlar palitrasini ifoda etishga yordam berishi bilan diqqatga sazovordir:

a) norozilik: *Ularda yaxshilik yo'q! Ularda yaxshilik yo'q!! Ularda yaxshilik yo'q!!!* Muallif o'z fikrining o'ta muhimligini ta'kidlash maqsadida gradatsiya usulini undov belgilari sonini ko'paytirib borish orqali qo'llagan.

b) olqish, minnatdorlik: *Sizga o'xshab teran fikrlaydigan insonlar ko'paysin! Rahmat!;*

c) taklif: *Noldan biznes boshlash yo'lini o'rgatamiz!;*

d) tabrik: *Tabriklaymiz Abusaid akamizni!!!;*

e) istehzo: *Mard bo'lsa 4 misra she'r o'qib o'zi chiqsin. Uyateyeyeyeye!!!;*

f) kinoya: *«Avval savodingni chiqar!!!» deydi odam yo'q...;*

g) qo'llab-quvvatlash: *Siz ajoyib ish qilyapsiz!!!;*

h) hamdardlik: *Shukur aka, sizni kuyinganz qayergayam borardi!..;*

i) quvonch: *Buvisini bolasi!!!;*

j) ta'kidni kuchaytirish: *Do'stning yaxshisi bu sening oilangdir!!!.*

Ko'p nuqta ham o'ziga xos funkcionallikka ega bo'lib, ikkilanish, afsuslanish, jim qolish, mulohazakorlik kabi ma'no ottenkalarini ifodalashga xizmat qiladi.

a) afsuslanish: *Mlyayaya... shunday...;*

b) mulohaza: *Kimdir sodda qilib tushuntirish kerak shekilli...;*

c) kinoya, piching: *Shunga ota go'ri qozixonami...?! ;*

d) jim qolish: *Ona ming hayajonga berildi. Boradi... .*

So'zlovchi o'z suhbatdoshiga nisbatan yaxshi munosabatda ekanini bildiruvchi signal yuborishi muhim, bu esa muloqot muvaffaqiyatini ta'minlaydi. A.S.Trachning fikriga ko'ra, ayni paytda og'zaki nutqning *hajm, intonatsiya, urg'u, ovoz tembri, taqlid va boshqa paralingvistik vositalarini hisobga olganda, u yozma nutqdan ancha boy*<sup>1</sup>.

Shuningdek, imo-ishoralar, yuz ifodalari, muloqot paytida o'zini tutish, so'zlovchining tashqi ko'rinishi va boshqa belgilar ham nutqiy ta'sirning noverbal vositalari hisoblanadi. Aynan, ana shu vositalar o'rnini to'ldirish ehtiyoji internet muloqoti jarayoniga kulgichlar («smayliklar»), turli xil illyustratsiyalar (emodzi, mem, gif, emotikon va boshqalar), animatsion tasvirlar kabi nutqiy ta'sir vositalarining paydo bo'lishiga olib keldi.

Internet muloqotining paydo bo'lishi bilan paralingvistik vositalar ro'yxati ancha kengaydi. Garchi bu illyustrativ vositalar an'anaviy muloqot jarayonida qo'llanib kelingan bo'lsa-da, internet diskursi ularni bir maydonga jamlab, foydalanish uchun qulay imkoniyat yaratib berganligi bilan xarakterlidir. Bunday illyustrativ vositalar uzatilayotgan ma'lumotni oson anglash, kommunikantlar o'rtasida o'zaro yaqin

---

<sup>1</sup> Трач А.С. Особенности использования письменной речи в сети Интернет // Известия ЮФУ (Южный федеральный университет) Раздел I. Проблемы современной филологии. – Таганрог, 2010. – С.34-39.



munosabatlarni shakllantirish, ekspressiv bo‘yoqdorlikni ta’minlash kabi qator vazifalarni bajaradi.

Shuningdek, boshqa madaniyat vakillari bilan ularning tilini bilmasdan turib muloqot qilish imkonini beradi. Tabiatiga ko‘ra, bular paralingvistik vositalar bo‘lib, muloqotning jonli va ta’sirli bo‘lishini ta’minlaydi. Ular ishtirokidagi muloqot esa «universal til»<sup>1</sup> deb ham yuritilmoqda.

Verbal (nutqiy) muloqotning noverbal (nutqiy bo‘lmagan) muloqotdan asosiy farqi shundaki, nutqiy muloqot ma’lum bir tayyor qoliplar yordamida quriladi. N.Xomskiy ta’biri bilan aytganda, tabiiy til imkoniyatlaridan foydalanib, cheksiz sonli elementlardan cheksiz ko‘p ifodalar tuza olamiz. Vizual usulning o‘ziga xos xususiyati esa u yoki bu xabarni uzatish va qabul qilish uchun kerak bo‘ladigan oldindan belgilangan elementlar to‘plami (til)ni bilish zarurati yo‘qligidadir.

Vizual muloqot jarayoni ma’lum bir elementar birliklar to‘plamini bilishni talab qilmaydi, tarjimaga muhtoj emas, shu jihatdan xalqlararo universal deb tan olinmoqda. Vizual muloqot kanalining bu xususiyatini reklama va PR diskursida kuzatishimiz mumkinki, bunday materiallardan qabul qiluvchilarning ona tilisidan qat’iy nazar ko‘plab mamlakatlarda foydalanishga imkon beradi.

Mana shunday qulayliklari tufayli paralingvistik vositalarning muloqot jarayonidagi o‘rni va roli kundan kunga ortib bormoqda. Shuning uchun bugungi kunda matn va diskurs, muloqot vositalariga oid tadqiqotlar doirasida *kreollashgan matn*, *kreollashish* tushunchalari paydo bo‘ldi.

**Kreol** (ispancha criollo, mahalliy).

1. Lotin Amerikasidagi ba’zi Yevropa koloniyalarida tug‘ilgan oq irqli odam yoki Yevropadan kelgan muhojir.

2. Odatda, biron-bir mamlakatning boshqa irqqa mansub ota-onadan tug‘ilgan fuqarosi.

3. Tushunchalar aralashuvi - kelib chiqishi oq va rangli ikki irqqa mansub. O‘xshashi – metis, mulat<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Китова Е.Б. Общение в интернет-среде и «универсальный язык» эмодзи // Вопросы теории и практики журналистики. 2016. Т. 5. – № 4. – С. 654-664; Клаус Г. Сила слова: Гносеологический и прагматический анализ языка. – М., 1967. – С. 254–264; Козлова М.С. Идея «языковых игр» // Философские идеи Людвига Витгенштейна. – М., 1996. – С. 5-24; Козлова М.С. Философия и язык. – М., 1972. – С. 334–356.

<sup>2</sup> Ушаков Д.Н. Толковый словарь Ушакова. 1935-1940 // <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ushakov/843586>

Kreol «oq va rangli irqdan kelib chiqqan aralash odam». Ispancha criollo dan Fransuz tili orqali créole (XVII asr)<sup>1</sup>.

Keyinroq boshqa sohalarda termin sifatida «ikki xil semiotik belgining aralashuvi natijasi sifatidagi voqelik» tarzida qoʻllana boshlagan. XX asrga kelib, matn va diskurs tushunchalari doirasida ham qoʻllana boshladi.

**Kreollashgan matn** tushunchasini Yu.A.Sorokin i YE.F.Tarasovlar birinchi marta isteʼmolga kiritdilar<sup>2</sup>. YE.YE.Anisimova, D.Kristal, V.M.Berezin, D.P.Chigayev, A.A.Bernatska, V.O'Gredi, N.S.Valgina, O.L.Kamenskaya, O.V.Poymanova, M.B.Voroshilova, YE.Yu.Dyakova, L.S.Bolshakova, YE.N.Galichkina, G.N.Telminov kabi tadqiqotchilar tomonidan tadqiq qilingan<sup>3</sup>. Oʻzbek tilshunosligida bu masala endigina oʻrganila boshlandi<sup>4</sup>.

**Kreollashgan matn** – turli toifadagi semiotik belgilar, yaʼni lingvistik va nolingvistik vositalar uygʻunligi asosida yaratilgan matndan iborat. Buni qanday tushunmoq kerak? Masalan, internet foydalanuvchisi yuborilayotgan xabar mazmunini kuchaytirish, taʼsirchanligini oshirish

---

<sup>1</sup>Этимологический словарь русского языка. М.: Прогресс. М.Р.Фасмер. 1964-1973// <https://dic.academic.ru/dic.nsf/vasmer/41825/креол>

<sup>2</sup> Сорокин Ю.А., Тарасов Е.Ф. Креолизованные тексты и их коммуникативная функция // Оптимизация речевого воздействия. – М.: Высшая школа, 1990. – С.180–186.

<sup>3</sup> Bu haqda qarang: Anisimova E.E. Креолизованный текст как лингвовизуальный феномен, его прагмалингвистический аспект // Актуальные проблемы лингвистики. – Воронеж, 1996; Anisimova E.E. Паралингвистика и текст (к проблеме креолизованных и гибридных текстов) // Вопр. языкознания. 1992, – №1. – С. 71–79; Чигаев Д.П. Способы креолизации современного рекламного текста: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, Моск. пед. гос. ун-т, 2010; Фиськова М.В. Роль креолизации в понимании текста // Филологические науки. Вопросы теории и практики, – № 7 (37) 2014, часть 2. – С.198-200; Галичкина Е.Н. Специфика компьютерного дискурса на английском и русском языках (на материале жанра компьютерных конференций): Дисс. ... канд. филол. наук. – Астрахань, 2001. – С. 49; Тельминов Г.Н. Интернет-реклама как вид креолизованного текста. – Нижегород: Вестник Нижегородского ун-та им. Н.И.Лобачевского, – 2009. – № 5. – С. 300–304; Каменская О. Л. Текст и коммуникация. – М., 1990; Максименко О.И. Поликодовый vs креолизованный текст: проблема терминологии // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. 2012. – № 2. – С. 93–102; Нежура Е.А. Новые типы креолизованных текстов в коммуникативном пространстве интернета // Теория языка и межкультурная коммуникация. 2012. – № 2 (12). – С. 47–52; Поварницына М.В. Специфика креолизованных текстов в массовой интернет-коммуникации [Электронный ресурс] // Universum: Филология и искусствоведение. 2015. – № 6 (19); Пойманова О.В. Семантическое пространство видеOVERBального текста: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М.: 1997.

<sup>4</sup> Bu haqda qarang: Abdullayev B. Kreollashgan matnlarning reklama mahsulotidagi oʻrni // «Science and Education» Scientific Journal May 2021. – В. 845-849; Egamberdiyeva F., Egamberdiyeva SH. Infografika verbal mediamatnni kreollashgan mediamatnga aylantiruvchi vosita // «Science and Education Scientific» Journal May 2021. – В.313-321.

maqsadida biror fotosurat, rasm yoki smaylni ilova qilib jo‘natadi. Demak, oddiy xabar matnida lisoniy ifoda bilan birga grafik yoki vizual ifoda adresant fikrini yetkazishda uyg‘unlashadi.

Verbal matnni qabul qiluvchi faqat matndagi ma‘lumotning mazmuniga e‘tibor qaratadi, xolos, uning texnik jihatlari adresat uchun muhim emas. Kreollashgan (va «semiotik jihatdan boyitilgan») matnlarda esa illyustrativ va vizual komponentlar o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, matnni bir butun holda idrok etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Komponentlardan biri olib tashlansa, qolgan komponent ma‘lumot uzatishni to‘xtatadi yoki yetarli darajada bajarmaydi yoki boshqacha talqin qilinadi. Kreollashgan matnning klassik namunasi A.de Sent-Ekzyuperining «Kichkina shahzoda» ertagi hisoblanadi. Asardagi nutqiy matn va muallif tomonidan chizilgan rasmlar bo‘linmas yaxlitlikni tashkil qiladi<sup>1</sup>.

Jumladan, smayllar haqli ravishda nutqiy ta‘sir imkoniyatlarini kengaytiradigan, og‘zaki nutqqa xos mimika, tana harakatlari kabi noverbal xatti-harakatlar o‘rmini qoplay oladigan innovatsion grafik vositalar hisoblanadi.

**Smayl (smaylik)** ingl. «smile» – tabassum degan ma‘noni bildiradi. Birinchi smaylikni yaratgan odam Skott Falman hisoblanadi, chunki u bir nechta tinish belgilaridan foydalanib, his-tuyg‘ularni ifodalovchi «tabassumli yuz» :- ) va «qayg‘uli yuz» :-( shakllarini yaratadi.

:-) **shakli** ikki nuqta, chiziqcha va o‘ng qavsdan hosil bo‘lgan, tabassumni bildiradi, va odatda, quvonch, zavqni ifodalaydi. Shaklni anglash uchun 90° yonbosh bilan qarash kerak bo‘ladi. Bu belgini «*smayliklar otasi*» deb ta‘riflaydilar<sup>2</sup>.

:-( **shakli** ikki nuqta, chiziq va chap qavsdan hosil bo‘lgan, afsus va umidsizlikka to‘la baxtsiz yuz tasvirlangan.

Bir necha oy ichida u ARPANET va Usenet ga tarqaldi. Falman va boshqalar shu mavzu bo‘yicha darhol ko‘plab variantlarni taklif qilishadi. Bunday belgilar emotion+icon («tuyg‘u» va «belgi») so‘zlaridan tashkil topgan emotikonlar (emoticons) deb atala boshladi<sup>3</sup>.


---

<sup>1</sup> [https://ru.wikipedia.org/wiki/Kreolizovanny\\_tekst](https://ru.wikipedia.org/wiki/Kreolizovanny_tekst)

<sup>2</sup> Пигина Е.С. Смайлик как элемент эмоционального воздействия в организации общения в сети Интернет // Филологические науки. Вопросы теории и практики Тамбов: Грамота, 2013. № 11 (29): Ч. II. С. 144-146.

<sup>3</sup> [https://ru.abcdef.wiki/wiki/Emoticon#Creation\\_of\\_:-\)\\_and\\_:-\(](https://ru.abcdef.wiki/wiki/Emoticon#Creation_of_:-)_and_:-()

:) :-) ==) %)  
 :( :-(- ; ) ;-)  
 :D :-D :-/ :/  
 :P :-p :-\* :-o  
 :'-( :'( X-) :-X



3.1-rasm. Amerikalik rassom Xarvi Boll

Sariq rangdagi tabassumli yuzni amerikalik rassom Xarvi Boll chizgan. Dastlab, u chizgan rasm nishon shaklida tayyorlangan va kayfiyatni ko‘tarish uchun kompaniya xodimlari va mijozlariga berilgan. Keyin yuz shaklining turli his-tuyg‘ularini ifodalovchi turlari paydo bo‘ldi.



**Emodzi** – yuz, narsalar, hayvonlar, tabiat hodisalarining kichik tasvirlari – emotikonlarning keyingi avlodi hisoblanadi. Emodzi yaponcha «iyeroglif» va «rasm» so‘zlaridan tuzilgan. Emodzi 1999-yilda DoMoCo xodimi Shigitaka Kurita tomonidan yaratilgan bo‘lib, u ob-havo ma’lumoti, komikslar va an’anaviy ramzlardan ilhom olgan. Ular uzoq vaqt faqat Yaponiyada ishlatilgan, 2007-2010 yillarda Unicode tizimi va

2011 yil iPhone / iPad klaviaturasiga qo‘shilgandan keyin butun dunyoga tarqaldi<sup>1</sup>.

- *Boshiga qiyiqchani o‘xshatib o‘ravogani-chi. Qoyileyeyy! Gapirishniyam boplabdi.* 😊😊😊

- *Qimiz obkeling* 😊

- *Rahmat opajonim, borizga shukr* 🙏

- *Maktabda ykimaganman deysiz. Ykisangiz vouçuyye yorvorarkansizde!...* 😊

- *Bu narxga qaysi yotoqxona sharoiti mos kelarkan hayronman* 😞😞😞

- *Salomatlik maslaxatlari* 💊 (Internetdan).

Ba‘zan matnning ta‘sirchanligini oshirish uchun so‘z bilan ifodalangan narsa va tushunchalarning kichik tasvirlari ham ilova qilinadi. Bu esa adresat tomonidan oson qabul qilinishini ta‘minlaydi yoki unga yengil kayfiyat bag‘ishlaydi:

- *Vay Kukon malikalari* 🌸 ukuv yiliniyam boshlab oldilarinmi. Gularam 🌸🌸 yenlarinda xijolat. Man gulmi 🌸 ye yenimda turganlarmi debman 😊😊😊

- *O‘zi Qozog‘istonning* 🇰🇿 chegarasida turaman. Chyegaragacha piyoda 🚶 borsam ham bo‘ladi Xorijga ketayotganim bilinsin deb aeroportdan ✈ samoletda 😊 ketmoqchiman, aeroportga 🛫 yarim soatda keldim, bir soat hali uchishga bor («Feysbuk»dan).

R.V.Kojina internet muloqotida emodzi tilining quyidagi funksiyalarini ajratib ko‘rsatadi:

1. **Emotsional-ekspressiv funksiya** – suhbatdoshga his-tuyg‘ular va kayfiyat yetkazishga qaratilgan. Masalan, *Bugun yomg‘ir yog‘moqda* jumlasining o‘zi berilganda, hech qanday bo‘yoqdorlik mavjud bo‘lmay, oddiy xabar ma‘nosini anglatadi. 😊 «o‘ylanib qolish» yoki 😞 «xafagarchilik» mazmunidagi biror emodzining qo‘shilishi ifoda mazmunini butunlay o‘zgartirib, unga eemotsionallik bag‘ishlaydi, so‘zlovchining ushbu xabarga muvofiq kayfiyatini baholashga xizmat qiladi.

2. **Fatik funksiya** – suhbatdosh bilan aloqa o‘rnatish uchun murojaat. Masalan, 🙌 «qo‘l silkitmoq» belgisi salomlashish va suhbatdosh bilan aloqa o‘rnatish uchun ishlatiladi. Bu funksiyani salomlashishni bildiruvchi barcha emodzi belgilari bajarishi mumkin, ular, ko‘pincha, Internet muloqotining boshlanishida ishlatiladi.

---

<sup>1</sup> Китова Е.Б. Общение в интернет-среде и «универсальный язык» эмодзи // Вопросы теории и практики журналистики. 2016. Т. 5. – № 4. – С. 654–664.



3. **Metatil funksiyasi** – emodzining o‘ziga xos ma’nosini talqin qilish yoki biror fikrni ifodalashda qo‘llanadi. Bu funksiyaga misol - 🙏 yopiq kaftlar shaklidagi ramz bo‘lib, ko‘pincha, ibodat yoki iltijo sifatida tushuniladi, lekin dastlab, piktogramma minnatdorchilik ma’nosiga ega edi<sup>1</sup>.

Emodzilar xabarni qanday talqin qilish kerakligiga yo‘naltiruvchi vazifasini bajarar ekan, kommunikantlar o‘rtasida do‘stona va erkin munosabatni saqlashga hissa qo‘shadi. Asosan, bir xil jamoaga mansub tanishlar, do‘stlar, hamkasblar, tengdoshlar, qarindoshlar, yaqinlar bilan muloqotda ishlatiladi, lekin rasmiy muloqotda, o‘zidan yuqori statusdagi shaxslar, notanish yoki negativ fikrli odamlar bilan muloqotda qo‘llanilmaydi. Bu esa paralingvistik vositalar qanchalik ommalashmasin, tabiiy til o‘rnini butunlay egallay olmasligidan dalolat beradi.

XXI asr jahon muloqot maydonida tub o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. Bugungi kunda internet muloqoti axborot almashish uchun yangicha muhit yaratdi, yangi turdagi munosabatlarga olib keldi. Internet makonida kreollashgan matnlarning yangi turlarini joriy etish jarayoni davom etmoqda. Bunday kreollashgan matnlarning o‘ziga xosligi, lingvistik va pragmatik jihatlari hali to‘liq o‘rganilmagan, uning turlari va funksiyalari tavsiflanmagan, nazariy asoslari ishlab chiqilmagan. Axborotlar qamrovi nihoyatda kengaygan, odamlarning vaqtni tejash ehtiyoji juda ortgan bugungi jamiyatda bunday noverbal vositalarning katta axborotni tez va oson yetkazib berish imkoniyati bilan ahamiyatlidir.

Kreollashgan matn qanday idrok qilinadi va uning qabul qiluvchiga ta’siri qanday bo‘ladi? M.V.Fiskova mana shu nuqtada kreolizatsiyaga nisbatan muallif (xabar yuboruvchi) va qabul qiluvchi pozitsiyasi bir-biridan farqlanishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Nutqiy kreolizatsiyaning ahamiyati shundaki, muallif o‘z matnini berishda, masalan, biror maishiy texnikaning harakat mexanizmini ta’riflaganda, uning adresat tomonidan muvaffaqiyatli qabul qilinishi butunlay muallifning mavzu yuzasidan yetarli bilimga ega ekanligiga, boy tasavvuri va fantaziyasiga bog‘liq.

Boshqa tomondan, aqliy kreolizatsiya – verbal va noverbal elementlardan foydalangan holda taqdim etilgan ma’lumotlarni idrok

---

<sup>1</sup> Кожина Р.В. Эмодзи как часть современной коммуникации // XX Юбилейная всероссийская научно практическая конференция молодых ученых, аспирантов и студентов: материалы конференции. 2019. – С. 123-124.



etish mexanizmi. Mental kreolizatsiya axborot orqali uzatilgan ta'sir natijasidir. Odam har qanday ma'lumotni ongida idrok etish bilan qabul qiladi. Bir matn bir nechta talqinlarga ega bo'lishi mumkin, chunki muallif va qabul qiluvchining, shuningdek, turli qabul qiluvchilarning bilimi, fikrlash tarzi va dunyoqarashi turlicha bo'lishi mumkin<sup>1</sup>.

Shu tariqa, kreolashgan matnning eng muhim xususiyati uning «paralingvistik faoliyati» deb hisoblash mumkin. Bu vositalar tarkibiy element sifatida qabul qiluvchining e'tiborini tortadi va mazmuni qay tarzda talqin qilishini rag'batlantiradi<sup>2</sup>.



### 3.2-rasm. «Rais buva» nomli telegram kanali faoliyatidan

- *Raxmat Shodmonov shunchalik e'tibor berib tabriklaganiz uchun.* (1)
- *bir paytlar shu Shodmonovni ustozini urganda, onasi maktabga janjal qilib kelgan bo'lsa kerakda oqibati ana* (2)
- *Shodmonov ok kungil ukuvchi ekan. Ustozlari yaxshi ukitmaganmi deyman da))* (3)
- *Tashkent shevada yezibdimi Shodmonov?* (4) («Telegram»dan)

<sup>1</sup> Фиськова М.В. Роль креолизации в понимании текста // Филологические науки. Вопросы теории и практики, – № 7 (37), 2014. часть 2. – С. 198-200.

<sup>2</sup> Галичкина Е.Н. Специфика компьютерного дискурса на английском и русском языках (на материале жанра компьютерных конференций): Дисс.канд. филол. наук. – Астрахань, 2001. – С. 49.

Izohlardan ko‘rinadiki, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari berilgan kreollashgan matnni pragmatik jihatdan turlicha talqin qilganlar.

*Birinchi jumlada* illyustrativ materiallarga e‘tibor qaratilmagan va oddiy tabrik matni sifatida qabul qilingan.

*Ikkinchi jumlada* «bolaning savodsizligiga ota-ona aybdor» pragmemasi ifodalangan.

*Uchinchi jumlada* «bolaning savodsizligiga o‘qituvchilar aybdor» pragmemasi yashiringan.

*To‘rtinchi jumlada* esa matnning uslubiy jihatiga e‘tibor qaratilib, Toshkent shevasida yozilganligi ta‘kidlangan, natijada, «xato yozgan bola - toshkentlik» pragmemasi shakllangan.

Shuningdek, qisqa vaqt ichida internet tarmog‘ining o‘zbek segmentida satirik matnlar muallifi timsoliga aylangan «rais buva» obrazining karikaturada tasvirlangan holati «Shodmonov g‘irt savodsiz» mazmunidagi achchiq kulgiga sabab bo‘lib, qabul qiluvchilarda emotsional kayfiyat uyg‘otadi. Kreollashgan matnlar adresatlarning yoshi, saviyasi, dunyoqarashi ta‘sirida ular tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin.

YE.YE.Anisimova matn tilshunosligi nuqtayi nazaridan kreollashgan matnni maxsus **lingvizual hodisa** sifatida ta‘riflaydi. «Bunda matnning nutqiy va tasviriy komponentlari qabul qiluvchiga uning murakkab pragmatik ta‘sirini ta‘minlovchi vizual, tizimli, mazmuniy va funksional yaxlitlikni hosil qiladi<sup>1</sup>». Quyidagi kreollashgan matn bunga misol bo‘la oladi.



### 3.3.- rasm. «Rais buva» nomli telegram kanali faoliyatidan

<sup>1</sup>Анисимова Е.Е. Паралингвистика и текст (к проблеме креолизованных и гибридных текстов) // Вопр. языкознания. 1992, – №1. – С. 71–79

Agar *Allo, mana deyarli yetib keldim... Svetoforda turibman* jumlarining o‘zi berilsa, ifodadagi mazmuni o‘z ma’nosida qabul qilish mumkin edi. Buni  $X=X_1$  tarzida ifodalash mumkin. Ushbu kreollashgan matndagi rasm uyg‘unligida esa qabul qiluvchi «so‘zlovchi yolg‘on gapiryapti», «u hali yo‘lga chiqmadi» pragmemalaridan birini talqin qilishi mumkin, ya’ni  $X=Y$ . Demak, illyustrativ vositalar matnda ifodalangan lisoniy sintagmalarning pragmatik mazmunini o‘zgartirib yuborishi ham mumkin ekan.

Dunyoda kechayotgan voqeliklar, yangiliklar, madaniy obyekt, ramz, kitob yoki filmdagi personaj va boshqalar asosida yangidan yangi kreolitik matnlar paydo bo‘laveradi va ular turli darajada – bir millat, milliy madaniyat yoki dunyo miqyosida ommalashishi mumkin. Ular zamonaviy muloqotning kuchli vositasi bo‘lib, u auditoriyaga faol ta’sir qiladi va jamoatchilik fikrini boshqarishi ham mumkin.

## UMUMIY XULOSALAR

1. Insonlar o‘zaro muloqot jarayonida axborot uzatuvchi (adresant) va uni qabul qiluvchi (adresat) munosabatiga kirishadilar. Har qanday nutqiy bayon kommunikativlik xususiyatiga ega bo‘lib, so‘zlovchi uzatadigan xabardan qabul qiluvchi tushunishi kerak bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Qabul qilingan ma’lumotning retseptor tomonidan idrok qilinishi pragmatik munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bunday munosabatlarda pragmatik jihatdan **so‘zlovchi pozitsiyasi** (shaklni tanlash) va **tinglovchi pozitsiyasi** (gapni talqin qilish) harakatlanadi.

2. Matn-diskurs dixotomiyasida ifodalanadigan *kommunikativ mazmun* va so‘zlovchi istagi bilan bog‘liq bo‘lmagan holda tinglovchi idrokida (qabulida) hosil bo‘ladigan *informativ mazmun* bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, ular o‘zaro qorishib, birikib, muloqotning samaraliligini ta’minlovchi omilga aylanadilar.

3. Diskurs jarayonida sintaktik qurilmalarda **semantik jihat** – til birliklarining belgilangan hodisaga munosabati va **pragmatik jihat** – so‘zlovchining xabar mazmuniga munosabati o‘zaro uzviy bog‘liqdir.

4. Muayyan diskursiv vaziyatning intralingvistik va ekstralingvistik omillari til funksiyasi tabiatini belgilaydi. Pragmalingvistik tadqiq jarayonida kontekstda til funksiyalari qay darajada amal qilayotgani tahlilga tortiladi, ularning muloqot samaradorligi / samarasizligidagi o‘rni va roli o‘rganiladi.

5. Pragmalingvistikaning yetakchi masalalaridan bo‘lgan implikasiya va tagma’no tushunchalari bir-biridan sezilarli farq qiladi: implikasiya rematik emas, bir ma’noda, o‘zgarmas, oson tuzilgan; tagma’no rematik, shuning uchun polisemantik, o‘zgaruvchan, tuzilish jihatdan murakkabroq. Implikasiya usuli tagma’no hosil qilish asosi (vositasi)dir.

6. Muloqot jarayonida sintaktik qurilmalarning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilishda so‘zlovchi tomonidan uzatilgan ma’lumotning idrok qilinishida pragmatik funktsiya bajaruvchi til birligiga nisbatan **pragmema** atamasini kiritish maqsadga muvofiqdir. Pragmemalarning lingvopragmatik xususiyatlari muloqot yoki kontekst doirasida aniqlanadi.

7. Sintaktik qurilmalar transformatsiyasi voqelikni bayon qilish bilan birga baho munosabatini ham ifodalaydi. Subyekt bilan bog‘liq har qanday nutqda so‘zlovchining ijobiy yoki salbiy munosabati aks etadi. Til

belgilarining nutqiy jarayonda voqelanishi ekspressiv sintaksisni yuzaga keltirishi pragmatika bilan chambarchas bog‘liqdir. Pragmatik bahoning yuzaga kelishida transformatsiyalangan sintaktik qurilmaning ijobiy yoki salbiy bo‘yoqqa egaligi gapning ifoda mazmunini kengaytiradi.

8. Matnning yashirin ma’nolarini idrok etish va tushunish uchun lisoniy qobiliyat bilan birga ongdagi umumiy bilimlar zaxirasi ham harakatga keladi. Kommunikantlarning o‘zaro hamkorlik doirasida yetarlicha axborot va tajribaga egaligi ularning suhbat zamiridagi tagma’noni uzatish va qabul qilishlariga asos bo‘ladi. Suhbatga guvoh bo‘lgan III shaxsning ana shu ma’lumotlarga ega emasligi uning pragmemani anglashiga to‘sqinlik qiladi.

9. Ekspressivlikni sintaktik usul bilan ifodalash imkoniyatini beruvchi o‘ziga xos sintaktik qurilma – undalmalarning lingvopragmatik xususiyatlarini tilshunoslikdagi yangicha qarashlar, yangi tahlil metodlari asosida o‘rganish tilshunoslik fani uchun boy material manbai bo‘la oladi.

10. Gapni murakkablashtiruvchi kirish va kiritmalar gapda kommunikativ-semantik jihatdan o‘ziga xos funksional vazifa bajaradi. Ularni bir-biridan farqlash lozim: kirishlar asosiy gapda ifodalanayotgan fikrga subyektiv munosabatni ifodalasa, kiritmalar asosiy gapdagi ma’noga qo‘shimcha ma’lumot, izoh tariqasida kiritiladi.

11. Fan-texnika taraqqiyotining mislsiz imkoniyatlari tufayli paydo bo‘lgan yozma so‘zlashuv usulida so‘zlarni xato yozish, grammatik vositalarni xato qo‘llash, qisqartiruv usullari, agrammatizmga moyillik kabi og‘zaki so‘zlashuv uslubiga xos sintaktik me’yordan chekinishlar internet muloqotiga ham «ko‘chdi».

12. Internet diskursi sintaksisida nutqiy ta’sirchanlikni ta’minlash maqsadida akronim, inversiya, parsellyatsiya va ellipsis usullari keng qo‘llanilayotgani kuzatildi.

13. Tilshunoslikdagi nisbatan yangicha qarashlarni shakllantiruvchi paralingvistika qabul qiluvchining belgilar ifodasiga reaksiyasini o‘rganishi jihatidan pragmatikaga yaqin turadi. Paralingvistik vositalar (ovoz tembri, intonatsiya, yo‘tal, imo-ishora, gapirish uslubi, kinesik harakatlar, audio va vizual elementlar) uzatilayotgan ma’lumotni to‘ldirishga xizmat qiladi.

14. Xabarni uzatishda sintaktik qurilmalarning kommunikativ funksiyasi samaradorligini ta’minlash, vaqt va kuchni tejash maqsadida grafik va audiovizual belgilarning ishlatilishi muloqot jarayonini osonlashtiradi va til birliklarining ta’sir kuchini oshiradi.

15. Illyustrativ vositalar matnda ifodalangan lisoniy sintagmalarning perseptiv qiymatini oshirib, qabul qiluvchilarda emotsional kayfiyat uyg'otishi, ular tomonidan turlicha qabul qilinishini ta'minlaydi, matnning pragmatik mazmunini o'zgartirib yuborishi ham mumkin.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi» PF-5850-son Farmoni. Manba: <http://lex.uz/docs/4561730>.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni // Xalq so‘zi, 2017 yil, 8 fevral. – № 28 (6722).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-sonli Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. O‘zA, 2020-yil 25-yanvar.

### II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

6. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – T., 1983. – B. 69-81.

7. Abdurahmonov G‘., Sulaymonov A., Xoliyorov X., Omonturdiyev J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. – T.: O‘qituvchi, 1979. – B. 5.

8. Александрова Е.М., Астафьева О.А. Парцелляция как экспрессивно-синтаксический приём расчленения текста (на материале коротких анекдотов) // Филологические науки. Вопросы теории и практики, – № 6 (48). 2015, часть 1. – С. 13-17.

9. Алпатов В.М. Язык – система правил и язык – деятельность // Историческая психология и социология истории. 2018. – № 2. – С. 202–220.

10. Арутюнова Н.Д. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 136-137.

11. Арутюнова, Н.Д., Падучева, Е.В. Истоки, проблемы и категории прагматики // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16: Лингвистическая прагматика. – М., 1985. – С. 3-47.

12. Арутюнова, Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики // Новое в зарубежной лингвистике – М.: Прогресс, 1985. – Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – С. 21–38;

13. Ахренова Н.А. Теоретические основы Интернет-лингвистики // Филологические науки. Вопросы теории и практики, – № 10 (28). 2013. – С. 22-26.

14. Бабаханова Д.А. Шахс нутқиға у яшаб турган худуднинг таъсири // НамДУ илмий ахборотномаси – Научный вестник НамГУ, 2019. – № 3. – С. 198-204.

15. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: изд-во Иностранной литературы, 1955. – 412 с.

16. Балли Ш. Французская стилистика. 2-е изд., стереотипное – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – С. 317-324

17. Boboyeva A. Hozirgi o'zbek adabiy tilida to'liqsiz gaplar. – Т. – 78 б.

18. Бондаренко С.В. Социальная структура виртуальных сетевых сообществ. – Ростов-на-Дону: Изд-во Ростовского ун-та, 2004. – С. 15.

19. Бюлер К. Теория языка. Репрезентативная функция языка. – М., 1993. – С. 12-14.

20. Ванников Ю.В. Синтаксис речи и синтаксические особенности русской речи. Изд-е 2-е. – М.: Книжный дом Либроком, 2009. – 296 с.

21. Виноградов В. В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – М., 1975. – 560 с.

22. Виноградов В.В. Словосочетание как предмет синтаксиса // Синтаксис современного русского языка: хрестоматия. 2-е изд., СПб: Филологический факультет СПбГУ, 2013. – С. 91..

23. Виноградова Т.Ю. Специфика общения в интернете // Русская и сопоставительная филология: Лингвокультурологический аспект. – Казань, 2004. – С. 63-67.

24. Витгенштейн Л. Философские исследования // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16: Лингвистическая прагматика. – М., 1985. – С. 79-128.

25. Вольф Александр. Акронимы и аббревиатуры // [astro.uni-altai.ru/~aw/blog/2010/06/acronyms-and-abbreviations.html](http://astro.uni-altai.ru/~aw/blog/2010/06/acronyms-and-abbreviations.html).

26. Иванчикова Е.А. Парцеллированные конструкции в современном русском языке // Русский язык и советское общество:

Морфология и синтаксис современного русского литературного языка: сб. статей. – М.: Наука, 1968. – С. 274-302.

27. Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Т.: Fan, 2007. – 123 b.

28. Karimov S. Oʻzbek tili funksional stilistikasi. Monografiya. – Samarqand: SamDU, 2010. – В. 186.

29. Китова Е.Б. Общение в интернет-среде и «универсальный язык» эмодзи // Вопросы теории и практики журналистики. 2016. Т. 5. – № 4. – С. 654–664.

30. Клаус Г. Сила слова: Гносеологический и прагматический анализ языка. – М., 1967. – С. 254–264.

31. Козлова М.С. Идея «языковых игр» // Философские идеи Людвига Витгенштейна. – М., 1996. – С. 5-24.

32. Козлова М.С. Философия и язык. – М., 1972. – С. 334–356.

33. Корниенко М.А. Лингвофилософия Ноама Хомского: от картезианской традиции к генеративной грамматике // Вестник Томского государственного университета Философия. Социология. Политология. 2018. – № 43. – С. 88-100.

34. Крючков С.Е. Вопросы синтаксиса современного русского языка. – М.: 1950. – С. 274.

35. Qurbonova M., Sayfullayeva R., Boqiyeva G., Mengliyev B. Oʻzbek tilining struktural sintaksisi. Oʻquv koʻllanmasi. – Т., 2004. – В. 54.

36. Lutfullayeva D. Sodda gaplarda yoʻqlik maʼnosining yashirin ifodalanishi // Oʻzbek tili va adabiyoti. – Т., 2001. – №5. – В. 42-45

37. Mahmudov N., Nurmonov A. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis) – Т.: Oʻqituvchi, 1995. – В. 28.

38. Mirtojdiyev M.M. Gap boʻlaklarida semantik-sintaktik nomutanosiblik. – Т.: Universitet, 2008. – 200 b.

39. Моррис Ч.У. Из книги «Значение и означивание» // Семиотика. – М., 1983. – С. 118-132.

40. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. Uch jildlik. I jild. – Т.: Akademnashr, 2012. – 416 b.

41. Nurmonov A. Tanlangan asarlar Uch jildlik. III jild. – Т.: Akademnashr, 2012. – В. 134.

42. Петров В.В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16: Лингвистическая прагматика. – М., 1985. – С. 471-476.

- 43.Почепцов Г.Г. История русской семиотики до и после 1917 года. – М.: 1998. – С. 168.
- 44.Почепцов Г.Г. Конструктивный анализ структуры предложения. – Киев: Вища школа, 1971. – С. 114.
- 45.Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Darslik. – Т.: Universitet, 2006. – В. 271.
- 46.Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Т., 2009. – В. 271
- 47.Sayfullayev A. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida undalma. – Т., Fan, 1968. – В. 70-71.
- 48.Safarov Sh. Tilshunoslikning navbatdagi vazifalari // Xorijiy filologiya. – № 3. 2016. – В. 48-51.
- 49.Сигал К.Я. Эллипсис как речевой процесс (на материале словосочетаний) // <https://cyberleninka.ru/article/n/ellipsis-kak>.
- 50.Сковородников А.П. Экспрессивные синтаксические конструкции современного русского литературного языка. – Томск: Изд-во Томского ун-та, 1981.
- 51.Скребнев Ю.М. Основы стилистики английского языка. – М.: Высш. шк, 1994. – 240 с.
- 52.Стародумова Е. А. Синтаксис современного русского языка. Владивосток, Изд. Дальневосточного университета, 2005. – С. 33-41.
- 53.Степанов Ю.С. В мире семиотики // Семиотика. – М.: 1983. – С. 5-36.
- 54.Сусов И.П. Семиотика и лингвистическая прагматика // Язык, личность и дискурс. – Тверь: 1990. – С. 125-133.
- 55.Сусов И.П. Лингвистическая прагматика. – М.: Восток-Запад, 2006. – С. 8
- 56.Toshaliyev I. Hozirgi o‘zbek tili. Sintaksis. Sintaktik va sintagmatik qayta bo‘linish. Parsellyatsiya. – Т.: Zar qalam, 2004. – 88 b.
- 57.Трач А.С. Особенности использования письменной речи в сети Интернет.// Известия ЮФУ (Южный федеральный университет) Раздел I. Проблемы современной филологии. – Таганрог, 2010. – С. 34-39.
- 58.Turoпова M. Pova konstruksiyaning boshqa sintaktik konstruksiyalardan farqi // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1980. – №1. – В. 53-56.
- 59.Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek tili. – Termiz, 2012. – В. 116.

60. О‘ринбойев В. О‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. – Т.: Fan, 1974. – В. 71-78.

61. О‘ринбойев В. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Samarqand, 2001. – В. 99.

62. Финн В.К. Семиотика // Философский энциклопедический словарь. – М., 1983. – С. 601-602.

63. Хомский Н. Синтаксические структуры // Новое в лингвистике. – М., 1962. В. II. – С. 412-527.

64. Фортунатов Ф.Ф. Избранные труды. Том 1. – М.: Гос.учебно-пед.изд. Мин.просв. РСФСР, – С. 183.

65. Hazratqulov A. O‘zbek tili dialogik nutq sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1991. – S. 112-118

66. Xasanova O. Q. Akustik mnemotexnikalar // «Xorijiy tillarni o‘qitish dinamikasi va uni o‘qitish samaradorligini oshirishning kognitiv texnologiyalari» masalalariga bag‘ishlangan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi – Т.,– В. 314-317.

67. Xo‘jayev T. So‘z birikmasi talqiniga qisqacha sharh // <http://library.ziyonet.uz/>

68. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Т.: Akademnashr, 2013. – 176 b.

69. Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari [Matn]: darslik. – Farg‘ona: Klassik, 2020. – 420 b.

70. Shamaxmudova A. Zamonaviy tilshunoslikda bilvositalik va implitsitlik tushunchalari. Xorijiy filologiya. – № 1. 2017. – В. 68-70.

71. Sharipov M.K. Hozirgi o‘zbek tilida so‘z birikmalari sintaksisi masalasi, – Т.: Fan, 1978. – 88 b.

72. Шахматов А.А. Синтаксис Русского языка. 3-е изд. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – 624 с.

73. Шмелева Т.В. Медиалингвистика как медийное речеведение // Медиатекст как полиинтенциональная система: сб. статей / отв. ред. Л.Р. Дускаева, Н.С. Цветова. СПб, 2012. – С. 68-71.

74. Шмелева Т.В. Семантический синтаксис: Текст лекций из курса «Современный русский язык» / – Красноярск: Краснояр. гос. ун-т, 1994. – С. 4.

75. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – Т.: O‘qituvchi, 1983. – В. 189.

76. Шрамко Я. Очерк возникновения и развития аналитической философии // Логос. 2005. – Т. 47, вып. 2. – С. 4-12.

77.Eltazarov J.D. Tildagi tejamlilik tamoyili va qisqaruv. Monografiya. – Samarqand: SamDU, 2004. – B. 16.

78.Yusupov O. Badiiy matnning lingvokognitiv xususiyatlari // TDPU Ilmiy axborotlari. Ilmiy-nazariy jurnali – № 2 (11) 2017. – B. 41-44.

79.Yusupova Sh Diniy matn pragmatikasi. - Farg‘ona: Klassik, 2020. -136 b.

80.Якобсон П.М. Психологические проблемы мотивации поведения. – М., 1969. – С. 21-22.

81.Якобсон Р. В поисках сущности языка // Семиотика. – М.: 1983. – С. 102-117.

82.Якобсон Р. Избранные работы. – М.: 1985. – С. 21-22.

### **III. Dissertatsiya va avtoreferatlar**

83.Галичкина Е.Н. Специфика компьютерного дискурса на английском и русском языках (на материале жанра компьютерных конференций): Дисс. ... канд. филол. наук. – Астрахань, 2001. – С. 147.

84.G‘afforov A.A. Hozirgi o‘zbek tilida parsellyativ va ilovali qurilmalarning sintaktik derivatsiyasi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Samarqand, 1997. – 26 b.

85.Ермакова Е.В. Имплицитность в художественном тексте (на материале русскоязычной и англоязычной прозы психологического и фантастического реализма) Автореф. дисс. док. фил. наук, Саратов – 2010. – С. 289-296.

86.Иванилова Е.Н. Структурно-семантические особенности эллиптических предложений во французском и английском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Нальчик, 2008. – С. 10.

87.Ismoilov X.T. Sud lingvistikasining sotsiolingvistik va psixolingvistik aspektlari (jinoyat ishlari bo‘yicha sud majlisi misolida): Filol.fan.b.f.d-ri. ... diss. – Andijon, 2021. – 142 b.

88.Karimova F.S. O‘zbek tilidagi dialogik nutqning lingvopragmatik xususiyatlari: Filol fan. b. f. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – T., 2021. – 57 b.

89. Qosimova M.Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (Tog‘ay Murod asarlari asosida): Filol. fan. nomz. diss.avtoref. - T., 2008. – 23 b.



90. Латипова А.Л. Лингвистическая специфика интернет-дискурса в разносистемных языках: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М.: Нальчик, 2020. – С. 3.

91. Lutfullayeva D. Tasdiq gaplarda inkor va shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T., 1997. – 27 b.

92. Raupova L. Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. fan. dokt. ... diss. – T., 2012. – 220 b.

93. Raupova L. Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri. ... diss. avtoref. - T., 2012. - 48 b.

94. Xudayberganova D.S. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini. Filol. fan. d-ri. ... diss. avtoref. – T., 2015. – 44 b.

95. Haydarov Sh.M. Badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalarning ko‘llanilishi. Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T., 2011. – 21 b.

#### **IV. Lug‘atlar**

96. Арутюнова Н.Д. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 136-137.

97. Арутюнова Н.Д. Прагматика // Языкознание: Большой энциклопедический словарь. – М, 1998. – С. 389-390.

98. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik, 3-jild, – T.: O‘zME, 2007. – B. 480-496.

99. Quronov D., Z.Mamajonov, M.Shyeraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010. – 397-b.

#### **VI. Internet manbalar**

100. <https://studfile.net/preview/4272288/page:3/>

101. <https://cambridge.ua/blog/top-10-english-acronyms-that-became-words/>

102. <https://e-adabiyot.uz/maqola/412>

103. <https://webkonspekt.com/?room=profile&id=19244&labelid=255884>

104. [https://ru.abcdef.wiki/wiki/Emoticon#Creation of :-\) and :-\(](https://ru.abcdef.wiki/wiki/Emoticon#Creation_of :-) and :-()

105. <https://philnauki.mgimo.ru/jour/article/view/318/315>

106. <https://saviya.uz>

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
<b>Birinchi bob. Matnning amaliy faoliyatiga pragmatik yondashuv.....</b>	<b>5</b>
1.1. Pragmatik lingvistikaning shakllanishi va matnning lingvopragmatik tadqiqi.....	5
1.2. Diskurs va madaniy kompetensiya.....	24
<b>Ikkinchi bob. Sintaktik sath til birliklarining nutq individualligini ta'minlovchi lingvopragmatik tabiati.....</b>	<b>38</b>
2.1. So'z birikmasining nutq individualligini ta'minlovchi lingvopragmatik tabiati.....	38
2.2. Sodda gaplarning grammatik pozitsiyasida lingvopragmatik belgilar.....	45
2.3. Murakkablashgan sodda gaplar grammatik pozitsiyasida lingvopragmatik belgilar.....	51
<b>Uchinchi bob. Internet muloqoti sintaksopragmatikasi.....</b>	<b>60</b>
3.1. Internet diskursi tilining sintaktik o'ziga xosligi.....	60
3.2. Internet muloqoti sintaksisida paralingvistik va media vositalarning o'rni.....	74
<b>Umumiy xulosalar.....</b>	<b>89</b>
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	92

**Madaminova Muhabbat Sotvoldiyevna**

**MATN PRAGMATIK TAVSIFIDA SINTAKTIK  
BIRLIKLARNING O‘RNI**

**Monografiya**

**“Bookmany print” nashriyoti**

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 07.06.2023.

“Times New Roman” garniturasini. Qog‘oz bichimi: 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>

Nashriyot bosma tabog‘i 5,8. Shartli bosma taboq 5,9.

Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: [bookmany\\_print@mail.ru](mailto:bookmany_print@mail.ru)  
t.me/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10